


IN VOLUME #2  
ISSUE #6  
JUNE 2024

ISSN: 2992-8869



# JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN

- Exact Sciences
- Natural Sciences
- Technical Sciences
- Pedagogical Sciences
- Social Sciences
- Philosophical Sciences
- Philology
- Economics
- Agriculture
- Psychological Sciences
- Medical Sciences



Research Science and  
Innovation House



SJIF 2024 = 5.047  
ResearchBib Impact faktor: 9,654 / 2024



www.universalpublishings.com



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE” MCHJ**

# **JOURNAL OF SCIENCE RESEARCH**

**Research Science and  
Innovation House**

**VOLUME 2, ISSUE 6,  
2024. JUNE**

**Tel: +998930901912**

**Web sayt: <http://universalpublishings.com> Email: [sabirovj75@gmail.com](mailto:sabirovj75@gmail.com)**

«Journal of science-innovative research in Uzbekistan» ilmiy-uslubiy jurnali:  
30.06.2024-yil.

Ushbu to‘plamda « Journal of science-innovative research in Uzbekistan »  
ilmiy-uslubiy jurnali 2024-yil 2-soni 6-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr  
etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib,  
**Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus,**  
**Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya  
etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida  
rasman tan olinadi.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining  
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar,  
doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy  
xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Eslatma!** Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi  
raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar  
to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ



### TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir,** Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Mas’ul kotib:** Sobirov Javoxir Xayrulla o’g’li Urganch davlat Universiteti talabasi

**Nashrga tayyorlovchi:** Eshqorayev Samariddin Sadridin o’g’li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi.

### TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

1. **Rahimov Rahimboy Atajanovich,** Urganch davlat universiteti professori, Texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining Akademigi.
2. **Isayev Sabirjan Xusanbayevich,** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrası, qishloq xo’jaligi fanlari doktori, professor.
3. **Matyakubov Baxtiyar Shamratovich,** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrası professori, qishloq xo’jaligi fanlari doktori, professor.
4. **Norboyeva Umida Toshtemirovna,** Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrası professori, DSc (Biologiya fanlari), professor.
5. **Matsaidova Sayyora Xudayberganovna,** Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo’jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
6. **Xamroyev Muxtor Ozodovich,** Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
7. **Matchanov Otabek Jumanazarovich** Urganch Davlat Universiteti, Texnika fakulteti Geodeziya, Kartografiya, kafedrası Dotsenti. Yo’nalish - Tabiiy Geografiya.
8. **Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna,** Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).
9. **Djumayev Mamanazar Irgashevich** Pedagogika fanlari nomzodi, professor Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang’ich ta’limda matematika va uni o’qitish metodikasi kafedrası , professori p.f.n.
10. **Qandov Bahodir Mirzaevich** Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası PhD, dotsenti.
11. **Samandarov Ergash Iskandarovich,** Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo’jaligi fanlari fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrası, qishloq xo’jaligi fanlari nomzodi, dosent.

12. **Egamov Baxtiyor Nurmetovich**, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
13. **Rajabov Alibek Xushnodbekovich**, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasida, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
14. **Babajanova Sanabar Yuldashbayevna**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasida, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori-PhD., dotsent.
15. **Masharipov Adamboy Atanazarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasida dotsenti.
16. **Ismoilova Himoyat Matnazarovna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasida, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
17. **Ismayilova Intizar**, Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrasida, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.
18. **Razakova Rayxan Saylaubekovna** Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
19. **Ataullayev Zokir Maxsudovich**, Urganch davlat universiteti, kimyo kafedrasida, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), kimyo kafedrasida dotsenti.
20. **Raximova Xolisxon Maksudovna**, Urganch davlat universiteti, Biologiya kafedrasida, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
21. **Axmedova Ma‘rifat Abdullayevna** Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi kafedrasida dotsenti.
22. **Raximova E‘tibor Rustamovna**, Urganch davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
23. **Parda Alimov**, Termiz davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
24. **Mardonova Lobar Umaraliyevna**, Termiz davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
25. **Tajiyev Zokirjon Rajabovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Biologiya” kafedrasida, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.
26. **Atadjanov Ilhom Sharipovich** Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti. Geografiya kafedrasida dotsenti.
27. **Raximova Go‘zal Yuldashovna**, Urganch davlat universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida mudiri, PhD.
28. **Atabayeva Mavjuda Rustamovna**, Urganch Davlat Universiteti qoshidagi akademik liseyi Oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi.
29. **Xamidov Abdumalik Kironovich**, Termiz davlat pedagogika instituti, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

30. **Matchanova Aybibi Erkinovna**, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrasini, geografiya fanlari falsafa doktori (PhD).
31. **Ashurbayeva Rukiya Kaxxorovna**, Pedagogika fanlari nomzodi (PhD) Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika, psixologiya kafedrasini PhD assistenti.
32. **Narzullayeva Dilfuza Saitovna** Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro muhandislik-texnologiya instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti.
33. **Kazimova Gulnora Xakimovna** falsafa fanlari nomzodi, Buxoro muxandislik- texnologiya instituti Ozbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti.
34. **Sapayeva Rayxon Bobojonovna** Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Urganch davlat universiteti, “Roman-german filologiyasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi (PhD).
35. **Bahodirova Feruza Bahodir qizi** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) UrDU Roman-german filologiyasi kafedrasini PhD, dotsenti
36. **Eshchanova Aziza Karriyevna**, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Kimyo kafedrasini, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi.
37. **Sadikova Saboxat Babayevna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasini, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b
38. **Azizjanov Xushnud Maksudovich**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasini, kimyo fanlari nomzodi, dotsent.
39. **Baxronov Jur‘at Djurakulovich** Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasini mudiri.
40. **Hakimov Sherali Qo‘zievich**. Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori. Buxoro davlat tibbiyot instituti, travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrasini v.b. dotsenti.
41. **Samadova Shaxzoda Isoqovna** Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat tibbiyot instituti Terapevtik stomatologiya kafedrasini v.b. dotsenti.
42. **Azimov Sardorbek Ilhomovich** Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti Urologiya, nefrologiy va gemodializ kafedrasini mudiri ,dotsent.
43. **Hamroyeva Dilafro‘z Shukurovna** Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat tibbiyot instituti Terapevtik stomatologiya kafedrasini assistenti.
44. **Xodjayeva Gulshod Baxadirovna**, Urganch davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrasini, PhD, kafedra dotsenti.
45. **Jonibekov Jasurbek Jonibekovich** Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro davlat tibbiyot instituti, Yadro tibbiyoti va tibbiy radiologiya kafedrasini mudiri.

46. **Tursunov Burxon**, O‘zbekiston Respublikasi jamoat Xavfsizligi universiteti Xarbiy Vatanparvalik ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasida boshlig‘i podpolkovnik
47. **Raxmatova Dilbar Baxriddinovna**, Ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti (kardiologiya ixtisosligi bo‘yicha), PhD (profilaktik tibbiyot va kardiologiya ixtisosligi).
48. **Davronova Shohsanam Gaybulloyevna** Buxoro davlat universiteti Buxoro davlat universiteti. Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida, DSc, dots.
49. **Nusratov Umid G‘olibovich** Tibbiyot fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro Davlat tibbiyot instituti Ortopedik stomatologiya va ortodonti kafedrasida assistenti.
50. **Radjanova Feruza Abdullaevna**, Urganch davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrasida mudiri, PhD (Filologiya fanlari), dotsent.
51. **Saidmuratova Malohat Baxtiyorovna**, UrDU pedagogika fakulteti “pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). v.b. dots.
52. **Choriyev Faxriddin Abdig‘apparovich** O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti “Xarbiy vatanparvarlik ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasida dotsenti
53. **Baxranov Sherzad Tashtursunovich** O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti “Xarbiy vatanparvarlik ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasida O‘qituvchisi
54. **Xaitov Abror Uralovich** O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti “Xarbiy vatanparvarlik ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasida O‘qituvchisi
55. **Xujaniyozova Oygul Rajabovna** Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti
56. **Dexqonov Maxmud Roxataliyevich** Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti falsafa fanlari doktori (PhD) dotsenti
57. **Berdiyev Xayriddin Abdulloyevich** Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
58. **Rashidov Azizbek Ulugbekovich** PhD, dotsent, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
59. **Maxmudjon Ochilovich Shoniyozov** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Tillar kafedrasida filologiya fanlari nomzodi, dotsenti
60. **Atayeva Mexriniso Farxodovna**, Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).
61. **Boltayeva Zarina Azamatovna**, Buxoro davlat universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti, Ekologiya va geografiya kafedrasida dotsenti, PhD (Biologiya fanlari), Dotsent
62. **Ibragimova Ra'no Isakovna** Filologiya fanlari falsafa doktori(PhD), Qoraqalpogiston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti

63. **Kabulova Lola Tolibaevna** Qoraqalpoq davlat universiti rus tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari namzodi.
64. **Kuryazov Rustamxon Shonazarovich** Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti Kimyo kafedrasida Kimyo fanlari nomzodi dotsent
65. **Ollaberganova Sanobar Xamidovna** Filologiya fanlari nomzodi, Urganch davlat universiteti “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasida dotsenti
66. **Nafisa Zaribova Umirboy qizi**, Urganch davlat universiteti biologiya kafedrasida o'qituvchisi, qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD). nafisazaripova299@gmail.com
67. **Annamuratova Dilorom Raxmanovna** Urganch davlat universiteti "Biologiya" kafedrasida dotsenti, biologiya fanlari nomzodi, dotsent. dannamuratova@mail.ru
68. **Xudayberganova Ogiljan Batirovna** O'zbekiston Respublikasi Urganch davlat universiteti Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasida pedagogika fanlari nomzodi professori, Dotsent. Urganch, O'zbekiston. Elektron pochta: xydayberganova66@mail.ru
69. **Dusimov Zaribboy**, filologiya fanlari doktori (DSc), Urganch davlat universiteti, O'zbekiston
70. **Amanov Allabergan Kutlimuratovich**, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrasida o'qituvchisi.
71. **Kuchkarova Dilbar Pirlapasovna**, Urganch davlat universiteti geografiya fani o'qituvchisi.
72. **Raximova Anamoy**, Qo'shko'pir tumani 25-son umum ta'lim maktabi Manaviy ma'rifiy ishlar direktori o'rinbosari. Geografiya fani o'qituvchisi.
73. **Aliyeva Navruza Xabibullayevna**, Farqona davlat universiteti, Ingliz filologiyasi kafedrasida, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
74. **Xudayberganova Dildora Kulmamatovna** Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
75. **Jammatova Maqsuda Sharipovna** UrDU akademik litseyi Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
76. **Latipova Umida Yusufboyevna** Urganch davlat universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsent v.b. psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
77. **Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna** Ma'mun universiteti NTM psixologiya va tibbiyot kafedrasida dotsent v.b. psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



## VOYAGA YETMAGAN YOSHLARDA XULQ OG‘ISHI VA TARBIYA BUZILISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrası” dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi, **dotsent**  
**Rejametova Iroda Ikramshikovna**

Toshkent shahar Sergeli tumani 6-DIUUT maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
**Xo‘jayarova Dilrabo Ashurovna**

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o‘zib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, ertangi kuni, ularning jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida davlat miqyosida ulkan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Tashqi muhit yoki ijtimoiy voqea-hodisalar har doim ham xulq og‘ishining kelib chiqishi uchun yagona asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Qachonki, ijtimoiy voqea-hodisalar va individ o‘rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar yuzaga kelsa, jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy me’yorlar individ tomonidan qabul qilinmasa, ijtimoiy muhitda xulq og‘ishining kelib chiqishi uchun yetarli shart-sharoit mavjud bo‘lsa, xulq og‘ishi kelib chiqishi mumkin.

Xulq og‘ishining kelib chiqish sabablarini aniqlash, eng avvalo, u yuzaga kelgan ijtimoiy muhit xususiyatlarini o‘rganib chiqishni taqozo qiladi. Chunki xulq og‘ishini umumiy ko‘rinishda oladigan bo‘lsak, u biror bir shaxsga xos bo‘lgan sub’ektiv xulq-atvor natijasi emas, balki sub’ektiv va ob’ektiv jarayonlar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ijtimoiy jarayonlarning individual xatti-harakatlarga ta’siri masalasiga oydinlik kiritish zarur bo‘ladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, shaxs xulq-atvoridagi buzilish ijtimoiy muhitning o‘ziga xos jihatlari, individning fe’l-atvori, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy me’yorlar va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda ularning zo‘rayib borishi kabilarga bog‘liq bo‘ladi. Shaxsning dunyoqarashi, ya’ni qadriyatlar orientatsiyasi, ijtimoiylashuvi va individual hissiyotlarining ijobiy tarzda shakllanishi va namoyon bo‘lishi kishini jamiyat va insoniyat uchun foydali bo‘lgan xatti-harakatlarga undaydi.

Shaxsning ijtimoiy voqelikdagi turmush tarzi, hayot sharoiti, tarbiyalanganlik va muayyan vaziyatlar taqozosiga ko'ra xulq og'ishining kelib chiqishi uchun zaruriy shart-sharoit mavjud bo'ladi. Muayyan turmush tarzi va o'ziga xos tarbiya muhitida kamol topgan shaxs turli hayotiy vaziyatlarda ijtimoiy muhit shartsharoitlariga ko'ra ma'lum ziddiyatlarga duch keladi va uni yengib o'tishga harakat qiladi. Shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar orientatsiyasi va onglilik darajasi noqonuniy xatti-harakatlarga yetaklovchi yoki muayyan hayotiy vaziyatlarni yumshatishga qaratilgan to'g'ri yoki ijobiy qaror qabul qilinishini belgilaydi. Shunday qilib, inson ijtimoiy hayotda turli murakkab vaziyatlarga duch keladi, ammo undan oqilona yo'l bilan chiqib ketish uning aqliy salohiyati, ma'naviy olami, tarbiyalanganlik darajasi va bir qator ijobiy shaxsiy fazilatlariga bog'liq bo'ladi.

*Tarbiya buzilishining asosiy ijtimoiy psixologik sabablaridan biri ularda ta'lim olishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lishidir.* Odatda bunday munosabatning paydo bo'lishiga boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, bular o'quv faoliyati usuli, malakalari to'la tarkib topmaganligi sababli nisbiy bilim olish bilan qanoat hosil qilish, o'zlashtirish qobiliyatining sust rivojlanganligi, muayyan vaziyatlarda hukm va xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch kelish, pedagoglar tomonidan o'smir yoshli bolalarga ob'ektiv baho bermaslik, pedagogning o'smir yoshli bolaning individual-psixologik va intellektual imkoniyatiga yetarlicha e'tibor bermasligi, o'qitish saviyasining pastligi, darslarning qiziqarsiz o'tilishi va boshqalardir.

Tarbiya buzilishining yana bir sababi – ularning sinf jamoasi va turli xil jamoatchilik tashkilotlari bilan yaxshi aloqada bo'lmasligidir.

O'smir yoshli bola bilan jamoa fikrining mos kelmasligi jamoa ichida uning o'z o'rnini borgan sari yo'qolib borishiga sabab bo'ladi. Bu o'rinda unutmazlik kerakki, o'smirning har bir xatti-harakati u bilan hisoblashish kerakligidan boshqa narsa emas. Shuning uchun jamoa a'zolari bunday o'smirning qarashlarini vaqti-vaqti bilan hisobga olishlari yaxshi natija beradi. Aksincha, o'smirning fikr va qiziqishlari jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi yoki beparvoligi uni tartibbuzarlikka undaydi va xulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada o'smir uchun kelajak rejalarining poymol bo'lish xavfi tug'iladi. Ta'lim olish va jamoadan yuz o'g'irgan o'smir o'z kelajagi, orzu-umidlarini maktab va jamoa faoliyatiga bog'lashdan ko'ra, e'tiqod va qarashlari mos bo'lgan boshqa

kishilardan najot izlaydi. Natijada o'smir ijtimoiy xavfli guruh ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Oiladagi nosog'lom muhit ham tarbiya buzilishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ayrim oilalarda bola uchun zaruriy imkoniyatlar mavjud emasligi sababli u noxush holat bilan yolg'iz kurash olib borish kechinmalari bilan yashaydi. O'smir dunyosida oilaviy sharoitga nisbatan paydo bo'lgan norozilik hissi kundan-kun avj olib, ichki qo'zg'olonga aylanib boradi.

Ko'pincha<sup>1</sup> o'smirlardagi tarbiya buzilishi oiladagi va ta'lim tizimidagi pedagogik qarovsizlik natijasida yuzaga keladi. Pedagogik qarovsizlik quyidagi darajalarda tavsiflanadi:

✚ Past. Xatti-harakat, xulq-atvordagi beqarorlik. O'z «men»iga ortiqcha baho berish. Asosan yoshiga xos bo'lgan xarakter belgilarning ustunlik qilishi.

✚ O'rta. Kattalar va tengqurlari bilan aloqaning buzilishi. O'qish va mehnatga qiziqmaslik, nizolarning egoistik yo'nalishga asoslanishi. Pedagogik ta'sir choralari to'g'ri qabul qilinadi, lekin unga amal qilmaydilar.

✚ Yuqori. Salbiy xarakter xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Huquqbuzarlik oshkora qilinadi. Kattalar bilan o'zaro munosabatda tajovuzkor bo'ladi. O'zlari to'g'ri deb qabul qilgan «axloq»larini oqlashga urinadilar. Ular huquqbuzarlik chegaralarini tushunib yetmaydilar.

✚ Kriminal. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bo'lib, ularning xulq-atvorini boshqarib bo'lmaydi. Bundaylar har qanday tarbiya vositalariga qarshilik ko'rsatadilar. Xattiharakatlarida tajovuzkorlik ko'proq uchraydi. Ular o'zlarining huquqbuzarlik motivlarini o'zlari belgilagan «axloqiy me'yor»lar bilan o'lchaydilar, natijada jinoyatga qo'l uradilar

Kuzatishlardan<sup>2</sup> ma'lum bo'lishicha, oiladagi nosog'lom muhit, otanalarning tez-tez janjallashib turishi, o'zaro oilaviy nizolar va ota-onalar xulqidagi

# Research Science and

<sup>1</sup> Umarov B.M. Xulq buzilishining kelib chiqishida oila muhiti. // «Xalq ta'limi» jurnali. T., 2001, 3-son. -26-28-b; Umarov B.M. Неблагополучная семейная микросреда как фактор возникновения отклоняющегося поведения несовершеннолетних детей и подростков. // Российский научный журнал «Федерация», Москва, 2008, № 8(51). -С. 56-58; Umarov B.M. Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik sabablari. //Psixologiya» jurnali, Buxoro, 2011, 4-son. -30-34-b.

<sup>2</sup> Umarov B.M. Tarbiya maromida bo'lsa, bola xulqi ezgu bo'ladi. // «Sog'lom avlod» jurnali, T., 2008, 6-son. -26-28-b; Umarov B.M. Oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar – bolalar va o'smirlarda xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi omil sifatida. // «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat asosi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent, 2012. -179-184-b; Umarov B.M. Tarbiyasi og'ir bolalar kelib chiqishining ijtimoiypsixologik sabablari. // «Pedagogik ta'lim» jurnali, T., 2011, 2-son. -24-27- b.

salbiy illatlar ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, oiladagi nizolar bolalar va o‘smirlarni oiladan bezdiradi. Ota-ona va oilaning boshqa azolariga nisbatan ishonch hissining yo‘qolishiga olib keladi. O‘zaro ishonchning yo‘qolishi esa ota-onaning tarbiyaviy ta’sirchanlik darajasini tushirib yuboradi. Ota-onaning tarbiyaviy ta’sir darajasi pasayishi o‘z navbatida o‘smirda o‘zi xohlagan xatti-harakatlarni amalga oshirishga yo‘l ochib beradi. Natijada tarbiyaviy ta’sirsiz, nazoratsiz qolgan o‘smirda asta-sekinlik bilan xulq-atvor o‘zgarishi kelib chiqadi.

Oilaviy munosabatlardagi nosog‘lomlik bolalar va o‘smirlarning shaxs sifatida shakllanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, xulq-atvorda salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Demak aytish mumkinki, tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning kelib chiqishida oiladagi nosog‘lom muhit asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Oilada tez-tez bo‘lib turadigan janjallar, ota-onalarning kelishmovchiliklari, o‘smirlarning jismoniy jazolanishi tabiiy ravishda ular xulqida o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunday muhitda tarbiyalangan bolalar va o‘smirlar xulqida qo‘zg‘aluvchanlik, asabiylik, o‘zini tuta olmaslik, badjahllik, boridan qanoatlanmaslik, dushmanlik, qo‘rquv, ishonchning yo‘qolishi, yolg‘izlikni xush ko‘ruvchanlik, beg‘amlilik kabi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Bu sifatlarning har biri bola psixik va shaxs xususiyatlarining hamda irodaviy sifatlarning shakllanishiga va aqliy taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar<sup>3</sup> va o‘smirlarning zararli odatlarga berilishlari, xususan spirtli ichimlikka ruju qo‘yishi, giyohvandlik va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish holati ham ularda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Alkogol va giyohvand moddalar psixotoksik xususiyatga ko‘ra, narkotik ta’sir ko‘rsatuvchi va sarxush qiluvchi xususiyatga ega bo‘lgan moddalar hisoblanadi. U inson bosh miyasiga narkotik ta’sir ko‘rsatib, butun organizm va asab tizimlari faoliyatini hamda shaxsning o‘z-o‘zini anglash darajasini susaytiradi. Sarxushlik holati kishida andishasizlik, odobsizlik, qo‘pollik va yengil-elpi fikr yurituvchanlikni keltirib chiqaradi hamda tafakkur, diqqat, xotira jarayonlarini susaytirib, instinktiv xulq-atvor sifatlarning yorqin ifodalanishiga olib keladi. Inson sarxushlikda o‘z xatti-harakatlarini idora qila olmay qolish natijasida muammoli

<sup>3</sup> Umarov B.M. «O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2009

vaziyatlarda tafakkur xususiyatlarining susayishi tufayli to‘g‘ri qaror qabul qilishda qiynaladi, oqibatda nizoli vaziyatlarda noto‘g‘ri qaror qabul qilish natijasida g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etiladi.

Oilada ota-onalarning alkogolizmga berilishi, bola ko‘z o‘ngida ichish, chekish va nojo‘ya qiliqlarni qilishi bolaga ko‘rgazmali ta‘sir ko‘rsatadi. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» deganidek, o‘smir oilasida ota-onasidan ko‘rgan qiliqlariga taqlid qila boshlaydi. Avvaliga chekishni, ichishni o‘rganib oladi, so‘ngra kuchliroq ta‘sir etuvchi moddalarga o‘tadi. Qarabsizki, oilasi va ota-onasida kuzatilgan holatlar bolada ham takrorlana boshlaydi.

Ma‘lumki, ota-onalarning bolalarga nisbatan bo‘lgan munosabati ikki asosiy xususiyat, ya‘ni ota-onalik muhabbati va ijtimoiy burch nuqtai nazaridan belgilanadi. Insonparvar jamiyatda bu xususiyatlar bir-biriga zid kelmaydi. Chunki kishini sevish unga baxt tilashdir, baxtiyorlik esa jamiyatga ko‘proq foyda keltirish demakdir. Ammo har qanday hissiyot kabi ota-onalik muhabbati turli daraja, ya‘ni eng yaqinlik faktini bevosita aks ettirishdan toki yengil va axloqiy e‘tiqodga muvofiq tarzdagi chuqur mehribonlikkacha bo‘ladi. Bunda kishining axloqiy e‘tiqodi qanchalik yuksak bo‘lsa, uning ota-onalik muhabbati shunchalik uzoqni ko‘radigan va talabchan bo‘ladi.

Kuzatish va tadqiqotlarimizga ko‘ra, bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishida moddiy yetishmovchilik ko‘pincha sabab sifatida emas, balki xulq og‘ishining kelib chiqishi uchun qiziqish va shart-sharoit tarzida xizmat qilganligi namoyon bo‘ladi. Demak aytish mumkinki, bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishida iqtisodiy yetishmovchilik omili asosiy sabab sifatida namoyon bo‘lmasdan, balki u faqatgina xulq og‘ishining kelib chiqishi uchun muayyan shartsharoit sifatida xizmat qiladi, xolos

Bugungi o‘smirlarning istak-ehtiyojlari oldingi o‘smirlarga qaraganda ancha o‘sgan. Ular yaxshi kiyinish, dam olish, zamonaviy axborot texnologiya vositalariga ega bo‘lishni xohlaydilar. Oilada esa bularga ega bo‘lishga imkoniyat mavjud bo‘lmasligi mumkin. Natijada ushbu ehtiyojlarni qondirish yo‘lida bolada g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni bajarish istagi paydo bo‘ladi. Bunday istaklar bolani o‘z-o‘zidan g‘ayriqonuniy harakatlarni bajarishga majbur qiladi.

Voyaga yetmaganlardagi yosh davri xususiyatiga ko‘ra fikr doirasining torligi, dunyoqarash sayozligi, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan sust rivojlanganlik holati ham voyaga yetmaganlarning xulq-atvorda nuqsonlarning kelib chiqishiga ta‘sir

ko'rsatadi. Chunki ma'naviy olami tor, dunyoqarashi va aqliy taraqqiyoti o'ziga yarasha o'smir bunday paytda o'z ehtiyojlarini qondirishning g'ayriqonuniy tomonlarini izlaydi va o'g'rilik, yo'lto'sarlik, bosqinchilik jinoyatlariga qo'l o'radi. Ko'pincha bunday holatlarda bolalar va o'smirlar qonuniy yo'l bilan pul topish, mehnat qilib boylikka erishishni o'ylab ham ko'rmaydilar. Natijada bunday o'smirlarda g'ayriqonuniy xulq-atvorning kelib chiqishiga zamin yaratiladi. buzilishi va xulq og'ishining ijtimoiy

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, o'smir yoshli bolalarda tarbiyaning psixologik sabablarini o'rganish voyaga yetmaganlar o'rtasida qonunbuzarliklarning oldini olishda muhim hisoblanadi. Bunday muhim ijtimoiy masalani hal etish insoniyat va keng jamoatchilik uchun bir qator ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirishning muhim sharti sifatida jamiyat va ijtimoiy turmushda yuzaga kelayotgan muammolar, shu jumladan, bolalar va o'smirlarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini ilmiy jihatdan o'rganish talab etiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Амбрумова А.Г., Жезлова Л.Я. О некоторых формах девиации поведения у подростков. // «Актуальные проблемы психоневрологии детского возраста», М., 1973. -С. 26-31.
2. Астемиров З.А. Уголовная ответственность несовершеннолетних (социальнопсихологический аспект). // «Государство и право», 1970, №1. -С. 67-71.
3. Ганишина И.С. Неблагополучная семья и девиантное поведение несовершеннолетних: Учебное пособие. – М.: Издательство МПСИ, 2006. –С. 345.
4. Umarov B.M. Oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar – bolalar va o'smirlarda xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi omil sifatida. // «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat asosi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent, 2012. -179-184-b;
5. Umarov B.M. Xulq buzilishining kelib chiqishida oila muhiti. // «Xalq ta'limi» jurnali. T., 2001, 3-son. -26-28-b;
6. Umarov B.M. «O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2009
7. Umarov B.M. Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi kelib chiqishining ijtimoiy psixologik sabablari. // «Psixologiya» jurnali, 2011. 4-son. –30-34-b. 9. Normurodov G'. Voyaga yetmagan qonunbuzar o'smirlarni tarbiyalashda oilaning roli. // «Pedagogik mahorat», 2006, 1-son. –34-36-b.

**DAVLAT SANOAT STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING  
INSTITUTIONAL MUAMMOLARI**

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ  
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОЙ СТРАТЕГИИ**

**INSTITUTIONAL PROBLEMS OF IMPLEMENTING THE STATE  
INDUSTRIAL STRATEGY**

**Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-  
kurs talabasi Suyunova Marvarid Sherali qizi**

**szuraev253@gmail.com**

**+998976785015**

**Аннотация**

Maqolada sanoatlashuv jarayonini jadallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan davlat sanoat strategiyasining institutsional jihatlarini ko'rib chiqilgan. Zamonaviy sanoat strategiyasining institutsional islohotlar sharoitidagi maqsad va vazifalari ko'rsatilgan. To'rtinchi sanoat inqilobi va industrial taraqqiyotning yangi davrida texnologik ildamlashlar xususiyati bayon qilingan. Shuningdek, milliy sanoatning institutsional tuzilmasi, institutsional muhiti, institutsional muammolari hamda ularni hal qilishning chora-tadbirlari to'g'risida mulohaza yuritilgan.

**Tayanch iboralar:** sanoatlashuv jarayoni, sanoat strategiyasi, institutsional islohotlar, to'rtinchi sanoat inqilobi, texnologik ildamlash, sanoatning institutsional tuzilmasi, institutsional muhit, institutsional muammo, institutsional chora-tadbirlar.

**Аннотация**

В статье рассматриваются институциональные аспекты государственной промышленной политики, которая играет важную роль в ускорении промышленного развития. А также, указаны цель и задачи промышленной политики в условиях институциональных реформ. Показаны некоторые особенности технологических продвижений четвертой промышленной революции и индустриального прогресса. Описаны некоторые аспекты институциональной структуры, институциональной среды, институциональные меры решения проблем развития отечественной промышленности.

**Ключевые слова:** Промышленная политика, институциональные реформы, четвёртая промышленная революция, технологическое продвижение, институциональная структура промышленности, институциональная среда, институциональная проблема, институциональные меры

### **Annotation**

The article outlines the institutional aspects of the industrial policy of the state, which is crucial to the acceleration of the industrialization process. In the article are revealed the aim and objectives of modern industrial policy in the period of institutional reforms. The feature of technological breakthrough in the period of Fourth Industrial Revolution and the new era of industrial development are described. It also focuses on the institutional structure, institutional environment, institutional issues, and some institutional arrangements of industrial development.

**Keywords:** institutional aspects, industrial policy, institutional reforms, Fourth Industrial Revolution, institutional structure, institutional environment, institutional issues, institutional arrangements.

### **Kirish**

Amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar konsepsiyasiga ko'ra xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilish kerak, tamoyiliga ko'ra, jamiyatning institutsional tuzilmalari isloh qilinmoqda. Bu iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblangan sanoat sektorida ham o'z ifodasini topmoqda. Sanoat sektorini boshqarish, uning rivojlanish sur'atlarini ta'minlash, sanoat siyosatining samarali mexanizmlarini joriy etish, davlat va xususiy sektorining sanoatlashuv jarayonidagi o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish, yirik, o'rta va kichik o'lchamdagi sanoat korxonalari o'rtasidagi kooperativ hamkorlikni takomillashtirish, sanoatchilarning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning innovatsion salohiyatini oshirishga ko'maklashish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar borki, bularning barchasi chuqur institutsional o'zgarishlarni taqozo etadi. Mazkur yo'nalishda davlat tuzilmalari, hukumat idoralari maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishgan. Tarmoq dasturlari, huquqiy asoslarni kengaytiruvchi qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinib, nizom va reglamentlar, me'yorlar va standartlar o'zgartirilmoqda.



## Tadqiqot metodlari

Sanoatlashuv jarayoni jamiyatning ijtimoiy, moddiy va moliyaviy kapitalini muttasil ko‘paytirib, uning tarkibini sifat jihatdan takomillashtirib borishni taqozo etuvchi, davlat va xususiy mulkning hamkorlikda harakatini zaruratga aylantirgan iqtisodiy-texnologik va innovatsion jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda davlatning sanoat strategiyasi ilgari “industrializatsiya” atamasi bilan nomlangan va sanoatlashtirish ma’nosini bildiruvchi strategiyadan - mazmuni, qamrovi, maqsad va vazifalariga ko‘ra farq qiladi. Aslida ham iqtisodiy jarayonlar davrlar o‘tishi bilan yangi mazmun va komponentlar bilan boyib boradi. Shundan kelib chiqib, davlat iqtisodiy strategiyasi ham yangi davr talabidan kelib chiqib, yangi shakllar, usullar, mexanizmlar va ko‘rinishlarning joriy etilishi bilan zamonaviylashgan va takomillashgan ko‘rinish oladi.

Sanoat taraqqiyotining yangi davrining paydo bo‘lishi fan-texnika taraqqiyotiga sabab bo‘lgan "Sanoat 4.0" tushunchasiga sabab bo‘ldi. Bu tushuncha o‘ziga xos talablar to‘plamini aks ettiradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barcha sohalarini bo‘yicha innovatsion modellardan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida Sanoat interneti bo‘yicha milliy konsortsiyalar tashkil etildi. Xuddi shunday, Xitoy ishlab chiqarish sohalarini modernizatsiya qilish uchun Industry 4.0 konsepsiyasining texnologik talablariga mos ravishda "Made in China 2025" doktrinasini qabul qildi.

"Sanoat 4.0" nimani nazarda tutadi? Bularga quyidagilar kiradi:

1. Kiber-jismoniy tizimlarning inson aralashuvidan mustaqil bo‘lishni, ya’ni inson ishtirokining keyingi bosqichlarga uzluksiz o‘tishini nazarda tutuvchi desentralizatsiya.

2. O‘zaro ishchanlik, demak, inson va kiber-jismoniy tizimlarning internetga ulanish orqali bir-biri bilan aloqada bo‘lish qobiliyati. Oddiyroq qilib aytganda, real vaqt rejimida va virtual muhitda katta miqdordagi ma’lumotlarni qayta ishlashni o‘z ichiga olgan jarayonlarni boshqarish.

O‘zbekiston iqtisodiy, xususan, sanoat tarmoqlarida "reindustrializatsiya" va "neoindustrializatsiya" jarayonlarining institutsional bazasi alohida ahamiyatga ega. Mashhur amerikalik iqtisodchi D.Nortning fikriga ko‘ra, institutsional shart-sharoit institutsional muhitni tashkil etuvchi ko‘p qirrali tizimni o‘z ichiga oladi. Rossiyalik iqtisodchi V.Volchikning kuzatishicha, institutsional tuzilma institutlarning muayyan qoida va qoidalarga muvofiq tuzilgan tartibi bo‘lib, birgalikda tizimni

shakllantiradi. Bular o'z navbatida turli operativ sub'ektlarning iqtisodiy amallarini tekislashni talab etadi. S.Kirdina nuqtai nazariga ko'ra, institutsional tuzilma aniq institutsional tartib doirasida ko'rib chiqiladi. Ushbu buyruq samarali munosabatlardan o'zaro manfaatdor bo'lgan o'zaro bog'liq institutlarni belgilaydi.

Institutsional o'zgarishlar iqtisodiyotning barcha sohalari bo'yicha mulkchilik munosabatlarning yaxshilanishiga barham beradi. Mulchilik munosabatlari mulchilikning barcha shakllarini qamrab oladi, shu jumladan, davlat mulki, xususiy mulchilik, xususiy mulchilik, xususiy mulchilik va kolektiv mulchilikni tadbirkorlik faoliyati sohasida asosiy masala qilib qo'yadi. Shuning uchun mulchilik munosabatlarning samarali hal etilishi bozor barqarorlashuvi uchun juda muhimdir. Hozirgi institutsional islohotlarning strategik maqsadi bu maqsadda yotadi.

Sanoatlashtirishning tez sur'atlar bilan rivojlanishi ijtimoiy kapitalga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Dastlab, jamiyat kapitalining sanoatlashtirishning institutsional muhitini yaratish va yaxshilashga ta'sirini baholash juda muhimdir, chunki bu jarayonga hissa qo'shayotgan muhim omillardan biridir. Ijtimoiy kapitalni jismoniy shaxslarning aloqa o'rnatish, muhokamalar olib borish, va'dalar berish va umumiy platforma yaratish qobiliyati sifatida tushunish kerak. Bu imkoniyatlarni yanada oshirish bilimlar almashinuvini shakllantirish, yangiliklarni qabul qilish va amaliyot rejalarini amalga oshirishdan iborat.

Sanoatni rivojlantirish uchun juda muhim bo'lgan institutsional doirada ikki jihatga e'tibor qaratish lozim:

1. Motivatsion va qulay shartlar va shartlarni joriy etish.
2. Qoida va qoidalarga amal qilish.

Ichki raqobatbardoshlik va xalqaro raqobatbardoshlikni shakllantirish sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtai nazaridan «reindustrializatsiya» va «neo-industrializatsiya» tomon o'tishda alohida zarur bo'lib qoladi. Chunki sanoat o'rtasida ichki raqobatbardoshlikni oshirish davlatdan ichki bozorga ma'muriy yo'llar orqali kirishni kengaytiradigan siyosat olib borishni, iloji bo'lganda proteksionistik chora-tadbirlardan qochishni talab qiladi. Biroq, xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlash davlat va xorijiy sektorlar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi, birgalikda harakat qilishni va keng qamrovli strategiyalarni talab qiladi. Masalan, yuqori malakali sanoat ishchilari, zamonaviy menejment, xalqaro marketing mutaxassislari, xalqaro huquqshunoslar, xalqaro logistika va boshqa

sohalarni jalb qilish. Ushbu ikki yo'nalishni birinchi o'ringa qo'yish biz uchun sanoatlashtirish sohasida barqaror natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

### **Natija va muhokama**

Milliy iqtisodiyotning birlashgan iqtisodiy tizimga birlashishi va milliy sanoatning global pozitsiyasini oshirish masalasini muhokama qilishda bunday harakatlar sanoatning xalqaro raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashning yagona maqsadiga mos kelishini, shu bilan davlat va sanoatchilar o'rtasida bir-biriga mos kelishini ta'kidlash o'rinli. Ichki bozor ehtiyojlarini qondirish uchun importni ichki ishlab chiqarilgan sanoat tovarlari bilan almashtirish to'g'risidagi har qanday nutq mintaqalar o'rtasida o'zaro iqtisodiy raqobatni ta'minlaydi va iqtisodiy raqobatni yanada aniqlashtiradi. Shuning uchun sanoat imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan mintaqaviy sanoat strategiyasini ishlab chiqish zarur. Bunday strategiya amalga oshirilgan bo'lsada, ularning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda, respublika aholisining real daromad darajasini ko'tarishdagi o'rni yetarli darajada baholanmagan.

Shu sababli davlatning sanoat strategiyasida bu jihatga alohida e'tibor qaratish va tegishli institutsional islohotlarni birlashtirish zarur. Mamlakatni industrialashtirish sharoitida sanoat, sanoat va agrar mintaqalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning kamayishi ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, texnologik va innovatsion rivojlanishdagi qarama-qarshiliklarni yumshatishga qaratilgan institutsional aralashuvlarni talab etadi.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlari texnik-iqtisodiy tizimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tashkiliy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lib, sanoat strategiyasiga rahbarlik qilish quyidagi jihatlarni hisobga olishi kerak. Sanoat ishlab chiqarishni xalqaro mehnat bo'limidagi farqlarni kamaytiradigan va ishlab chiqiladigan sanoat siyosati maqsadlariga mos ravishda milliy sanoatning global ixtisoslashuvini oshiradigan tarzda tashkil etishga e'tibor qaratish kerak. Janubiy Koreya tajribasi tegishli misol bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat o'zining mintaqaviy ahamiyati va ahamiyatini yanada kuchaytirish orqali keyinchalik global bozorga bosqichma-bosqich kirishning muvaffaqiyatli siyosatini olib bordi.

Mintaqaviy, demak, mahalliy (sektoral emas), sanoat strategiyasi o'zini yetarli darajada bartaraf etmaydi, katta foyda ham bermaydi. Mahalliy bozorlar sanoat tarmoqlari uchun juda parchalangan bo'lib, ko'pincha kichik bozorlar deb hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot sharoitida sanoat siyosatini amalga oshirish o'rta va

yirik sanoat korxonalari uchun zarurdir. Sinergiyaning yo'qligi va iqtisodiy kengayish va kengaytirish strategiyalari talablarini qondira olmaslik tufayli ishlab chiqaruvchilar sezilarli qiziqish ko'rsatmaydilar. Shuning uchun sanoat strategiyasi ham mintaqaviy, ham global darajada ishlab chiqilishi kerak. Sanoat strategiyasi samaradorligi uchun milliy institutsional shart-sharoitlar bilan integratsiya juda muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, sanoat mahsulotlarini mintaqaviy va xalqaro bozorlarga yo'naltirish institutsional integratsiya faoliyati maqsadiga mos keladi.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqorida ta'kidlangan Industriya-4.0 konsepsiyasi rivojlangan mamlakatlarda o'z sanoatchilarining mintaqaviy va xalqaro bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ob'ektiv ravishda sanoat va savdo strategiyalariga chambarchas bog'lanib ketgan. Shu sababli bu mamlakatlarda davlat, xususiy sektor, ilmiy jamoatchilik va jamiyat a'zolari o'zlarini sanoat strategiyasiga u yoki bu darajada daxldor, deb hisoblaydi, institutsional va noinstitutsional tuzilmalar, sanoat siyosati vositalari, dastaklari va mexanizmlari ham mana shu maqsadga xizmat qiladi.

O'zbekistonda jamiyatning barcha sohalarida o'zgarishlar borgan sari jadallashib, o'z ko'lamini kengaytirib bormoqda. Sanoat tarmoqlaridagi qudratli qurilish ko'lamini yaqin istiqbolda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi, iqtisodiy barqarorlik va yuksalishning muhim omiliga aylanadi. Shunday ekan, sanoatlashuv strategiyasi milliy sanoatchilarimizning mintaqaviy va xalqaro bozorlardagi mavqeini uzluksiz mustahkamlab borishlariga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябдаги ПФ-6079 сонли Рақамли Ўзбекистон - 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида «Фармони». Lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-илоvasи «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси». Lex.uz
3. Белокрылова О.С. (2015). Институциональная составляющая неоиндустриализации // Институциональная трансформация экономики:



российский вектор новой индустриализации. Материалы Международной конференции. 21-23 октября. Омск: Изд.-во ОГУ, ч. 1, с. 518-526.

4. Белокрылова О. С. (2015). Институциональное проектирование стратегии: реиндустриализации: перспективы донской экономики // *JournalofEconomicRegulation*, т. 6, № 1, с. 46-55. о

5. Вольчик В.В., Кривошеева-Медянцева Д.Д. (2013). Институциональные условия инновационного развития российской экономики // *TERRA ECONOMICUS*, т. 11, № 4, ч. 3, с. 18-26.

6. Вольчик В.В., Оганесян А. А. (2010). Институты, информация и институциональная структура экономики // *JournalofEconomicRegulation*, № 2, с. 23-40.

7. Кирдина С. Г. (2004). Институциональная структура современной России: эволюционная модернизация // *Вопросы экономики*, № 10, с. 89-98.

8. Кирдина С. Г. (2014). Институциональные матрицы и развитие России: введение в X-Y теорию. 3-е изд., перераб., расшир. и илл. СПб.: Нестор-История.

9. Никитаева А. Ю. (2017). Институциональная структура региона в контексте инновационного развития промышленности // *JournalofInstitutionalStudies*, № 1, с. 134-149.

10. Норт Д. (2011). Вклад неинституционализма в понимание проблем переходной экономики // Университет ООН (<http://www.wider.unu.edu/>).

11. Толкачев С. А. (2017). Индустрия 4.0 и ее влияние на технологические основы экономической безопасности России // *Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета*, № 1(25), с. 86-91.

12. Ahn, S. (2013). Evolution of Industrial Policy and Green Growth in Korea. Future of the World Trading System: Asian Perspectives. ([https://www.wto.org/english/res\\_e/reser\\_e/wts\\_future2013\\_e/ahn.pdf](https://www.wto.org/english/res_e/reser_e/wts_future2013_e/ahn.pdf) - Access Date: 15.06.2017).

13. Berry, C. (2016). Industrial policy change in the post-crisis British economy: Policy innovation in an incomplete institutional and ideational environment. *The British Journal— of Politics and International Relations*, vol. 18, Issue 4, pp. 829-847.

## THE INFLUENCE OF UZBEK LANGUAGE STRUCTURE ON THE ACQUISITION OF ENGLISH GRAMMAR

**Turayeva Mexribon Atatayr qizi**

2<sup>nd</sup> year master of UzSWLU

[Turaeva.mekhribon@gmail.com](mailto:Turaeva.mekhribon@gmail.com)

**Xayrullayeva Dilorom**

Senior teacher of UzSWLU

[khayrullayeva84@mail.ru](mailto:khayrullayeva84@mail.ru)

### **Abstract:**

This study examines language acquisition, a complex process influenced by sociocultural variables, cognitive processes, and linguistic diversity, with an emphasis on Uzbek learners' acquisition of English grammar. The analysis explores the complex dynamics shaped by verb morphology, pluralization patterns, and syntactic elements in Uzbek language structures. The study reveals subtle difficulties in learning English grammar and differences in syntactic patterns between Uzbek and English that require cognitive adjustment. Complex verb morphology in English creates obstacles for auxiliary usage and tense forms; pluralization patterns and phonological distinctions cause more difficulties. Uzbek learners' English language growth depends on a variety of factors, including experiences with cultural immersion, linguistic support, and tailored instructional methodologies.

**Key words:** grammatical structure, language acquisition, language system, Universal Grammar, language development, cross-cultural exchange, socio-cultural contexts, cognitive development

### **Annotatsiya:**

Ushbu tadqiqot o'zbek o'quvchilarining ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishiga e'tibor qaratgan holda, til o'zlashtirish, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, kognitiv jarayonlar va til xilma-xilligi ta'sirida bo'lgan murakkab jarayonni o'rganadi. Maqola o'zbek tili tuzilmalarida fe'l morfologiyasi, ko'plik shakllari va sintaktik elementlar orqali shakllangan murakkab dinamikani o'rganadi. Tadqiqot ingliz tili grammatikasini o'rganishdagi qiyinchiliklarni, o'zbek

va ingliz tili o'rtasidagi sintaktik farqlarni kognitiv anglashi talab qiladi.. O'zbek tilini o'rganuvchilarning ingliz tilini o'zlashtirishi turli omillarga, jumladan, madaniyatga singib ketishi, lingvistik yordam va moslashtirilgan o'qitish metodologiyalariga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** grammatik tuzilish, tilni o'zlashtirish, til tizimi, universal grammatika, til rivojlanishi, madaniyatlararo almashinuv, ijtimoiy-madaniy kontekstlar, kognitiv rivojlanish

**Аннотация:**

В этом исследовании изучается овладение языком, сложный процесс, на который влияют социокультурные переменные, когнитивные процессы и языковое разнообразие, с упором на овладение английской грамматикой узбекскими учащимися. Анализ исследует сложную динамику, определяемую морфологией глаголов, моделями множественного числа и синтаксическими элементами в структурах узбекского языка. Исследование выявляет небольшие трудности в изучении английской грамматики и различия в синтаксических моделях между узбекским и английским языками, которые требуют когнитивной адаптации. Сложная морфология глаголов в английском языке создает препятствия для вспомогательного использования и временных форм; Модели плюрализации и фонологические различия вызывают больше трудностей. Развитие английского языка у узбекских учащихся зависит от множества факторов, включая опыт культурного погружения, лингвистическую поддержку и индивидуальные методики обучения.

**Ключевые слова:** грамматическая структура, овладение языком, языковая система, универсальная грамматика, развитие языка, межкультурный обмен, социокультурные контексты, когнитивное развитие.

матрицали ташкилий тузилмаси 1930 йилдан 1950 йилгача бўлган даврда қўлланила бошланганлигига ишора қилади. Ушбу даврда лойиҳага ёндашиш белгиланган натижага эришиш мақсадида, фаолиятни таркибий тузиш ва уни амалга ошириш учун асосни белгилашга имкон берди. 1960 йилдан бошлаб у ёки бу соҳада турли хил лойиҳалар ва давлат сиёсатига нисбатан лойиҳаларни амалга ошириш учун баҳолаш фаолияти ишлаб чиқилиб, улар баҳолаш ва таҳлил қилишнинг график усулидан фойдаланишни бошладилар. Ушбу даврда ижтимоий лойиҳаларни баҳолаш соҳасида лойиҳавий ёндашув фаол амалга оширила бошланди. 70 йиллардан бошлаб давлат секторида лойиҳаларни бошқаришнинг диққат марказлари лойиҳаларни амалга оширишда конфликтларни бошқаришга қаратилди.

80-йилларда “Лойиҳаларни бошқаришда билимларни бошқариш бўйича қўлланма (PMBOK®, 1986)” ишлаб чиқилади ва фойдаланила бошланди. Унда лойиҳаларни бошқариш жараёнлари гуруҳлари батафсил тавсифланган бўлиб, ҳозирги вақтда ушбу стандарт 5 та жараён гуруҳлари, 10 та билим соҳалари ва 49 та лойиҳаларни бошқариш жараёнлари тавсифини ўз ичига олади. 1996 йилда PRINCE2 стандарти ишлаб чиқилди ва бу Буюк Британияда давлат бошқаруви соҳасида лойиҳаларни бошқаришнинг универсал усули сифатида тавсифланади, унда лойиҳаларнинг 7 та асосий жараёни, 40 таркибий жараёнлар, 7 та мавзу ва 7 тамойил мавжуд.

Бундан ташқари, АҚШда лойиҳаларни бошқариш институти (PMI) стандарти - ANSI PMI PMBOK (Project Management Body of Knowledge) Guide – 2004 Edition Лойиҳани бошқариш бўйича бошқарув кенгашининг қўлланмаси

2004 йил нашри лойиҳаларни бошқаришнинг иш таркибини, интеграцияни, харажатларни, вақтни, сифатни, коммуникацияларни, инсон ресурсларини, хавф-хатарларни, лойиҳа шартномаларини бошқариш сингари 9 йўналишини белгилаб берувчи “Лойиҳаларни бошқариш бўйича билимлар тўплами” қўлланма сифатида тақдим этилди.

Ҳозирги вақтда ушбу секторда ахборот-коммуникация технологияларига асосланган ушбу бошқарув усулларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш давом этмоқда.

Масалан, Буюк Британияда классик усулда давлат секторида ITни қўллаб-қувватлаш тизими қулаб тушди ва **Agile** технологиялари фаол жорий этила бошланди.

Улардан фойдаланиш одатий ишланмаларга қараганда фойдаланувчиларга нисбатан осонроқдир ва бу уларни амалга ошириш жараёнида ҳам, ундан кейин ҳам хизматларни доимий равишда яхшилашга имкон беради. «Яқин

келажақда ушбу технологиядан Буюк Британия ҳукуматининг янги лойиҳаларининг 50 фоизида фойдаланиш режалаштирилмоқда». Шу билан бирга, Германия, Франция, Буюк Британия, Австралия сингари давлатлар лойиҳаларни бошқаришнинг тартибга солиш тизимида лойиҳаларни бошқариш тамойилларини жорий этишни бошладилар, лойиҳаларни бошқариш учун миллий ва халқаро бирлашмалар тузила бошланди. «Давлат секторида лойиҳавий менежментни жорий этишнинг энг яхши амалиёти сифатида Буюк Британия, Малайзия, Япония, АҚШ, Норвегия, Франция, Сингапур ва Канада тажрибаларини таъкидлаш жоиз».

Хусусан, 2011 йилда Буюк Британия ҳукумати устувор лойиҳалар департаментини ташкил қилди. Ҳозирда бу тузилма Инфра тузилма ва лойиҳалар Департаменти – “Infrastructure and Projects Authority” деб номланади.

Мазкур мамлакатлар тажрибасига кўра лойиҳавий бошқарув тизимининг асосий элементлари қуйидагилардан иборат:

- Лойиҳалар. Бунда риск даражаси юқори ва мураккаб инфратузилма лойиҳаларига алоҳида эътибор қаратилади;
- Юқори малакали жамоани шакллантириш. Лойиҳа ишини таъминлайдиган жамоа аъзоларининг кўникма ва қобилиятларини ривожлантириш;
- Лойиҳа фаолияти жараёнини оптималлаштириш. Ҳолдан тортиб то ижрогача бўлган лойиҳанинг бутун ҳаётининг даври давомида лойиҳани амалга оширишни мониторинг қилишга ҳам алоҳида эътибор қаратилади.

Ҳозирги вақтда давлат ҳокимияти органларида лойиҳалар портфеллари шакллантирилган бўлиб, унга ҳукуматнинг асосий фаолият йўналишлари бўйича 500 миллиард фунт стерлинг миқдоридаги 200 га яқин устувор лойиҳалари киради.

Шу билан бирга, давлат тузилмаларининг кўп қисми давлат ва хусусий шериклик амалиётидан фойдаланган ҳолда турли лойиҳаларни, шу жумладан инфратузилма лойиҳаларини амалга оширмоқда, бу эса мамлакатда кичик ва ўрта бизнес ривожланишини рағбатлантирмоқда. Бундан ташқари, мамлакат ҳукумати Оксфорддаги Саид Бизнес мактаби (Said Business School University of Oxford) университети билан биргаликда лойиҳа жамоаси етакчиларини тайёрлаш бўйича дастурни амалга оширмоқда (MPLA).

Лойиҳавий бошқарув тизимини телекоммуникация соҳасига татбиқ этиш масаласини кўриб чиқар эканмиз, илмий тадқиқот ишимизнинг соҳага оид илмий ишлар, адабиётлар, лойиҳавий бошқарув тизимини жорий этиш

методологияларига оид олдинги бўлимлардаги материаллар таҳлили ривожланган мамлакатлардаги лойиҳавий бошқарув тизимини жорий этиш бўйича илғор тажрибаларни қўллаш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади. Бунда Малайзиядаги 2009 йилда лойиҳалар дастурларини амалга ошириш ва мувофиқлаштириш учун ташкил этилган ихтисослашган Лойиҳа офиси амалиётини бизнинг компаниямизда ҳам ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Мазкур амалиётга кўра, давлат ва хўжалик бошқарув органлари фаолияти, жумладан бошқарув сифатини ошириш орқали иқтисодиётдаги кўп йиллик турғунликни бартараф этиш унинг асосий мақсади этиб белгилаб берилган.

Эътиборли жихати шундаки, Малайзия лойиҳа офисининг фаолияти Big Fast Results - Катта ва Тезкор Натижалар тамойилларига асосланган ҳолда ташкил этилган. Мазкур тамойиллар қуйидагилардан иборат:

- ✓ стратегик йўналишларни аниқлаш;
- ✓ ишлаб чиқаришнинг асосий кўрсаткичлари (KPI) тизимини жорий этиш

ва ўзгаришларни мониторинг қилиб бориш;

- ✓ ўзгаришларга эришиш йўл хариталарини шакллантириш;
- ✓ кенг жамоатчилик билан доимий алоқа ва мулоқот ўрнатиш;
- ✓ юзага келаётган муаммоларни жойида ҳал қилиш.

Strategy Partners тадқиқотларининг маълумотларига кўра, Малайзияда юқорида қайд этилган тадбирларни амалга ошириш натижасида, 2016 йилда Малайзия давлат бошқаруви сифати бўйича биринчи учликка кўтарила олди.

Бундан ташқари, давлат секторидаги лойиҳалар халқаро сиёсат даражасида тижорат ташкилотлари ва давлат идоралари ўртасидаги рақобат майдонига айланмоқда.

Шу муносабат билан лойиҳаларни бошқариш методологияси ва лойиҳавий бошқарув тизими давлатнинг ҳамда давлат улуши юқори бўлган компанияларнинг самарали ривожланишини таъминлашнинг муҳим воситасидир. Бу эса лойиҳаларни бошқаришдаги миллий салоҳиятни ошириш бўйича барча давлат ва хўжалик бошқарув органларида, жумладан телекоммуникация соҳасида ҳам лойиҳавий бошқарувни жорий этиш бўйича тизимли ишларни амалга оширишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайман.

### **Хулоса**

Давлат ва хўжалик бошқарув органларида жумладан, телекоммуникация соҳасида лойиҳавий бошқарув тизимини жорий этиш замон талабига айланлиги ва унинг долзарблиги кун сайин ортиб борётканлигини инобатга олган ҳолда ривожланган мамлакатлар экспертлари томонидан амалга



оширилаётган тадқиқотлар, адабиётларни ўрганишдан бошлаб, кадрлар тайёрлаш, шунингдек бевосита ташкилий – ҳуқуқий ўзгартиришларни киритиш мақсадга мувофиқлиги, шу муносабат билан мазкур мақоланинг предметлари юзасидан олиб борилган таҳлиллар натижасида қуйидаги хулоса ва тавсияларни келтиришимиз мумкин:

1. Лойиҳаларни бошқариш мавзусидаги илмий ишлар лойиҳавий бошқарув тизимини имплементациясига нисбатан кўпроқлигини кўришимиз мумкин. Шу нуқтаи назардан Р.А.Нугайбеков, Д.Г.Максин ва А.В.Ляшукларнинг «Лойиҳаларни бошқаришнинг корпоратив тизими» ҳамда Клаус Швабнинг «Тўртинчи саноат инқилоби технологиялари» номли илмий ишларида давлат бошқарув органлари ва телекоммуникация компаниялар фаолиятига лойиҳавий бошқарув тизимини жорий этиш методикаси, унинг ўзига хос жиҳатлари бўйича илмий хулосалар ишлаб чиқишда назарий ва эмпирик манбаа сифатида фойдаланиш мумкин;

2. Лойиҳаларни бошқариш халқаро ассоциациясининг маълумотларига кўра, лойиҳаларни бошқариш учун замонавий методология ва воситалардан фойдаланиш вақтнинг 20-30 фоизини ҳамда лойиҳа ва дастурларга сарфланган маблағнинг

15-20 фоизини тежашга имкон беради. Бу бизга лойиҳавий бошқарув компанияларни ривожлантириш стратегиясини амалга ошириш учун самарали восита, деб ҳисоблашга имкон беради;

3. Ишлаб чиқилган қонунчилик базаси лойиҳаларни янада самарали амалга оширишга, қўшма тадбирларни амалга оширишда иштирокчилар ўртасидаги муносабатларни тартибга солишга қаратилган. Шу билан бирга, давлатнинг барча даражаларидаги менежерларга ушбу ёндашувни ўз фаолиятида амалда қўллашларини ва лойиҳа фаолиятидаги барча иштирокчиларнинг ваколатларини ривожлантиришни таъминлашни тавсия этамиз;

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, «Лойиҳа амалиётлари»да компаниялар гуруҳи мутахассислари ҳамда ҳукумат амалдорлари лойиҳани бошқаришни такомиллаштиришнинг асосий афзаллигида жараёнларнинг шаффофлиги ва назорат қилиш имкониятига эга бўлишларини алоҳида таъкидлаймиз.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 24.07.2017 йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида лойиҳа бошқаруви тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5120-сон фармони;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси» ПФ-4947-сон фармони, 2017 йил 7 февраль;
3. Нугайбеков Р.А, Максин Д.Г., Ляшук А.В. Корпоративная система управления проектами. От методологии к практике. Альпина Паблишер, 2015 г. (236).
4. Клаус Шваб, Технология Четвертой промышленной революции. Бомбора, 2022 г.
5. Зиядуллаев Н.С., Фридлянов М.А, Современные стандарты проектного управления //Стандарты и качество. Проектный менеджмент. № 8/2017 г. (962)
6. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление проектами: Учебное пособие / под общей редакцией И.И.Мазура, Высшая школа, 2004 г. – 875 стр.;
7. Ивасенко А.Г., Ольдерогее Н.Г. Управление проектами. Учебное пособие Феникс, 2009. – стр. 336.
8. Никонова Я.И, Каркавин М.В. Антикризисное управление. Управление проектами – Феникс, 2009. – стр. 330.
9. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (Руководство к своду знаний по управлению проектами)/ Project Management Institute, 3-е изд. – USA, 2004. – стр. 388.
10. Попов Ю.И., Управление проектами: учебное пособие / Ю.И.Попов, О. В. Яковенко ИНФРА-М, 2024. – стр. 208.
11. Лапыгин Ю.Н., Управление проектами: от планирования до оценки эффективности: практическое пособие / под ред. Ю. Н. Лапыгина. – М. ОМЕГА-Л, 2007. – стр. 252.
12. Новое исследование по состоянию проектного управления в Великобритании Электронный ресурс: <https://www.pmservices.ru/project-management-news/novoeissledovanie-po-sostoyaniyu-proektnogo-upravleniya-v-velikobritanii/> (дата обращения 18.06.2018).

## ENDODONTIYA MUOLAJASIDAN KEYINGI XATO VA ASORATLAR

**Xolboyeva Nasiba Asrorovna**

Samarkand davlat tibbiyot universiteti Stomatologiya fakulteti Terapevtik  
stomatologiya kafedrasida assistenti

**Xojaliyeva Nafisa Nodir qizi**

Samarkand davlat tibbiyot universiteti Stomatologiya fakulteti student

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada endodontiya muolajasidan keyingi xato va asoratlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xatolar, asoratlar, davolash, paydo bo'lishi.

Shifokorlarning katta sa'y-harakatlariga va davolash usullarini takomillashtirishga qaramay, muvaffaqiyatsizliklar endodontik davolashda qisman sodir bo'ladi va davom etadi ammo inson tanasining anatomik va fiziologik xususiyatlari, muvaffaqiyatga kam ta'sir qilmaydigan o'zgaruvchan omillar mavjud davolash va ular davolovchi shifokorning harakatlariga bog'liq. Muvaffaqiyatsiz bo'lgan harakatlar davolashni "davolash xatolari" deb ta'riflash mumkin. Har bir xato xavfni oshiradi hech bo'lmaganda olib kelishi mumkin bo'lgan qandaydir asorat tishni takroriy davolash zarurati va bu tishni yo'qotish va ba'zi hollarda keyinchalik jiddiy asoratlarga, ko'pincha yallig'lanish xarakteriga ega. Bunda qo'llanma, asosiy e'tibor bosqichlarda mumkin bo'lgan xatolarga qaratilgan tishni endodontik davolash. Ularning paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni tahlil qilish amalga oshiriladi va ularning oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, qisqacha tavsiyalar berilgan endodontik davolashdagi xatolarni va ularning asoratlarini bartaraf etish usullari. Darslik avvalo, talabalar va yangi shifokorlar uchun foydali bo'ladi, ammo biz shifokorlar bilan Shuningdek, ular o'zlari uchun foydali ma'lumotlarni topa oladilar.

Endodontik davolash xatolarining paydo bo'lishi.

Asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xato darajasini tasniflash:

1. Tashkiliy.
2. Diagnostika.
3. Davolash.

O'z navbatida, xatolar eng yaqin bo'lishi, mumkin bo'lgan oqibatlariga olib keladi.

Keyingi oqibatlar:

1. Ildizning uzunlashib sinishi.
2. To'planishdan keyingi og'riqlar.
3. Surunkali yallig'lanish jarayonining kuchayishi.

Uzoq muddatli oqibatlar:

1. Surunkali odontogen infeksiya o'chog'ining paydo bo'lishi.
2. Surunkali odontogen infeksiyaning o'chog'i davom etadi yoki rivojlanadi.
3. Tish tojining rangi o'zgarishi.

Tashkiliy xatolar.

Davolash muassasasi ishini tashkil etish bilan bog'liq. Bu kabi xatolarni o'z ichiga oladi xodimlarni tanlash, ularni bo'linmalar bo'yicha tegishli taqsimlash kabi masalalar; kerakli asbob-uskunalar, uskunalar, plomba materiallari bilan ta'minlash va dori-darmonlar bilan ta'minlash; sanitariya-gigiena standartlarini ta'minlash; davolash sifatini nazorat qilish; tibbiyot xodimlarining malakasini oshirishni ta'minlash. O'ziga qaramay to'g'ridan-to'g'ri davolanish jarayonidan masofa, ular ko'pincha juda ko'p narsalarga olib keladi jiddiy oqibatlar. Buning ajablanarli joyi yo'q, bu haqda da'volarni oldini olish uchun endodontik davolanishning fazilatlarini turli xil "davolash darajalari" ni ajratib turadi, ya'ni: birinchi daraja – bepul stomatologik yordam, ikkinchi daraja-pullik yoki qisman pullik endodontik davolash, uchinchi daraja esa pullik endodontik davolash "master-klass". Shunga ko'ra, har xil endodontik hajm taxmin qilinadi davolash, afsuski, sifatdan kelib chiqadi. Ajablanarlisi shundaki, ular endodontiya tarafdorlari xatolaridan eng ko'p tashvishlanadilar, "master-klass" darajasidagi xizmatlarni ko'rsatadigan shifokorlar. Ammo har bir tish shifokori qalban u sifatning "idealiga" intiladi, shuning uchun tibbiy xatolar muammosi hamma uchun qiziq tish ildizi kanaliga "cho'kib ketgan".

Diagnostik xatolar: Ular tekshiruv bosqichida uchraydi va ko'pincha usulni noto'g'ri tanlashga olib keladi davolash usullari. Bunga rentgen tekshiruvini rad etish, kam baholash olib kelishi mumkin periodontiumdagi patologik o'zgarishlar darajasi. Ushbu asoratlarning oldini olish uchun turli kasalliklarning differensial diagnostikasini yaxshi bilish kerak va turli patologik jarayonlarning belgilarini to'g'ri baholashni o'rganing.





Farqlash kerak:

1. O'rta karies uchun surunkali periodontit.
2. Chuqur karies uchun o'tkir pulpit.
3. Trigeminal nevrалgiya uchun o'tkir pulpit va periodontit.
4. Tish go'shti polipidan gipertrofik pulpit, bo'shliq bo'shlig'iga singib ketgan.
5. Periodontitdan surunkali periodontitning kuchayishi.

Terapevtik xatolar.

Endodontik davolanishning har bir bosqichida xatolar va asoratlar mumkin. Ular mumkin turli sabablarga ko'ra bo'lishi kerak. Ulardan asosiylari: shifokorning past malakasi; ish texnologiyasini buzish; to'liq bo'lmagan asboblarning to'plami; tor spektr dori-darmonlar va plomba materiallari. Xatolarning katta guruhi shifokorning beparvoligi sababi. Endodontiya-bu zargarlik buyumlari, ko'plab manipulyatsiyalar amalga oshiriladi ko'zga etib bo'lmaydigan sharoitlar, shifokor faqat o'z bilimlariga umid qilishi mumkin, taktik hislar va yaxshi ko'nikmalar. Stomatologiyaning ushbu bo'limida, quyidagilarga qaramay qayta ishlangan tuzilmalar va ishlatiladigan asboblarning miniatyurasi kichik narsalar emas.

Endodontiya muolajasidan keyin turli xatolar va asoratlar yuzaga kelishi mumkin. Bularni kamaytirish uchun muolaja oldida va davomida ehtiyotkorlik talab qilinadi. Ba'zi xatolar va asoratlari:

1. Infeksiya tarqalishi: Agar kanal to'g'ri dezinfeksiya qilinmasa yoki bakteriyalar to'liq o'ldirilmasa, infeksiya yoyilishi mumkin.
2. Kanalni noto'g'ri tozalash: Kanallar to'liq va chuqur tozalanmasa, chirik va bakteriyalar qolishi mumkin.
3. Kanalni noto'g'ri plombalash: Agar kanallar to'liq yoki to'g'ri plombalanmasa, bo'shliq qolishi mumkin va bu infeksiya tarqalishiga olib kelishi mumkin.
4. Instrumentlar sinishi: Kanalni tozalashda ishlatiladigan instrumentlar sinishi mumkin, bu esa muolajani qiyinlashtirishi va asoratlarni oshirishi mumkin.
5. To'qimalarga zarar yetishi: Muolaja davomida kanal atrofidagi to'qimalarga zarar yetishi mumkin, bu esa og'riq va yallig'lanishga sabab bo'ladi.
6. Perforatsiya: Kanallarni tozalashda yoki plombalashda devorlar perforatsiya qilinishi mumkin, bu esa davolashni yanada murakkablashtiradi.
7. Reinfeksiya: Agar kanallar to'liq va sifatli plombalanmasa, vaqt o'tishi bilan infeksiya qayta paydo bo'lishi mumkin.

8. Tishning singani yoki shikoslangani: Muolaja davomida yoki undan keyin tishni yoki uning qismlarini sinishi mumkin.

## XULOSA

Agar endodontiya muolajasidan keyin qandaydir asoratlar yuzaga kelsa, darhol stomatologga murojaat qilish lozim. Har bir holat individual va shifokor maslahati asosida to‘g‘ri davolash usuli belgilanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tish-jag ' tizimining anatomiyasi va biomexanikasi / Ed. Arutyunova, I. Y. Lebedenko Tomonidan. M.: amaliy tibbiyot, 2007.

2. Apokin A. D., Kutyaev S. A. tish anatomiyasi va endodontik kirish. Yaroslavl: Nashriyotchi Aleksandr Rutman, 2008 Yil.

3. Harbiy stomatologiya. G. I. Proxvatilov tomonidan tahrirlangan. Spb.: Vmeda, ELBI-Spb, 2008.

4. Asrorovna, K. N., & Furkatovna, T. K. (2024). NONCARIOUS DISEASES OF DENTAL CARIES IN PATIENTS WITH DIABETES. *International Journal of Integrative and Modern Medicine*, 2(3), 69-74.


5. Холбоева, Н. А., & Хайдарова, Д. М. МЕХАНИЧЕСКАЯ ОБРАБОТКА И РАСШИРЕНИЕ КОРНЕВЫХ КАНАЛОВ ХИМИЧЕСКИМИ ПРЕПАРАТАМИ (ЭНДОЛУБРИКАНТЫ).

6. Kholboeva Nasiba Asrorovna, Turaeva Kamila Furkatovna, & Akhtamov is the son of Temur Shuhrat. (2024). Periodontal Tissue Changes in Patients with Diabetes. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(2), 74–77. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/2418>

7. Nasiba Asrorovna, K. (2024). Changes in the Mucous Membrane of the Oral Cavity in Leukemia. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(2), 316–319. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/2476>

8. Kholboeva Nasiba Asrorovna, Turaeva Kamila Furkatovna, & Akhtamov is the son of Temur Shuhrat. (2024). Periodontal Tissue Changes in Patients with Diabetes. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(2), 74–77. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/2418>

9. Xolboyeva Nasiba Asrorovna, ., Jurayev Oltinbek MexriddinUgli, ., & Kuchkarov Sardor Fazliddin Ugli, . (2023). THE MAIN CLINICAL FEATURES OF THE ORAL CAVITY OF PREGNANT WOMEN SUFFERING FROM GINGIVITIS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(10), 258–262. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/25542>



Research Science and  
Innovation House



## Quyi Amudaryoda gastronomik turizmni rivojlantirish yo‘llari va istiqbollar

**Sharipova Gulyor Baxrom qizi**  
**Urganch davlat universiteti talabasi**  
**Ilmiy rahbar: Matchanova Aybibi Erkinovna**

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda gastronomik turizm sohasi inson faoliyatining bir turi bo‘lib, bir jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy munosobatlarni ifoda etadi, ikkinchi tomondan esa o‘ziga xos bo‘lgan xizmat ko‘rsatishning bir mustaqil tarmog‘idir. Ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyotning asosiy sektori hisoblanayotgan gastroturizm sohasidagi bandlikning o‘shishi aholi daromadlarining ortishiga, iqtisodiyot hamda sayyohlikga xizmat ko‘rsatuvchi yangi sohalarning paydo bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda va bandlikni ta‘minlashdagi muammolarga yechim berib, valyuta manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada Quyi Amudaryoda gastronomik turizmni rivojlantirish yo‘llari va istiqbollari mavzusini ilmiy jihatdan tahlil qilingan hamda xulosa takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** gastronomik turizm, turizm, ijtimoiy soha, nomoddiy tarmoq, ovqat turizmi, mice turizmi,

**Аннотация:** В настоящее время сфера гастрономического туризма представляет собой вид человеческой деятельности, с одной стороны, выражающий социально-экономические отношения, а с другой стороны, являющийся самостоятельной отраслью оказания услуг. Рост занятости в сфере гостротуризма, который во многих странах считается основным сектором экономики, положительно влияет на увеличение доходов населения, появление новых отраслей, обслуживающих экономику и туризм, и обеспечивает решение проблем обеспечения занятости и служит источником иностранной валюты. В данной статье научно проанализирована тема путей и перспектив развития гастрономического туризма в Нижней Амударье и сделаны выводы.

**Ключевые слова:** гастрономический туризм, туризм, социальная сфера, нематериальная сеть, гастрономический туризм, мышинный туризм,

**Abstract:** Currently, the field of gastronomic tourism is a type of human activity, on the one hand, it expresses socio-economic relations, and on the other

hand, it is an independent branch of service provision. The growth of employment in the field of gastrotourism, which is considered the main sector of the economy in many countries, has a positive effect on the increase in income of the population, the emergence of new sectors that serve the economy and tourism, and provides a solution to the problems of providing employment and is a source of foreign exchange. is serving as In this article, the topic of ways and prospects of gastronomic tourism development in the Lower Amudarya was scientifically analyzed and conclusions were drawn up.

**Key words:** gastronomic tourism, tourism, social sphere, intangible network, food tourism, mice tourism,

**Kirish:** Bugungi kunda O‘zbekistonning ko‘pgina mintaqalari kabi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati ham turizmni rivojlantirish bo‘yicha yetarli darajada salohiyatga ega bo‘lib, viloyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o‘rin egallamoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasining tez sur‘atlar bilan o‘shishi yurtimizga katta hajmdagi valyuta tushumlarini kirib kelishi va yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu haqda respublikamiz Birinchi Prezidenti I. A Karimov quyidagicha ta’kidlaydi: - “Turizm sodda qilib aytganda, dunyoni tushunish, dunyoni anglash, shu bilan birga, dunyo sahnasiga chiqish demakdir. Biz ana shu muhim sohani rivojlantirishimiz, uning keng imkoniyatlaridan foydalanishimiz kerak.”<sup>1</sup>

Darhaqiqat, turizm sohasi o‘z navbatida sayyohlik sohasining rivojiga bog‘liq bo‘lib, uning taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Chunki, olimlarning ta’kidlashicha, sayohat boshqa xalqlar haqida bilim beradi va masofaviy jihatdan uzoq bo‘lgan davlatlarni ham bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, turizm

sohasi o‘z navbatida mehmondorchilik sohasi bilan birgalikda mintaqalardagi xizmatlar, yalpi ichki mahsulot va investitsiyalarning tarkibidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Demak, turizm sohasi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning rivojlanishiga hissa qo‘shishi natijasida respublikamizning mintaqalarini rivojlantirishga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi hamda mintaqalarning iqtisodiy salohiyati yaxshilanadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. - T.: O‘zbekiston, 1996. - 285 b.



Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati mintaqasida gastroturizm sohasini rivojlantirish sohadagi mavjud muammolarni hal qilishni taqozo qiladi, sohani keng taraqqiy qildirishning zamonaviy va yangi turlarini tadbiq qilishni talab qiladi. Bu esa Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyat mintaqasida gastroturizm sohasini rivojlantirish holati, ahvolini tahlil qilish, infratuzilma tarmoqlarining ta'siri va turizmni rivojlantirishning yo'nalishlari va istiqbollarni o'rganish bilan bog'liq. Tanlangan mavzuning dolzarbligi ham bevosita ana shular bilan belgilanadi.

**Asosiy qism:** Quyi Amudaryo mintaqasida gastronomik turizmni rivojlantirish va targ'ib qilish mahalliy jamoalar, iqtisodiyot va madaniyatlar uchun juda ko'p foyda keltirdi. Bu mahalliy fermerlar, ishlab chiqaruvchilar va oshpazlar uchun yangi daromad manbalarini taqdim etdi, shu bilan birga mahalliy oshpazlik an'analari va texnikasini saqlashga yordam berdi. Shuningdek, u turizm daromadlarini ko'paytirdi va oziq-ovqat va mehmondo'stlik sanoatida yangi ish joylarini yaratdi. Bundan tashqari, gastronomik turizm madaniy almashinuv va tushunishni rivojlantiradi, chunki mehmonlar mahalliy oziq-ovqat va ichimliklar an'analari haqida bilib olishadi va mahalliy aholi bilan muloqot qilishadi. Gastronomik turizm-bu mahalliy oshxonalar va oshpazlik an'alarini o'rganishga qaratilgan turizm turi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati oshpazlik merosiga ega mintaqa bo'lib, hududda gastronomik turizm rivojlantirishda ba'zi asosiy avfzalliklari:

1. Iqtisodiy foyda: Quyi Amudaryo gastronomik turizmni rivojlantirish ish o'rinlari yaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga mahalliy talabni oshirish va mehmondo'stlik sanoatini rivojlantirish orqali katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Bu, shuningdek, turizmdan tushadigan daromadning oshishiga olib kelishi mumkin, chunki sayohatchilar noyob oshpazlik tajribalarini izlashadi. Chekka hududlarning o'ziga hos taomlari orqali hududini kichik turistik zonaga aylantirish va iqtisodiy rivojlanish imkonini beradi.

2. Madaniyatni saqlash: Quyi Amudaryo gastroturizmni rivojlantirish va rivojlantirish hududning oshpazlik merosi va avlodlarga o'tib kelayotgan an'alarini saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, u madaniy almashinuvni rivojlantirishga yordam beradi, chunki sayohatchilar mahalliy taomlar va oshpazlik urf-odatlarini haqida bilib olishadi.



3. Marketing va branding: Xorazm milliy palov (palov), shivit osh, chuchvara va somsa (mazali pishiriq), Qoraqalpog'iston milliy taomlaridan mayak barak, Qazi, As saulk kabi turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini ta'kidlab, o'zini noyob pazandalik yo'nalishi sifatida ko'rsatishi mumkin. Bu Quyi Amudaryo mintaqasini boshqa yo'nalishlardan ajratib, ko'proq sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi.

4. Barqaror turizm: gastronomik turizmning yanada barqaror shakli, chunki u mahalliy va mavsumiy ingredientlardan foydalanishga yordam beradi, oziqovqat chiqindilarini kamaytiradi va kichik ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, Quyi Amudaryo mintaqasida gastroturizm rivojlantirish muhim iqtisodiy, madaniy va ekologik foyda keltirishi, shu bilan birga mamlakatning oshpazlik merosi va an'alarini targ'ib qilishi mumkin. Gastronomik turizmni rivojlantirish juda istiqbolli, chunki tobora ko'proq sayohatchilar sayohatlari davomida noyob va haqiqiy oshpazlik tajribalarini qidirmoqdalar.

Gastronomik turizmni rivojlantirishning ba'zi asosiy istiqbollari:

1. O'sib borayotgan talab: gastronomik turizmga talab ortib bormoqda, chunki ko'proq sayohatchilar mahalliy oziq-ovqat va ichimliklar madaniyatini o'rganishga intilishadi. Ushbu tendentsiya ko'rsatkichi kelgusi yillarda ham davom etishi kutilmoqda, chunki sayohatchilar barqaror, mahalliy va haqiqiy tajribalarga ko'proq qiziqishadi.

2. Raqamlashtirish: raqamli texnika - texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yuksalishi sayohatchilarga mahalliy oziq-ovqat va ichimliklar madaniyati haqida ma'lumot topish va almashishni osonlashtirdi.

3. Hamkorlik: Gastroturizmni rivojlantirish ko'pincha fermerlar, oshpazlar, va mahalliy jamoalar kabi turli manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni talab qiladi. Ushbu hamkorlik yanada barqaror va inklyuziv turizm sanoatini yaratishga yordam beradi.

4. Innovatsiya: gastroturizmni rivojlantirish, shuningdek, yangi oziqovqat mahsulotlarini ishlab chiqish, zamonaviy oshxona, oshpazlik tadbirlari va festivallari kabi innovatsiyalar va ijodkorlik uchun imkoniyatlarni taqdim etadi.

### **Xulosa**

Quyi Amudaryoda gastronomik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi yo'llar va istiqbollar tavsifa etiladi:



1. **Mahalliy taomlar va uskana mazmunli ovqatlar:** Quyi Amudaryoda yerli taomlarni va mazmunli ovqatlarni tajribaga olish uchun birinchi qadam bo'lib, turistlarga mahalliy taomlar tayyorlash va taklif etish mumkin.

2. **Oziq-ovqat do'konlari va restoranlar:** Mahalliy oziq-ovqat do'konlari va restoranlar Quyi Amudaryo hududida gastronomik turizmni rivojlantirishga imkon beradi. Bu joylar orasida mahalliy ovqatlarni, ichimlikka qilingan narsalarni, shirinliklarni ko'rishning yanada kuchli vaqtini o'tkazish mumkin.

3. **Taom tayyorgarlik darslari:** Turistlarga mahalliy taomlar tayyorlash jarayonini ko'rish uchun taom tayyorgarlik darslari o'tkazish hamda ularga o'zlarining taomni tayyorlash imkoniyatini berish yaxshi fikr bo'ladi.

4. **Xalqaro festival:** Gastronomik festival va oyoqlar Quyi Amudaryoda turistlar uchun ajoyib tajriba bo'ladi. Bu festivalda mahalliy taomlar, ichimlikka qilingan narsalar, musiqalar, raqs to'y-larlari kuzatilishi mumkin.

5. **Tarixiy restoranlar va mehmonxonalar:** Tarixiy restoranlar va mehmonxonalar Quyi Amudaryoda turistlarga mahalliy taomlarni tarixiy atmosferasiga kirishga imkon beradi. Bu joylarga sayohatchilar gastronomik tarixni ko'ra oladilar.

Quyi Amudaryoda gastronomik turizmni rivojlantirish uchun bu yo'llar bilan sifatli xizmat ko'rsatkichini ta'minlash mumkinligi mavjud. Bu esa hududdagi ekologiya muhitni saqlab qolishi, mahalliy iqtisodiyani mustahkamlashga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek milliy taomlari reseptlarining to'plami. Toshkent, “mehnat”, 1987 y.
2. Do'sjanov B. Xorazm taomlari to'plami. Toshkent, “O'zbekiston”, 1994 y.
3. К. Махмудов. Қизикарли пазандалик. «Ўқитувчи» Тошкент, 1987.
4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
5. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
6. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
7. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси. -Самарқанд, 2005



## Xomiladorlikning erta muddatlarida qayt qilish muammolari va ularni yechish yo‘llari

**Yuldasheva Dilchexra Yusufxanovna**

TTA Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedra professori

**Xikmatullayeva Lobar Isroilovna**

TTA Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasida 1-kurs  
magistranti

### **Annotatsiya**

Xomiladorlikning erta muddatida kuzatiladigan ko‘ngil aynishi va qayt qilish homilador ayolning hayot sifatiga ta’sir qilibgina qolmay balki xomilaga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Homiladorlikning birinchi yarmida ko‘ngil aynishi va qusish 60-80% ayollarda kuzatilib, oxirgi hayzdan 4-7 haftalar oralig‘ida kuzatila boshlaydi. Homiladorlikning 8-12 haftalar orasi esa ushbu simptomlarning eng yuqori uchrash chastotasi hisoblanadi. [12] 15-30% homiladorlar ayollarda bu simptomlar 20-gestatsion haftadan keyin ham hatto homiladorlik oxirigicha ham davom etadi. hHKQ “ertalabki qayt qilish” deb ham ataladi, ammo 1,8% homiladorlarda ko‘ngil aynishi ertalab kuzatilib, 80% homiladorlar esa kun davomida ko‘ngil aynishi kuzatilishi aniqlangan. [17] Agar ayol davolmasa, bu bevosita ayolning ovqatlanish odatlariga, uyqu tartibiga, kundalik faoliyatining samaradorligiga, hayot sifatiga va yaqinlari bilan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Hyperemesis gravidarum homiladorlikda kuchli va to‘xtamas qusish bo‘lib, dehidratatsiya, elektrik disbalans, jigar shikastlanishi, xomilada mumkin bo‘lgan asoratlardan va o‘ta og‘ir holatlarda onaning o‘limiga olib keladi. Bunday holat 1,1% ayollarda uchraydi, kasalxonaga hospitalizatsiyani talab qiladi. [7] Einarson et al. o‘tkazgan meta analiz tadqiqot natijasiga ko‘ra HKQ 40% ayollarda yengil, 46% o‘rtacha og‘irlikda, 14%i esa og‘ir darajada o‘tadi. HG esa 1,1% ayollarda uchraydi. [18]

**Kalit so‘zlar:** homiladorlik, birinchi trimestr, ko‘ngil aynishi, qusish, xavf omillari, davolash uslublari, zanjabil, romashka, akupunktura, akupressura, vit B6, metoklopramid, aromaterapiya.

### **Abstract**

Nausea and vomiting observed in the early period of pregnancy not only affects the quality of life of a pregnant woman, but also has a negative effect on the fetus. In the first half of pregnancy, nausea and vomiting are observed in 60-80% of

women and begin to be observed between 4-7 weeks after the last menstruation. The highest frequency of these symptoms is between 8-12 weeks of pregnancy.[12] In 15-30% of pregnant women, these symptoms persist beyond the 20th week of gestation and even into the end of pregnancy. PNV is also called "morning sickness", but 1.8% of pregnant women experience nausea in the morning, and 80% of pregnant women experience nausea during the day. [17] If a woman does not receive treatment, it directly affects the woman's eating habits, sleep patterns, efficiency of daily activities, quality of life and relationships with loved ones. Hyperemesis gravidarum is severe and persistent vomiting in pregnancy, leading to dehydration, electrical imbalance, liver damage, possible fetal complications and, in extreme cases, maternal death. This condition occurs in 1.1% of women and requires hospitalization. [7] Einarson et al. according to the results of the meta-analysis study, 40% of women have mild, 46% moderate, and 14% severe PVN. HG occurs in 1.1% of women. [18]

**Key words:** pregnancy, first trimester, nausea, vomiting, risk factors, treatment methods, ginger, chamomile, acupuncture, acupressure, vit B6, metoclopramide, aromatherapy.

HKQ Yevropa, Amerika hindlari va eskimos populyatsiyalariga qaraganda Hindiston, Pokiston, Osiyoning boshqa qismlari va Yangi Zelandiya ayollarda ko‘proq uchraydi.[25]

Shu vaqtgacha homiladorlar ko‘ngil aynishi va qusishining aniq etiologiyasi oxirigacha o‘rganilmagan edi. Ammo Fejzo, M., Rocha 2024 yilda Nature jurnalida chop etgan natijalariga ko‘ra HKQ barcha og‘irlik turlari GDF15 va IGFBP7 genlari bilan bog‘liq. Ulardan birinchisi transformatsiyalovchi beta o‘shish faktori bo‘lgan GDF gormonini kodlaydi, ikkinchisi esa insulinsimon o‘shish faktorini retseptorlari bilan bog‘lanishini boshqaruvchi oqsilni kodlaydi. Ikkalasi ham yo‘ldoshni birikishida, ishtaha va charqoqni regulyatsiya qiladi. 168 ta ko‘ngil aynishi kuzatilgan homiladorlarda va 148 ta bunday belgi kuzatilmagan ayollarni 15-gestation haftada GDF15 miqdori aniqlanganda, birinchi guruhda natijalar ancha yuqori ko‘rsatgichlar bo‘lgan. [9]

HKQ/HG ning og‘ir formalari ko‘proq neyrogarmonal faktorlar ( asosan odam xorionik gonadotropin ) sababli yuzaga keladi [6]. Bundan tashqari HGga B6 (pyridoxine), vitamin B1 (tiamin), vitamin K defisiti sabab ham bo‘ladi.

HKQni og'irlik darajasini aniqlash uchun PUQE shkalasi 2002 yilda ishlab chiqilgan. Ammo oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra 2005 yilda ishlab chiqilgan PUQE-24 modifikatsiyalangan shkalasi HKQni og'irlik darajasini oson va ishonchli o'lchov sifatida istiqbolli vositaligi aniqlandi.[11] Bunga ko'ra quyidagi so'rovnomalar natijalariga qarab og'irlik darajasi aniqlanadi:

- Oxirgi 24 soat ichida siz qancha muddat ko'ngil aynishi, oshqozon sohasida bezovtalik yoki og'irlik his qildingiz?

Bo'lmaydi	1soat va undan kam	2-3 soat	4-6 soat	6 soatdan ko'proq
1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball

- Oxirgi 24 soat ichida sizda qayt qilish kuzatildimi? va necha marta?

Bo'lmaydi	1-2 marta	3-4 marta	5-6 marta	7 va undan ko'p marta
1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball

- Sizda nechi marta qayt qilishga olib kelmagan undovlar kuzatildi?

Bo'lmaydi	1-2 marta	3-4 marta	5-6 marta	7 va undan ko'p marta
1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball

Engil daraja < 6 ball, o'rta og'ir daraja 7-12 ball, og'ir daraja >13 ball deb baholanadi.

HKQning og'irlik darajasini aniqlash qaysi davolash rejasini eng yaxshi ekanligini aniqlaydi. Bu kunlik ovqatlanish tartibiga ozgina tuzatish kiritishdan tortib kasalxonaga yotqizish hatto qo'shimcha dori vositalar qabul qilishgacha bo'lishi mumkin. [12] HKQ ni oldini olish va simptomlarini kamaytirish uchun ovqatlanish odatlariga quyidagilarni kiritish lozim deb hisoblanadi: elektrik muvozanatni va adekvat gidratsiyani saqlash uchun kuniga 2 litrdan kam bo'lmagan



miqdorda suv ichish [8], oshqozon bo'sh qolmasligi uchun kam-kam miqdorda tez-tez ovqatlanish har 1-2 soat oralig'ida [3], oshqozon to'lib ketishini oldini olish(ovqat bilan suv ichmaslik, yog'li va ko'p miqdorda ovqat yemaslik) [8], o'tkir xidli, achchiq taomlar yemaslik [3], taomlar oralig'ida yongoq va tarkibida yuqori oqsil saqlovchi ozuqa mahsulotlarni istemol qilish [16] tarkibida temir moddasi tutuvchi prenatal vitaminlash ichishni to'xtatish [8]. Farmakologik dori vositalar yordamida davolashning ko'plab variantlari mavjud bo'lib, ular orasida vitamin B6, H1-retseptor antagonistlari( difengidramin, difengidranat), dofamin bloklovchi vositalar ( metoklopramid) va kortikosteroidlar mavjuddir.[5] HKQning davosida foydalaniladigan 1-qator dori preparatlardan biri bu piridoksin-doksilamindir. Doksilamin H1-gistaminoblokator bo'lib, vestibular sistemaga bevosita ta'sir etib, qusish markazini stimulyatsiyasini pasaytiradi. Vitamin B6 (piridoksin) esa suvda eruvchi vitamin bo'lib, aminokislota, lipid, uglevodlar almashinuvda koenzim sifatida ishtirok etadi. Bu dori vositalar kombinatsiyalangan holda qabul qilinganda, o'rta darajali ko'ngil aynishi va qusishni batamom davolaydi, o'gir formalarini esa yengil formaga o'tkazadi. [4] 2-qator tanlov preparati metoklopramid bo'lib, markaziy va perefirik dofamin D2 retseptor blokatori bo'lib, qusish markazini sezuvchanligin pasaytira, ammo u homilada ekstrapiramidal buzilishlarga olib kelish xavfi borligi aniqlangan.[25]

Homiladorlar kimyoviy dori preparatlarning teratogen ta'siri mavjud bo'lganligi sababli, ularni qabul qilishni afzal ko'rishmaydi.[16] Shu sababli, kimyoviy dori vositalar o'rnini bosuvchi alternativ an'anaviy tibbiy mahsulotlar mashxur bo'lib kelmoqda, ulardan eng asosiysi bu zanjabil hisoblanadi.[19] Zanjabilning asosiy ta'siri uning tarkibidagi gingerol va shagoallar ichakdagi xolenergik M3 retseptorlari va serotonergic 5-HT3 va 5-HT4 retseptorlariga ta'sir etib oshqozon ichak trakti xarakteriga yaxshilashi aniqlangan. [13] 2022 yilda o'tkazilgan meta analiz natijalariga ko'ra homiladorlar kuniga 1 gr zanjabil va 40 mg vitamin B6 (piridoksin) qabul qilganlar va zanjabil vitamin B6 ga qaraganda XKQni davolashda ko'proq samaradorligi va ular orasida yuqori farq yo'qligini aniqlandi. [14] Mohammadbeigi et al., (2011) o'tkazgan tadqiqotida esa zanjabil va metoklopramidni HKQga effektivligini o'rganilganda, natijalar metoklopramide va zanjabil guruhlari orasida katta farq aniqlanmagan ( $p=0.509$ ). Shunday qilib, zanjabil metoklopramid dan kam effektli bo'la olmasligini, aksincha metoclopramidga alternativ vosita sanalishi aniqlandi. [20] Yana bir boshqa

tadqiqotda Pongroj paw et al. (2007) zanjabil va dimengidrinat HKQni davolashda bir xil samadorlikka egaligi va zanjabilning nojo'ya ta'sirlari kamligini aniqlagan.[23] XKQ ni alternativ davosiga zanjabilidan tashqari, akupunktura, akupressura va aromaterapiya ham kiradi. Jamigorn va Phupong (2007) aniqlashicha vit B6 ( $p<0.001$ ) bilan acupressure ( $p<0.001$ ) ko'ngil aynish, qayt qilish simptomlarini kamayishi ikkalasi ham teng kuchga egadir.[15] Adlan et al. (2017) tadqiqotida esa Nei-guan nuqtasiga 3 kun davomida 12 soatdan bog'ich taqilganda HG bilan kasallangan bemorlarda ketonuriya, ko'ngil aynishi, qayt qilish kamayib, kasalxonadagi davo kunlari soni qisqargan.[2] Adabiyotlar qidiruvida acupunkturaga oida 2ta tadqiqot topildi. Bulardan biri Neri et al., (2005) 88ta HG bilan kasallangan homiladorlarda akupunkturadan foydalanilganda ko'ngil aynish va qayt qilish soni sezilarli darajada kamaygan.[22] 2020 yilda Farzaneh Safajou et al.ning 2 tomonlama yashirin va randomizasiyalangan klinik tadqiqotida limon va myata kombinatsiyali aromaterapiya HKQni yengil darajasini o'rta og'ir darajasiga o'tishini oldini olishi aniqladi ( $p<0.001$ ).[24] Modares et al. tadqiqotida esa romashka oral kapsulalari HKQ simptomlarini oldini olishda zanjabilga qaraganda ko'proq effektivligini ma'lum qilgan. ( $p<0.05$ ) [21]

Xulosa qilib aytganda, homiladorlar ko'ngil aynishi va qayt qilishi fiziologik, ammo u homilador ayolga sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'rib chiqilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra, bir qancha nofarmokologik metodlar, zanjabil, romashka, akupressura, akupunktura, aromaterapiya HKQda asosiy yoki qo'shimcha davo vositasida qo'llanilishi mumkindir. Kelajakdagi tadqiqotlar homiladorlar ko'ngil aynishi va qusishini davolashda nofarmakologik eng optimal metodni aniqlashga bag'ishlanishi kerak.

---

# Research Science and Innovation House

### References:

1. Abedzadeh Kalahroudi M. Complementary and alternative medicine in midwifery. *Nurs Midwifery Stud.* 2014;3:e19449.
2. Adlan, A. S., Chooi, K. Y., & Mat Adenan, N. A. (2017). Acupressure as adjuvant treatment for the inpatient management of nausea and vomiting in early pregnancy: A double-blind randomized controlled trial. *Journal of Obstetrics and Gynaecology Research*, 43(4), 662–668. <https://doi.org/10.1111/jog.13269>
3. American College of Obstetrics and Gynecology. ACOG (American College of Obstetrics and Gynecology) Practice Bulletin: nausea and vomiting of pregnancy. *Obstet Gynecol.* 2004;103(4):803–814
4. Badell ML, Ramin SM, Smith JA. Treatment options for nausea and vomiting during pregnancy. *Pharmacotherapy.* 2006;26(9):1273–1287.
5. Conover EA. Over-the-counter products: nonprescription medications, nutraceuticals, and herbal agents. *Clin Obstet Gynecol* 2002;45(1):89–98. DOI: 10.1097/00003081-200203000-00010.
6. Derbent AU, Yanik FF, Simavli S, et al. First trimester maternal serum PAPP-A and free  $\beta$ -HCG levels in hyperemesis gravidarum. *Prenat Diagn* 2011;31(5):450–453. DOI: 10.1002/pd.2715.
7. Ebrahimi N, Maltepe C, Einarson A: Optimal management of nausea and vomiting of pregnancy. *Int J Women’s Health* 2010, 2:241–248.
8. Einarson A, Maltepe C, Boskovic R, Koren G. Treatment of nausea and vomiting in pregnancy: an updated algorithm. *Can Fam Physician.* 2007;53(12):2109–2111.
9. Fejzo, M., Rocha, N., Cimino, I. et al. GDF15 linked to maternal risk of nausea and vomiting during pregnancy. *Nature* 625, 760–767 (2024). <https://doi.org/10.1038/s41586-023-06921-9>
10. Gaur R, Mudgal SK, Kalyani V, et al. Ginger vs Vitamin B6 for Treating Nausea and Vomiting during Pregnancy: A Systematic Review and Meta-analysis. *J South Asian Feder Obst Gynae* 2022;14(2):210–217.
11. Hada A, Minatani M, Wakamatsu M, Koren G, Kitamura T. The Pregnancy-Unique Quantification of Emesis and Nausea (PUQE-24): Configural, Measurement, and Structural Invariance between Nulliparas and Multiparas and across Two Measurement Time Points. *Healthcare (Basel).* 2021 Nov

15;9(11):1553. doi: 10.3390/healthcare9111553. PMID: 34828598; PMCID: PMC8618060.

12. Hu Y, Amoah AN, Zhang H, et al. Effect of ginger in the treatment of nausea and vomiting compared with vitamin B6 and placebo during pregnancy: a meta-analysis. *J Matern Fetal Neonatal Med* 2022;35(1):187–196. DOI: 10.1080/14767058.2020.1712714.

13. Hu, M.-L. , Rayner, C. K. , Wu, K.-L. , Chuah, S.-K. , Tai, W.-C. , Chou, Y.-P. , ... Hu, T.-H. (2011). Effect of ginger on gastric motility and symptoms of functional dyspepsia. *World Journal of Gastroenterology*, 17(1), 105–110. [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

14. Hu Y, Amoah AN, Zhang H, Fu R, Qiu Y, Cao Y, Sun Y, Chen H, Liu Y, Lyu Q. Effect of ginger in the treatment of nausea and vomiting compared with vitamin B6 and placebo during pregnancy: a meta-analysis. *J Matern Fetal Neonatal Med*. 2022 Jan;35(1):187-196. doi: 10.1080/14767058.2020.1712714. Epub 2020 Jan 14. PMID: 31937153

15. Jamigorn, M., & Phupong, V. (2007). Acupressure and vitamin B6 to relieve nausea and vomiting in pregnancy : a randomized study. *Arch Gynecol Obstet*, 276, 245–249. <https://doi.org/10.1007/s00404-007-0336-2>

16. Jednak MA, Shadigian EM, Kim MS, et al. Protein meals reduce nausea and gastric slow wave dysrhythmic activity in first trimester pregnancy. *Lacroix R, Eason E, Melzack R. Nausea and vomiting during pregnancy: a prospective study of its frequency, intensity, and patterns of change. Am J Obstet Gynecol. (2000) 182:931–7. doi: 10.1016/S0002-9378(00)70349-8*

17. Lacroix R, Eason E, Melzack R. Nausea and vomiting during pregnancy: a prospective study of its frequency, intensity, and patterns of change. *Am J Obstet Gynecol. (2000) 182:931–7. doi: 10.1016/S0002-9378(00)70349-8*

18. Liu C, Zhao G, Qiao D, Wang L, He Y, Zhao M, Fan Y, Jiang E. Emerging Progress in Nausea and Vomiting of Pregnancy and Hyperemesis Gravidarum: Challenges and Opportunities. *Front Med (Lausanne)*. 2022 Jan 10;8:809270. doi: 10.3389/fmed.2021.809270. PMID: 35083256; PMCID: PMC8785858.

19. Matthews A, Haas DM, O’Mathúna DP, et al. Interventions for nausea and vomiting in early pregnancy. *Cochrane Database Syst Rev* 2015;2015(9):CD007575. DOI: 10.1002/14651858.CD007575.pub2.

20. Mohammadbeigi, R., Shahgeibi, S., Soufizadeh, N., Rezaie, M., & Farhadifar, F. (2011). Comparing the effects of ginger and metoclopramide on the treatment of pregnancy nausea. *Pakistan Journal of Biological Sciences*, 14(16), 817–820. <https://doi.org/10.3923/pjbs.2011.817.820>
21. Modares M, Besharat S, Mahmoudi M. Effect of ginger and chamomile capsules on nausea and vomiting in pregnancy. *J Gorgan Univ Med Sci*. 2012;14:46–51.
22. Neri, I., Allais, G., Schiapparelli, P., Blasi, I., Benedetto, C., & Facchinetti, F. (2005). Acupuncture versus pharmacological approach to reduce Hyperemesis gravidarum discomfort. *Minerva Ginecologica*, 57(4), 471–475.
23. Pongrojpraw, D., Somprasit, C., & Chanthasenanont, A. (2007). A randomized comparison of ginger and dimenhydrinate in the treatment of nausea and vomiting in pregnancy. *Journal of the Medical Association of Thailand*, 90(9), 1703–1709. <https://doi.org/10.1016/j.ajog.2006.10.299>
24. Safajou F, Soltani N, Taghizadeh M, Amouzeshi Z, Sandrous M. The Effect of Combined Inhalation Aromatherapy with Lemon and Peppermint on Nausea and Vomiting of Pregnancy: A Double-Blind, Randomized Clinical Trial. *Iran J Nurs Midwifery Res*. 2020 Sep 1;25(5):401-406. doi: 10.4103/ijnmr.IJNMR\_11\_19. PMID: 33344211; PMCID: PMC7737842.
25. Sun L, Xi Y, Wen X, Zou W. Use of metoclopramide in the first trimester and risk of major congenital malformations: A systematic review and meta-analysis. *PLoS One*. 2021 Sep 20;16(9):e0257584. doi: 10.1371/journal.pone.0257584. PMID: 34543335; PMCID: PMC8452057.
26. Verberg MF, Gillott DJ, Al-Fardan N, et al. Hyperemesis gravidarum, a literature review. *Hum Reprod Update* 2005;11:527–39.

Research Science and  
Innovation House



## ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ТУРИЗМЕ ШАГ В НОВУЮ ЭПОХУ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ

Абдуллаева Шахноза Еркиновна PhD, ТГУВ

Ибрагимова Дильруза Акмал кизи

@dilruzaibragimova@gmail.com +998888021026

Студентка 3 курса в направлении туризм ТГУВ, факультет Туризм,  
экономика и политика восточных стран

**Аннотация:** Туристская деятельность является информационно насыщенной сферой. Так как современность нашего общества предполагает получение информации через интернет платформы, цифровизация в туризме становится важным атрибутом продвижения к новой эпохе развития отрасли. Актуальность выбранной темы подкрепляется тем, что в современных условиях цифровизация стала фактором, стимулирующим сотрудничество, расширяющим возможности туризма, упрощающим взаимодействие туристов с работниками смежных сфер, создающим новые формы поездок, расширяющим возможностей в сфере туризма.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, искусственный интеллект, цифровизация в туризме, электронные платежи, электронная коммерция, виртуальный туризм, электронный бизнес, динамические турпакеты.

**Abstract:** Tourism activity is an information-rich area. Since the modernity of our society involves obtaining information through the Internet platform, digitalization in tourism is becoming an important attribute in moving towards a new era of industry development. The relevance of the chosen topic is reinforced by the fact that in modern conditions digitalization has become a factor that stimulates cooperation, expands tourism opportunities, simplifies the interaction of tourists with workers in related fields, creates new forms of travel, and expands opportunities in the field of tourism.

**Keywords:** digital economy, artificial intelligence, digitalization in tourism, virtual tourism, electronic payments, e-commerce, e-business, dynamic travel packages.

## Введение

Как одна из наиболее развивающихся отраслей в экономике, туризм становится важнейшим приоритетным направлением для процветания уровень жизни людей во всем мире. Рассчитав экономические функции туризма, мы можем определить те выгоды, которые он приносит. Прежде всего туризм стимулирует развитие элементов инфраструктуры – отелей, ресторанов, коммерческих и частных заведений. Во вторых так как налоги составляет большой часть основного бюджета страны, туризм увеличивая доходов, предоставляет значительную долю в выплата налогов, которые могут быть прямыми (визовые сборы и таможенные пошлины) или косвенными (увеличение заработной платы работников приводит к увеличению суммы подоходного налога, уплачиваемого ими в бюджет). Кроме того, туризм имеет большие возможности для привлечения иностранной валюты и различных видов инвестиций.

Не менее важной экономической функцией туризма является диверсификация экономики и формирование отраслей, обслуживающих туристическую отрасль, обеспечивающих рост доходов населения, повышение уровня благосостояния нации.

8. Tursunov, B. "Qishloq xo'jaligi va agrobiznesni rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlar", Iqtisodiyot va Ta'lim jurnali, 2020.
9. "Uzbekistan: Agricultural Sector Review", Asian Development Bank, 2020.
10. "Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish strategiyalari", BMT Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO), 2019.
11. Anderson, K. "Agricultural Policy and Development", Oxford University Press, 2019.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi, "O'zbekiston qishloq xo'jaligi statistikalari to'plami", 2022 yil.
13. "Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishda innovatsion yechimlar", Markaziy Osiyo Agrotexnologiya Forumi, 2021.
14. "Global Agriculture: Trends and Policies", OECD Publishing, 2020.

15. "Qishloq xo'jaligida kadrlar tayyorlash va rivojlantirish strategiyalari", O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi, 2020.
16. "Xalqaro qishloq xo'jaligi bozorlariga kirish imkoniyatlari", O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, 2021.
17. Sharipov, M. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi siyosati va islohotlari", Iqtisodiy islohotlar va mintaqaviy rivojlanish instituti, 2018.
18. FAO, "Agricultural Innovation Systems: A Framework for Analysing the Role of the Government", 2018.
19. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish strategiyalari", O'zbekiston Eksportchilar Assotsiatsiyasi, 2021.
20. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qishloq xo'jaligidagi roli", O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, 2020.
21. "Agricultural Mechanization in Uzbekistan", International Journal of Agricultural Technology, 2021.
22. "Suv resurslarini boshqarish va qishloq xo'jaligida suvni tejash texnologiyalari", O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, 2019.
23. "Sanoat korxonalarini boshqaruvining yangi yondashuvlari", O'zbekiston Respublikasi Sanoat va savdo vazirligi, 2020.
24. "Qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish usullari", Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 2019.
25. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berishda logistika tizimlari", O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, 2021.



## EPIDEMIOLOGY, CLINICAL COURSE, TREATMENT AND PREVENTION OF MEASLES

**Razzokberganova D.O.**

**Urgench branch of Tashkent Medical Academy, Urgench, Uzbekistan**

### ✓ Resume

Measles is an acute infectious disease caused by the measles virus, which infects the epithelium of the upper respiratory tract and skin. Clinically characterized by a severe syndrome of general infectious intoxication, pathognomonic enanthema, maculopapular rash, conjunctivitis and respiratory tract (respiratory) syndrome. The syndromic disease was described in 1890 by Dr. Belsky (Pskov), in 1895 by pediatric doctor Filatov, and in 1898 by Dr. Koplik (USA).

**Keywords:** Measles, rash, age, symptom, spread, pregnancy, temperature.

**Introduction.** The virus envelope has 3 layers: a protein membrane, a lipid layer and external glycoprotein complexes that form peculiar protrusions. The virus strains are antigenically identical, have complement-fixing, hemagglutinating, hemolyzing properties and symplast-forming activity. CD-46 is the human receptor for the measles virus.

**The virus** is unstable in the external environment: it is sensitive to ultraviolet radiation, in drops of saliva under favorable conditions (sufficient humidity and absence of ultraviolet radiation) it dies in 2-3 hours, when dried and exposed to disinfectants, it dies instantly. Tolerates low temperatures well. The virus can be isolated from various environments of the body (blood, urine, feces, swabs from the mucous membranes of the oropharynx, conjunctiva, cerebrospinal fluid)

**Epidemiology.** Anthroponosis. The source of the disease is an exclusively infected person, also with an atypical form of measles disease. The infected person



is contagious from the last two days of incubation until the 4th day from the moment the rash appears, inclusive - from the 5th day the contagiousness disappears. Measles is one of the most contagious diseases in the world. The virus can remain in the air for up to 2 hours after the patient leaves the room. And upon contact with a patient, 9 out of 10 people without immunity to measles become ill.

**Mechanism of transmission:** airborne droplets (aerosol route), rarely transplacental (if a woman becomes ill at the end of pregnancy). Infection from recently vaccinated people is theoretically possible, but in practice this happens extremely rarely. There is a spring-winter seasonality. After an infection and a full course of vaccination, stable lifelong immunity develops. Anyone who is not immunized can become infected with measles—those who have not been vaccinated or those who have not developed immunity after vaccination. Unvaccinated young children are at the highest risk of measles disease and complications, including death. Measles is one of the leading causes of death among them. There were 134,200 measles deaths globally in 2015

**Symptoms of measles.** The incubation period in the typical form lasts from 9 to 11 days (in some cases up to 13). The onset of the disease is subacute (i.e., the main syndrome appears on the 2-3rd day from the onset of the disease), however, with proper preparation of the doctor (identification of pathognomonic enanthema - a rash on the mucous membranes), an acute onset can be determined (during the first day). In adulthood, due to the characteristics of the immune system, these criteria may not be met. Typical complaints of patients: increasing weakness, lethargy, loss of appetite, sleep disturbances, “sand in the eyes,” swelling of the lower eyelids, sometimes a runny nose, increased body temperature (up to 39 °C). Then a sore throat develops, a dry cough appears, shortness of breath, there may be abdominal pain, diarrhea (layering of secondary flora), a rash appears (with its appearance, the

syndromes of general infectious intoxication and damage to the respiratory tract intensify). Objectively: one can note the occurrence of a maculopapular rash, which appears in typical cases on the 3-4th day of illness with pronounced stages (face, neck; then - torso, arms, thighs; then - legs and feet, and on the face at this moment turns pale). Belsky-Filatov-Koplik spots.

**Symptoms of measles in children.** Symptoms of measles in children and adults are similar. However, in young patients the disease is more severe and complications develop more often. Severe measles is common among malnourished children under 5 years of age and those whose immune systems are weakened by HIV/AIDS or other diseases. Three children out of 1000, according to statistics, die from measles due to neurological and respiratory complications.

**Symptoms of measles in pregnant women.** Measles in pregnant women is a fairly rare disease. This may be due to age and women's instinctive caution when interacting with people who may be sick, for example if the person has a rash. But in general, the disease in pregnant women is more severe due to physiological immunosuppression - the body's natural reaction to preserve the embryo. Infection in the early stages can lead to spontaneous miscarriage, stillbirth or missed abortion. This is due to viremia (long-term presence of the virus in the blood) and the fact that the pregnant woman does not have immunity that protects the fetus from the penetration of the virus. For a child, everything can end with malformations of the central nervous system with the risk of dementia, the development of inflammatory diseases of the cardiovascular and pulmonary systems, but the likelihood of their development is less than with rubella. If the patient becomes infected in the later stages, malformations usually do not occur, but the risk of developing subacute sclerosing panencephalitis, inflammatory multisystem lesions (pneumonia, colitis, otitis, skin lesions), as well as premature birth and prematurity, increases.

### Diagnosis of measles

- detailed general clinical blood test (leukopenia, lymphocytosis and monocytosis, eosinopenia, normal ESR); if complications develop - appropriate changes;
- general clinical urine analysis (with the development of glomerulonephritis - proteinuria, cylindruria, hematuria);
- biochemical blood tests (increased AST in myocarditis);
- bacterioscopy (in the initial period and during the first 2 days of the rash, detection of Warthin-Finkelday cells in sputum, urine, nasopharyngeal mucus) - not used in practice;
- serological diagnostics (detection of antibodies of classes M and G in blood serum by ELISA, measles virus by PCR) - the standard of laboratory diagnostics;
- PCR diagnostics is possible from material from nasopharyngeal mucus, urine, and cerebrospinal fluid.

Class M antibodies detected during ELISA, characteristic of the acute phase of the disease, may be false positive in the presence of rheumatological diseases.

Treatment of measles. Bed rest. The bed should be facing the window with its head end - if you are ill, the light irritability of the eyes increases. If sleep is disturbed and insomnia appears, you should still try to go to bed on time. Treatment of measles with medications. There is no specific treatment against the measles virus. The prescription of drug therapy depends on the severity of the disease; in mild forms, a sufficiently enriched vitamin diet and a sufficient amount of liquid to drink are sufficient. In moderate forms, especially in adult patients, intravenous infusion solutions, expectorants, cleaning the oral cavity and conjunctiva with antiseptic solutions, and means of normalizing cardiac tone may be indicated. In severe conditions, the administration of specific anti-measles immunoglobulin, the administration of hormones, antibiotic therapy (if complications arise), intensive



care and resuscitation measures are included. Dispensary observation in uncomplicated cases - about one month, in case of complications - up to two years

**Prevention.** At the source of measles, a set of measures is carried out to localize and eliminate it:

- when a focus of infection is identified in kindergartens, schools, as well as in organizations with round-the-clock attendance of adults, from the moment the first patient is identified until 21 days from the moment the last patient is identified, persons who have not had measles and have not been vaccinated against this infection are not allowed into the team;
- patients with measles are required to be hospitalized;
- persons who have been in contact with measles patients are subject to medical observation for 21 days from the moment the last case of the disease is detected in the outbreak;
- in the source of infection, people are identified who are subject to immunization against this infection according to epidemic indications (that is, persons who have been in contact with the patient (if the disease is suspected), have not previously had measles, are not vaccinated, do not have information about vaccinations against measles, as well as people, vaccinated against measles once - without age limit).

Immunization is carried out within the first 72 hours from the moment the patient is identified. As the radius of the outbreak increases, the immunization period can be extended to seven days from the moment the first patient is identified in the outbreak. Children who have not been vaccinated against measles are given normal human immunoglobulin no later than the 5th day after contact with the patient.

**Vaccination against measles.** The main method of specific prevention and protection of the population from measles is vaccine prevention. The measles



vaccine has been used for more than 50 years. It is safe, effective and inexpensive. Immunizing one child against measles costs about one US dollar.

Immunization of the population against measles is carried out within the framework of the national calendar of preventive vaccinations and the calendar of preventive vaccinations for epidemic indications. The only way to ensure that a patient is protected from measles is through a documented two-dose vaccine or a positive test result for class G specific antibodies. The effectiveness of a two-dose vaccine is at least 97%. If a previous illness or vaccination is not confirmed in any way, the doctor does not have the right to take the patient's word for it - he is obliged to vaccinate the patient or refer him for laboratory testing. Pregnant women who have been in contact with a person with measles cannot be vaccinated with a live vaccine, but passive immunization is recommended. To do this, the patient is administered measles human immunoglobulin once at a dose of 0.25 ml/kg body weight in the first 72 hours after contact.

### References

1. World Health Organization. Measles/Newsletter [Electronic resource]. Date of access: 07/15/2018.
2. Centers for Disease Control and Prevention. Measles (Rubeola). — 2018.
3. Dobrokhotova A.I. Measles and the fight against it. - M.: Medgiz, 1959. - 160, [20] p.
4. Measles // WHO, 2019.
5. Sugerman D. Measles in the US: 5 Things You Need to Know // Medscape. — 2022.
6. Mulders M. Manual for the laboratory-based surveillance of measles, rubella, and congenital rubella syndrome. — 3rd edition. — Geneva: WHO, 2018.
7. Chebalina E. A., Zhidkikh V. N., Salonikidi A. I., Gridasov V. A. Measles in pregnant women: risk, diagnosis, management tactics (to help the practitioner) // University Clinic. - 2017. - No. 3-2. — P. 177-183.
8. Measles // National Health Service. — 2022.



## TIL VA TAFAKKUR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR. TILSHUNOSLIKDA KOGNITIZM

Qarshi davlat universiteti

3-kurs talabasi

**Yusufova Madinaxon**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til va tafakkur o'rtasidagi munosabatning o'zgaruvchanligi va ularning bir-biriga bog'liqlikka e'tibor qaratilishi, fikr va nutq, til va tafakkur o'rtasidagi doimiy aloqa kabi mavzular yoritib o'tilgan. Kognitiv tilshunoslik aniq bir fan doirasiga kirmaydi. Shuning uchun ham bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmasdan, balki tilni ong bilan bog'laydi va shu xulosadan kelib chiqqan holda, kognitiv tilshunoslik bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada. Shu bilan bir qatorda, maqola til va tafakkur ta'limoti yuzasidan izlanish olib borgan tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari bilan boyitilgan

**Kalit so'zlar:** til, tafakkur, kognitizm, munosabat, dialektik aloqa, ong, lingvistik belgi, idrok, bahs

**Annotonation:** The article discusses the variability of the relationship between language and thought, the importance of attention to their interdependence, topics like speech and thinking, and the continuous dialogue between language and thought. Cognitive linguistics does not fit into a single field of study. Therefore, this area is not limited to the theory of knowledge in philosophy alone. It connects language with the mind and, based on this conclusion, engages in various disciplines related to cognitive linguistics. In this sense, the article is based on the thoughts and conclusions of researchers who have explored the field of language and thought education.

**Keywords:** language, thought, cognition, relationship, dialectical dialogue, linguistic sign, perception, discussion

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается изменчивость отношений между языком и мышлением, а также взаимосвязь между ними, а также постоянное взаимодействие языка и мышления, подобное постоянной диалектической связи. Когнитивный лингвистический анализ не

ограничивается конкретной наукой. Поэтому эта область связана не только с философской теорией познания, но и тесно связана с языком с правой стороны, и в этом контексте когнитивный лингвистический анализ связан с несколькими научными дисциплинами. Следовательно, статья развивается на основе исследований, проведенных в области обучения языку и мышлению.

**Ключевые слова:** язык, мышление, когнитивизм, отношения, диалектическое взаимодействие, правильная сторона, лингвистический знак, понимание, дискуссия

Til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab jarayom bo‘lgani sababli, u nafaqat tilshunoslikda, jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan ham bevosita aloqador. Til va tafakkur bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan dialektik birlik. Dialektik so‘ziga to‘xtalsak, “Dialektik” yunoncha “suhbat olib borish, bahslashish san’ati” - borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy ta’limot hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubi. Til va tafakkur xuddiki, shakl-mazmun munosabatiga daxldor. Ya’ni, mazmum qanchalik chuqur hamda to‘liq bo‘lsa, shakl ham shunchalik rang-barang bo‘ladi. Til va tafakkur bir-biriga bog‘liq. Tilsiz fikrni ifodalash ilojsiz, shuningdek, tafakkursiz, fikrsiz til o‘z ifodasini topmaydi. Ammo bu ikki termini bir-biri bilan o‘xshash narsa emas. Tafakkur – bu tashqi olamning inson ongidagi in’ikosi. Til esa tafakkurni-o‘sha fikrni bir shaklga solib ifodalashdir. Til – bu insolarning boshqa jonzotlardan eng oliy farqli jihatlaridan biri. Til qonunlari va tafakkur qonunlarining bir-biriga zid taraflari mavjud. Til – bu grammatikaning o‘rganish manbai bo‘lsa, tafakkur esa mantiq ilmining manbayidir.

Ma’lumki, til - fikrning shakllanishiga va uni ifodalashga xizmat qiladi. Har bir fanning o‘z kategoriyalari mavjud. Shuningdek, grammatikada va mantiqda ham kategorik qoidalar bor. Bular ba’zan bir-birini qo‘llab quvvatlashga, ba’zan esa bir-biriga teskari. Misol uchun, “Kitoblar nashriyot tomonidan nashr ettirildi”. Bu mantiq jihatdan hukm, grammatik jihatdan esa gap hisoblanadi. “Kitoblar” - mantiqiy obyekt, grammatik jihatdan esa ega. “Nashriyot” - mantiq jihatdan esa subyekt, grammatik jihatdan to‘ldiruvchi.

B. Uorfning fikriga ko‘ra, “Har qanday til - fikr ifodalashning quroligina emas, inson fikrlashi, barcha tafakkur jarayonlari uchun grammatik daturul amal bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni uning ushbu fikri zamirida, insonlar borliqni o‘z tillari

doirasida (yoki stereotiplari) idrok qiladilar. Bunda til va va madaniyat o'rtasidagi munosabati- til va tafakkur o'rtasidagi munosabat kabi muhokama qilinadi.

Ibn-Sinoning asarlarida ta'kidlashicha, fikr va nutq, til va tafakkur o'rtasida doimiy aloqa bor. Uning til haqidagi ta'limotiga ko'ra, tillar ikki turga bo'linadi: tabiiy tillar va sun'iy tillar. Tabiiy tillar – tafakkurning asosiy belgisidir.

A. Navoiyning ushbu jumllariga nazar solsak, “Kishining ko'ngli (fikri) daryodir, so'z esa dur, so'zlovchi esa g'avvosdir. Ushbu satrlarda A. Navoiy til va tafakkurning uzviy bog'liqligi haqida fikr yuritgan.

Vaysbergning fikricha, “Har bir xalq lingvistik belgilar “tovushlanish”ga muvofiq keladigan tushunchalarga ega. Tilda biror-bir tovush ifodasi bo'lmasa, unga mos tushuncha ham bo'lmaydi.

Shleyxer o'z asarida “Til - bu fikrning tovushlar orqali ifodalanishi deb ta'kidlab, til va tafakkurning ajralmas munosabatini ko'rsatib beradi.

A. Vejbitskaya esa barcha tillar o'z ifoda qudratiga ega. Faqat ba'zi tushunchalarni ayrim tillarda ifodalash boshqalariga nisbatan oson deydi. Masalan, ingliz tilidagi “see “ fe'li - “tushunish” va “ko'rish” ma'nolarini ifodalaydi.

I see the movie. (Men serialni ko'ryapman.) I see what you say. ( Nimani aytganingni tushunyapman.)

Boshqa tarafdin qarajak, til birliklari - real , mantiqiy birliklar esa mavhum. Rus tilidagi jonli va jonsizlikni ifodalovchi kategoriyasi yoki rod o'zbek tilida uchramasligini ko'rishimiz mumkin.

Kognitiv tilshunoslik - o'z o'rnida til va ong o'rtasidagi ma'lum munosabatlar muammolarini, inson dunyodan olgan bilimlarini ongida mavjud bo'lgan sarlavhalar, yo'nalishlar bo'yicha taqsimlash, turkumlashini, til va uning o'zaro vositalarini , insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini o'rganadigan tilshunoslikning bir sohasidir. Lug'aviy ma'nosi, “kognitiv” - lotincha “cognitio” “idrok, tasavvur qilish”, “ishning tahlili “ degani ma'noni anglatadi. Kognitiv tilshunoslikning o'rganish predmeti - til va tafakkur munosabatlari hisoblanadi. Fanda ikki xil bilish turi mavjud. Biri - sezgi, bu hayvonlarda ham rivojlangan, ikkinchisi - aqliy ilish ya'ni tafakkur. Hissiy bilishda szgilar orqali bilamiz, tafakkur esa ong bilan bog'liq, tashqi olamni his qilibgina qolmay, balki uni ongda fahmlash, idrok qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash, fikr

yuritish va bir xulosaga keltirish. Yuqorida ta'kidlanganidek, ma'lumotlar turli til vakillari tomonidan turlicha stereotiplarni yaratadi. Millatlarning tillariturlicha va bu borada V. Humboldt turli xil tadqiqot va izlanishlar amalga oshirgan. Turli tillardagi aynan bir tushunchani - fikrni o'z ma'nosida, xuddi o'zidek ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini izlagan. Uning fikricha, inson hayotida lisoniy va aqliy faoliyatida til va tafakkur bevosita va bilvosita aloqada yashaydi.

Kognitiv yondashuvning paydo bo'lishi Jorj Miller va Filipp Jonson larning mashhur asari “ Til va idrok” (1976) kitobidan dan keyin yuzaga keldi. Ular aslida o'z oldilariga boshqa maqsadni “psixoleksikologiya “ fanini kashf etmoqchi bo'lishadi. Ammo bu g'oyaning kelajagi uzoqqa bormadi. Ular o'z asarlarida ko'targan fikriy izchillikning tub zamirida o'zlari anglamagan holda kognitiv tilshunoslik ildizlari shakllangan edi. Asardagi taklif qilingan g'oyalar til va idrokning bir xil xususiyatlarga ega ammo turlicha bo'lgan jihatlari, bilish va til xarakteri bilan bog'liq masalalarni aniqlashga qaratilgan edi.

Rasman, kognitiv tilshunoslikning asoschilari amerikalik tilshunos olimlar J. Lakoff, Jonson (1980), R. Langaker (1987), R. Jakobson (1983), Leonard Talmy lar hisoblanadi.

Tilshunoslikda yangi paydo bo'lgan kognitizm tushunchasi mana shu aloqani o'rganadigan, tahlil qiladigan soha. Bunda til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishning yangi bosqichi ko'rib chiqiladi. Inson tajribasi - uning tafakkuri tilda muqimdir, til esa - bu kognitiv mexanizm hisoblanadi. Rus tadqiqotchilarining fikr - mulohazalariga tayangan holda aytishimiz mumkin, til faoliyati inson miyasida sodir bo'lishi, til faoliyatining har xil turlari (tilni o'zlashtirish, tinglash, o'qish, yozish, gapirish va boshqalar miyaning turli qismlari bilan bog'liqligi bilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tafakkur umuminsoniy bo'lsa, til esa milliy qonun-qoidalar xarakteriga ega. Dunyo tillari juda ko'p qomum va qoidalarga ko'ra farqlansa, tafakkur tamoyillari esa irq, din, millat jihatidan farqlanadi. Tilshunoslikdagi kognitizm atamasi yangi tilshunoslik davrida til va tafakkurning tadqiqot etishning, o'rganishning yangicha uslubda isloh etadi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi - insonni bilish darajasi va bilimlarini ongida rivojlantirish, umuman, til tizimining bilish jarayonida ishtirokini o'rganishdan iborat.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXARI :**

- 1.. Fauconnier G., Turner M. Compression and Global Insight // Cognitive Linguistics.–2000.Vol.11.
2. Geeraerts D., Cuyckens H. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics – Oxford: Oxford University Press: 2007 – p 238.
3. George Lakoff and Mark Johnson. – Metaphors we live by.–London, Chicago: University Press, 2003 – p 49.
4. Internet sources Langacker R. Cognitive Grammar: A Basic Introduction.Boston: Oxford University Press, –2008.
- 5.Nosirjon U. Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent.Barkamol fayz-media,2016



---

**Research Science and  
Innovation House**



## Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni vazifalari.

**N.X.Yusupova**

**Farg'ona politexnika instituti**

[nafisayusupova142@gmail.com](mailto:nafisayusupova142@gmail.com)

*Tel: 911282562*

**Anatatsiya.** Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ishlamoqchi bo'lgan pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llash jarayoni-ga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish: ta'lim (tarbiya) jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish, ta'lim (tarbiya) jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgi-lash, ta'lim (tarbiya) jarayoni mohiyatini bashoratlash (taxmin qilish) va uning samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, usul hamda texnik vositalarni tanlash, ta'lim jarayonida talabaning er-kin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash, talabalar faoliyatini yo'naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish bilan bog'liq individual maslahatlar berish, seminarlar, treninglar, ko'rgazmali darslar tashkil etish;

**Kalit so'zlar::** zamonaviy ta'lim, texnologiyalar

(tarbiya) jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgi-lash, ta'lim (tarbiya) jarayoni mohiyatini bashoratlash (taxmin qilish) va uning samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, usul hamda texnik vositalarni tanlash, ta'lim jarayonida talabaning er-kin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash, talabalar faoliyatini yo'naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish bilan bog'liq individual maslahatlar berish, seminarlar, treninglar, ko'rgazmali darslar tashkil etish;

Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish va ularni qo'llashda quyidagi vazifalar belgilanadi va hal etiladi:

– pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish – ma'ruza, adabiyotlar tavsiya etish;



– zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlashni xohlovchi fidoyi o‘qituvchilarni aniqlash. Ular orqali pedagog-o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan ko‘zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish;

– zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida ishlamoqchi bo‘lgan pedagog-o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llash jarayoni-ga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish: ta‘lim (tarbiya) jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish, ta‘lim (tarbiya) jarayonida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgi-lash, ta‘lim (tarbiya) jarayoni mohiyatini bashoratlash (taxmin qilish) va uning samaradorligini ta‘minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, usul hamda texnik vositalarni tanlash, ta‘lim jarayonida talabaning er-kin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma‘lum ko‘nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o‘rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash, talabalar faoliyatini yo‘naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish bilan bog‘liq individual maslahatlar berish, seminarlar, treninglar, ko‘rgazmali darslar tashkil etish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi pedagog-o‘qituvchilarning ta‘lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorligini baholashning ishonarliligini ta‘minlash uchun uning moni-toringini olib borish, kuzatuv va tahlillar o‘tkazish, metodik yordamlar ko‘rsatish va ularning hisobotlarini eshitib borish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi pedagog-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyihasini mashg‘ulotlar jarayonida sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ishlashning af-zalliklarini innovator o‘qituvchilarni kafedra yig‘ilishlaridagi ilmiy-uslubiy seminarlarda, oliy o‘quv yurtlari ilmiy kengashlarida chiqishlarini tashkil etib, pedagogik jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash;

– oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ishlovchi innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlar zarur didaktik va metodik materiallar, texnika vositalari bilan ta‘minlanishi zarur;

– pedagogik texnologiyalar va undan ta‘lim jarayonida foydalanish bo-rasidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan ilg‘or pedagog-o‘qituv-chilardan innovator pedagogik jamoani shakllantirish va h.k.

Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va raqobatbardosh malakali mutaxassislarni tarbiyalashga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov, M., & Rustamova, S. (2019). The Task of Koshi for ordinary differential equation of first order which refer to equation of Bernoulli. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(1), 13-16.

2. Kosimova, M. Y., Yusupova, N. X., & Kosimova, S. T. (2021). Бернулли тенгласига келтирилиб ечиладиган иккинчи тартибли оддий дифференциал тенглама учун учинчи чегаравий масала. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 406-415.

3. Қосимова, М. Я., Юсупова, Н. Х., & Қосимова, С. Т. (2021). БЕРНУЛЛИ ТЕНГЛАМАСИГА КЕЛТИРИЛИБ ЕЧИЛАДИГАН ИККИНЧИ ТАРТИБЛИ ОДДИЙ ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТЕНГЛАМА УЧУН УЧИНЧИ ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА.

4. Qosimova, M. Y., Yusupova, N. X., & Qosimova, S. T. (2021). On the uniqueness of the solution of a two-point second boundary value problem for a second-order simple differential equation solved by the bernoulli equation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 969-973.

5. Azizov, M. S., & Rustamova, S. T. (2017). Yuqori tartibli differensial tenglamalarni bernulli tenglamasiga keltirib yechish. *Toshkent shahridagi turin politexnika universiteti*, 61.

6. Kosimova, M. Y. (2022). Talabalarni ta'lim sifatini oshirishda fanlararo uzviylikidan foydalanish. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(2), 57-64.

7. Yakubjanovna, Q. M. (2022). Some Methodological Features of Teaching the Subject «Higher Mathematics» in Higher Educational Institutions. *Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics*, 4, 62-65.





8. Qosimova, M. Y., & Yusupova, N. X. (2020). On a property of fractional integro-differentiation operators in the kernel of which the meyer function. *Scientific-technical journal*, 24(4), 48-50.

9. Kosimova, M. Y., & Kh, Y. N. Solving higher-order differential equations using the method of order reduction. *Chief Editor*.

10. Tojiboyev, B. T., & Yusupova, N. X. (2021). Suyuq kompozitsion issiqlik izolyatsiyalovchi qoplamalari va ularning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisientini aniqlash usullari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 517-526.

11. Tojiboyev, B. T., & Yusupova, N. X. (2022). Innovatsion texnologiyalar asosida mahalliy xom ashyolardan issiqlikni saqlovchi materiallarni yaratish va tadbiq etish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 95-105.

12. Yusupova, N. X., & Nomoanjonova, D. B. (2022). Innovative technologies and their significance. *Central asian journal of mathematical theory and computer sciences*, 3(7), 11-16.

13. Yusupova, N. X. (2021). The role of tests in determining the mathematical ability of students. *Central Asian Journal Of Mathematical Theory And Computer Sciences*, 2(12), 25-28.

14. Yusupova, N. K., & Abduolimova, M. Q. (2022). Use fun games to teach geometry. *Central asian journal of mathematical theory and computer sciences*, 3(7), 58-60.

15. Yusupova, N. X. (2022). Use of interesting games in teaching mathematics. *Central asian journal of mathematical theory and computer sciences*, 3(7), 7-10.

16. Abdug'opporovich, Y. A., & Muxammadjonovich, B. O. (2021). The role of physical education and sports in the formation of a healthy lifestyle in the family. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(10), 48-51.

## TEXNIKA FANLARI TA'LIMIDA INTERFAOL TEXNIK VOSITALAR VA ULARNING TAHLILI

**M.Y.Qosimova**

Farg'ona Politexnika instituti

[qosimovamaxbubaxon22@gmail.com](mailto:qosimovamaxbubaxon22@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar yo'nalishiga bag'ishlangan bo'lib, unda turli sohalarda dars beruvchi professor-o'qituvchilar uchun dars berishning bir qancha interfaol uslubda bo'lgan zamonaviy usullari hamda dasturiy-texnik vositalarining imkoniyatlari yoritildi. Yoritilgan interfaol muloqot tizimlari dars davomida talabalar bilan bevosita ulqot qilishning zamonaviy dasturiy-texnik vositalari bo'lib, ular vositasida o'qituvchi va talabalar (tinglovchilar) orasida real vaqt rejimida to'g'ridan-to'g'ri axborot almashinuvi amalga oshiriladi.

**Tayanch so'zlar:** Kompyuter va mobil qo'rilmalar, Activeboard, Interaktiv doska, USB kabel, elektron qalam, dasturiy ta'minot, Interfaol qurilma, magnitli doska, marker doskasi, sinf doskasi, videofragmentlar, tasvirlar, chizmalar, Overhed-proektor, Portativli overhed-proektorlari.

**Kirish.** Kompyuter va mobil qo'rilmalar bilan birgalikda, ta'lim jarayonida zamonaviy (interfaol) o'qitish texnik vositalari keng qo'llanib kelinmoqda. Interfaol vositalar yordamida, yangi mavzuni o'rganishda, talabalar bilimni mustahkamlashda va tekshirishda, grafika, tovush va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha yaratilgan mul'timedia maxsulotlaridan maksimal darajada unumli foydalanish mumkin. Bunda bilim olish jarayoni qiziqarli va kreativ tus oladi. Quyida zamonaviy o'qitish texnik vositalarini o'rganib chiqamiz.

**Metodlar.** Activeboard (interfaol doska) bu – kompyuter va proektor bilan birgalikda ishlaydigan ta'lim berishning zamonaviy texnik vositasidir. Interaktiv doska tarkibiga interaktiv doskaning o'zidan tashqari maxsus elektron qalam (stilus), dasturiy ta'minot vositalari (interaktiv doskaning drayveri va maxsus grafik muharrir) hamda USB kabel kiradi.

Tegishli sozlash amallari bajarilib interaktiv doska ishchi holatga keltirilgach, proektor yordamida interaktiv doska yuzasiga tushirilayotgan tasvirlar



bilan interfaol usulda ishlash mumkin. Ya'ni, elektron qalam yordamida kompyuterning grafik interfeysini boshqarish, turli ob'ektlarni yaratish, oldin yaratilgan ob'ektlarni ochish, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish mumkin. Kiritilgan barcha o'zgartirishlar va yaratilgan yangi ob'ektlarni, ularga kelgusida qo'shimcha ishlov berish uchun kompyuter xotirasiga yozib qo'yish yoki tashqi axborot tash vchi vositalarga ko'chirib olish mumkin. Interfaol doska maxsus elektron qalam orqali, shuningdek qo'l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin, bu interfaol doskaning qaysi texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilganligiga bog'liq bo'ladi. Bunda, maxsus elektron qalam yoki qo'l barmoqlari kompyuter sichqonchasi kabi ishlaydi.

Interfaol qurilma – bu proeksion doskaga (magnitli doska, marker doskasi, sinf doskasi, sinf devori) yoki proektorning o'ziga o'rnatiladigan va har qanday tekis, silliq ishchi yuzani interaktiv holatga keltiradigan elektron qurilmadir. Ular uchun alohida maxsus doska talab etmaydi.

Interaktiv qurilmalar tarkibiga qurilmaning o'zi, ya'ni maxsus elektron qalamdan chiqayotgan signalni qabul qiluvchi moslama, ushbu qabul qiluvchi moslamaga infraqizil yoki ultratovushli signallarni yuboruvchi elektron qalam, interaktiv qurilma va kompyuterning o'zaro aloqasini ta'minlovchi USB kabelyoki simsiz qabul qilgich uskunasi, dasturiy ta'minot vositalari kiradi. Ular infraqizil yoki ultratovushli texnologiyalar asosida ishlaydi. Interaktiv qurilmalar bajaradigan vazifasiga ko'ra interaktiv doskalarga to'liq mos keladi.

Lekin, ulardan farqli ravishda mobil qurilma hisoblanadi. Ixcham va yengil bo'lganligi uchun ularni bir xonadan ikkinchisiga olib o'tib o'rnatish mumkin, bu o'z navbatida bunday qurilmalardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Darsdan keyin esa interaktiv qurilmani yig'ishtirib mas'ul xodimga topshirish yoki o'qituvchilar xonasidagi belgilangan maxsus joyga olib qo'yish mumkin.

Interaktiv qurilmalar kompyuterga to'g'ridan-tog'ri USB kabel orqali yoki simsiz qabul qilgich uskunasi yordamida ulanishi mumkin. Interaktiv rejimda, o'qituvchi, huddi interaktiv doskadagi kabi keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. hususan:

- kompyuterni doska oldida turib boshqarish imkoniyati: Microsoft Office dasturlari bilan ishlash, dars jarayonini oldindan tayyorlangan taqdimotlar, videofragmentlar, tasvirlar, chizmalar bilan nomoyish etish;

- interaktiv qurilma dasturiy ta'minotining uskunalar yordamida ekrandagi



tasvir ustiga yoki yangi varaq (slyd) ustiga chizish, bo'yash, rasm solish, yozish, tayyor ob'ektni o'rnatish, ob'ektlarni kattalashtirish, kichiraytirish, boshqa joyga ko'chirish, ma'lum bir qismini belgilash imkoniyatlari;

- doskada bajarilgan ishlarni fayl ko'rinishida kompyuter xotirasida saqlash yoki doskada amalga oshirilayotgan barcha jarayonlarni videofayl formatida yozib olish;

- o'zining shaxsiy interaktiv dars ishlanmalarini yaratish, bunda interaktiv qurilmaning dasturiy ta'minot kutubxonasidagi mavjud shablon va tasvirlardan foydalanish;

- interaktiv qurilmaning dasturiy ta'minoti tarkibiga kiruvchi tasvirlar kutubxonasini o'zi tayyorlagan yangi materiallar bilan boyitib borishi va boshqa imkoniyatlar.

ActiveTable (interfaol stol) – o'z aktiv yuzasiga ega qurilma sanaladi. Unga foydalanuvchi talabidan kelib chiqib dasturiy ta'minotlarni yuklab olish mumkin. Bu ta'lim olish, ta'lim berish va turli xil tadbirlar uchun zamonaviy uskunadir. Bu uskuna kishilarda kuchli va qiziq shaklda aks ettirilgani tufayli kuchli taassurot tug'diradi. Bu stolni didga ko'ra 32 dan 55 dyungacha razmerlarda tanlash mumkin. Interaktiv stolning barcha turlari aviatsion alyuminiydan qilinadi va sensorli yuza 6 mm qalinlikdagi shisha bilan qoplanadi.

Interfaol proektor - bu o'zida interaktiv doskaning imkoniyatlarini mujassam etga proyektordir. Bunday proektorlar uchun alohida maxsus doska sotib olish talab etilmaydi, tasvirlar proyeksiyasi oddiy sinf doskasiga marker doskasiga yoki sinf devoriga ham tushirilishi mumkin. Oddiy proektorlardan farqli ravishda interaktiv proektorlar kompyuterlardan tegishli signallarni qabul qilib tasvirlarni ekranga namoyish qilish bilan bir qatorda, electron qalamning ekrandagi joriy holati va harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham aniqlab kompyuterga yuboradi va kompyuter bilan ikki tomonlama aloqani o'rnatadi.

Overhed-proektor - A4 formatli shaffof plenkalarga qayd etilgan tasvirlarni yoritib berishda foydalaniladi. Oqirligi va hajmiga qarab, apparatlar portativ, yarim-portativli va ko'zg'almas modellarga bo'linadi. Portativli overhed-proektorlari 7 kg oshmaydigan yig'ma tuzilishga ega. Odatda, bunday modeldagilar oson yig'ilishi bilan juda qulay bo'lib, ko'chirish uchun maxsus jamlanish sumkachalar to'plamiga ega.

Hujjat kameralar uncha katta bo'lmagan, vizual tasvirni yoritib beruvchi



fotosurat, slydlar, hujjatlarni asl nusxasini elektron tasvirini tez fursat ichida namoyon qilib beruvchi oddiy qurilma.

**Natija.** Kompyuter va mobil qo‘rilmalar bilan birgalikda, ta’lim jarayonida zamonaviy (interfaol) o‘qitish texnik vositalari keng qo‘llanish natijasida professor o‘qituvchilar hamda talabalar(tinglovchilar) uchun dars jarayonini tashkillash hamda tushunish jarayonini birmuncha osonlashtirib kelmoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Interaktiv kitoblar, elektron o‘quv qo‘llanmalari va masofaviy ta’lim tizimlarni yaratib, ularni ishga tushirganlarni yaxshilab moddiy va ma’naviy taqdirlash ham ularning sifati va soni o‘shirishga ta’sir qilgan bo‘lar edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizov, M., & Rustamova, S. (2019). The Task of Koshi for ordinary differential equation of first order which refer to equation of Bernoulli. Scientific journal of the Fergana State University, 2(1), 13-16.

2. Kosimova, M. Y., Yusupova, N. X., & Kosimova, S. T. (2021). Бернулли тенгламасига келтирилиб ечиладиган иккинчи тартибли оддий дифференциал тенглама учун учинчи чегаравий масала. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 406-415.

3. Қосимова, М. Я., Юсупова, Н. Х., & Қосимова, С. Т. (2021). БЕРНУЛЛИ ТЕНГЛАМАСИГА КЕЛТИРИЛИБ ЕЧИЛАДИГАН ИККИНЧИ ТАРТИБЛИ ОДДИЙ ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТЕНГЛАМА УЧУН УЧИНЧИ ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА.

4. Qosimova, M. Y., Yusupova, N. X., & Qosimova, S. T. (2021). On the uniqueness of the solution of a two-point second boundary value problem for a second-order simple differential equation solved by the bernoulli equation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 969-973.

5. Azizov, M. S., & Rustamova, S. T. (2017). Yuqori tartibli differensial tenglamalarni bernoulli tenglamasiga keltirib yechish. Toshkent shahridagi turin politexnika universiteti, 61.

6. Kosimova, M. Y. (2022). Talabalarni ta’lim sifatini oshirishda fanlararo uzviyligidan foydalanish. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(2), 57-64.

7. Yakubjanovna, Q. M. (2022). Some Methodological Features of Teaching the Subject «Higher Mathematics» in Higher Educational Institutions. Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics, 4, 62-65.

8. Qosimova, M. Y., & Yusupova, N. X. (2020). On a property of fractional integro-differentiation operators in the kernel of which the meyer function. Scientific-technical journal, 24(4), 48-50.

9. Kosimova, M. Y., & Kh, Y. N. Solving higher-order differential equations using the method of order reduction. Chief Editor.

10. Tojiboyev, B. T., & Yusupova, N. X. (2021). Suyuq kompozitsion issiqlik izolyatsiyalovchi qoplamalari va ularning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisientini aniqlash usullari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 517-526.

11. Tojiboyev, B. T., & Yusupova, N. X. (2022). Innovatsion texnologiyalar asosida mahalliy xom ashyolardan issiqlikni saqlovchi materiallarni yaratish va tadbqiq etish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 95-105.

12. Yusupova, N. X., & Nomoanjonova, D. B. (2022). Innovative technologies and their significance. Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 3(7), 11-16.

13. Yusupova, N. X. (2021). The role of tests in determining the mathematical ability of students. Central Asian Journal Of Mathematical Theory And Computer Sciences, 2(12), 25-28.

14. Yusupova, N. K., & Abduolimova, M. Q. (2022). Use fun games to teach geometry. Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 3(7), 58-60.

15. Yusupova, N. X. (2022). Use of interesting games in teaching mathematics. Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 3(7), 7-10.

16. Abdug'opporovich, Y. A., & Muxammadjonovich, B. O. (2021). The role of physical education and sports in the formation of a healthy lifestyle in the family. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(10), 48-51.



## TEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

S.T.Qosimova

Farg'ona politexnika instituti

[rustamovasayohat027@gmail.com](mailto:rustamovasayohat027@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada texnika fanlarini o'qitishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanishni ahamiyati va samarasi haqida so'z yuritilgan. Yoritilgan metodlar bilan dars davomida talabalar bilan bevosita ulqot qilishning zamonaviy dasturiy-texnik vositalari bo'lib, ular vositasida o'qituvchi va talabalar (tinglovchilar) orasida real vaqt rejimida to'g'ridan-to'g'ri axborot almashinuvi amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi, talaba, muammoli vaziyat, metod, muammoli ta'lim, ishonch, xurmat, ta'lim, mustaqil.

**Kirish.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi ongiga yetkazish, yodga olish, yodda saqlash, qayta yodga tushirish, so'zlab berish, fikrni yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini anglatadi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida talabalardan olgan bilimlarini amalda tatbiq etish, ma'lum natijalarni qo'lga kiritish, to'ldirish, boyitish, o'zgartirish, o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lish talab etiladi. Bu o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

**Metodlar.** Muammoli ta'limning kelib chiqishi.

Muammoli ta'lim 1969 yilda Kanadaning Makmaster universitetida joriy qilingan o'rganish usulidir. Keyinchalik bu usul menejment, muhandislik, qishloq xo'jaligi va huquq kabi turli fanlarda keng qo'llanila boshlandi. Govard Barrouz bu usulni dastlabki bosqichda boshlagan akademiklardan biri edi. Barrows va boshqalar. (1980) ta'kidlaganidek, bu usul kundalik hayot muammolarini hal



qilishda foydali bo'lgan o'quv faoliyatiga qaratilgan. U haqiqiy muammolarga e'tibor qaratadi va o'quvchilarga haqiqiy hayot vaziyatini tushunishga yordam beradi (Allen va boshq., 2011). Bu usul, shuningdek, o'quvchiga yo'naltirilgan namunaviy dars vazifasini ham bajaradi. Muammoli ta'lim usuli kontseptsiyasi tajribaga asoslangan ta'limga urg'u beradigan Kolb nazariyasi, Piaget nazariyasi, konstruktivizm va ijtimoiy o'rganishga qaratilgan Vgotskiy, Lave va Venger, shuningdek, aks ettirish jarayoniga e'tibor qaratuvchi Shon nazariyasi kabi boshqa ta'lim nazariyalarining natijasidir. (Sadlo, 2007). Ushbu uchta nazariyaning kombinatsiyasi muammoli ta'lim modelini tashkil qiladi. Bu usul, shuningdek, o'quvchilarga fikrlash va mustaqil ta'limni amalga oshirish imkoniyatini beradigan ta'lim shakli sifatida ham tanilgan. Kitsantas (2013) ta'kidlashicha, bu usul o'quvchilarga turli xil o'quv resurslaridan foydalangan holda taqdim etilgan muammolar yoki muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ta'lim kontekstida o'qituvchilar o'quvchilarga ularni hal qilish uchun yo'l-yo'riq va tegishli muammolarni taqdim etish orqali yordamchi rol o'ynaydi. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar faol ravishda izlanishlari va o'qituvchi tomonidan berilgan muammolarni hal qilishda muhim bo'lgan boshqa muqobil yechimlarni o'ylab ko'rishlari kerak (Hmelo-Silver, Duncan va Chinn, 2007).. Shuningdek, o'qituvchilardan darslarni to'g'ri rejalashtirish va aniq o'quv maqsadlarini belgilash talab qilinadi. Bu muammo yoki muammolarni o'quvchilar tomonidan hal qilinishini ta'minlash uchundir. Grant (2011) ta'kidlaganidek, bu usul ham o'quvchilarning o'qishga bo'lgan intilishini oshirishga qodir. Buning sababi shundaki, yondashuv jamoaviy faoliyatga, guruh a'zolari o'rtasida yaxshi muloqotga, muammolarni o'rganishga va muammo yoki muammolarni hal qilish uchun ma'lumot izlashga qaratilgan. Bundan tashqari, o'quvchilar o'zlari o'rganishlari uchun javobgardirlar va ular ushbu muammoni hal qilish uchun guruh a'zolari o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashlari kerak. Shu bilan birga, Muammoli ta'lim o'quvchilarga o'z ta'lim vaqtlarini oqilona boshqarishga yordam beradi, chunki ular Grant (2011) tomonidan tavsiya etilgan ma'lum vaqt asosida berilgan topshiriqni bajarishlari kerak.. Shunday qilib, Piaget (1983) ushbu uslubni sinfda qo'llashda ba'zi asosiy elementlarni taklif qildi, ular:

- 1) Talabalarga o'z ta'limini rejalashtirishda mas'uliyat yuklanadi.
- 2) Muammo bu usulda asosiy kalit hisoblanadi.





- 3) O'qituvchilar fasilitator sifatida ishlaydi.
- 4) O'quvchilar mulohaza yuritishlari kerak.
- 5) Muammoni hal qilish jarayonida o'quvchilar nimanidir o'rganishlari kerak.

Bundan tashqari, Graff va Kolmos (2003) ushbu usulda to'qqizta asosiy tamoyilni sanab o'tdilar:

- 1) Muammo asosiy element hisoblanadi.
- 2) Talabaga yo'naltirilgan ta'lim.
- 3) O'qituvchilar o'quvchilarning haqiqiy hayoti bilan bog'liq muammolarni yaratishda rol o'ynaydi.
- 4) Muammo kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak.
- 5) Muammoni hal qilish jarayonida o'quvchilar qiziqish bildiradilar.
- 6) Bu metodning negizi o'quv faoliyatidir.
- 7) O'quvchilarning mavzuni tushunish foizi yuqoriroq.
- 8) Guruh a'zolari o'rtasidagi hamkorlik.
- 9) Faol va reflektiv ta'lim shakli.

Muammoli ta'limning kelib chiqishini muhokama qilishda Boud va Feletti (1997) shunday dedilar: Muammoli ta'lim bugungi kunda ma'lum bo'lganidek, 40 yil oldin Shimoliy Amerikada sog'liqni saqlash fanlari bo'yicha innovatsion o'quv dasturlari asosida kiritilgan. Tibbiyot ta'limi, asosiy fan ma'ruzalarining intensiv namunasi va bir xil darajada to'liq klinik o'qitish dasturi bilan, tibbiy ma'lumotlar va yangi texnologiyalarning porlashi va kelajakdagi amaliyotning tez o'zgaruvchan talablarini hisobga olgan holda, talabalarni tayyorlashning samarasiz va g'ayriinsoniy usuliga aylantirdi. Kanadadagi Makmaster universitetining tibbiyot fakulteti o'quv jarayonini nafaqat o'ziga xos o'qitish usuli (Barrows & Tamblyn, 1980), balki talabalarga yo'naltirilgan, ko'p tarmoqli ta'lim va umrbod ta'limni targ'ib



qiluvchi butun o'quv dasturini tuzish uchun falsafasining markaziy qismi sifatida joriy etdi.

**Natija.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi ongiga yetkazish, yodga olish, yodda saqlash, qayta yodga tushirish, so'zlab berish, fikrni yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini anglatadi. Natijada talabalar muammoli ta'lim jarayonida yuqorida keltirilgan misollarni amalga tadbqiq qilish orqali o'zi o'zlashtirayotgan fanni chuqur o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Для достижения качества при ландшафтно-рекреационной организации жилой территории следует соблюдать следующую последовательность этапов ландшафтно-рекреационной организации жилых помещений:

- на пред проектом этапе провести анализ организации строительства и социально-демографической структуры населения (дети, молодежь, взрослые и пожилые люди), учитывать плотность населения, характеристику пространственной организации строительства, потребности в видах и формах отдыха, характер природных условий, санитарно-гигиеническую характеристику проектируемых территорий и особенности маятниковых миграций на территории строительства;
- ландшафтно-рекреационное зонирование территории по видам и критериям отдыха на стадии проектирования и элементы ландшафта – зоны отдыха, водные объекты, растительность и малая архитектура должна проводиться архитектурно-планировочная организация форм.



Организация озеленения растений должна происходить с учетом функциональных, санитарно-гигиенических и эстетических факторов организации среды открытых пространств и возможности использования традиционных особенностей ландшафтной организации.

Архитектурно-ландшафтная организация территории жилой застройки должна формироваться с учетом создания максимально комфортной функционально-пространственной и ландшафтно-рекреационной среды жилых помещений. Ландшафтно-рекреационная организация указанных пространств предусматривает зонирование территории по видам активного и спокойного отдыха детей, молодежи, взрослых и пожилых людей, а также микроклиматические, санитарно-гигиенические и эстетические требования, определяющие психофизиологическую комфортность отдыха населения, наличие открытых и затененных пространств и элементов ландшафта (древесно-кустарниковых, это должно происходить с учетом рационального отношения к почвопокровным растениям, водным устройствам и малым архитектурным формам).

Оптимальным вариантом функционально-пространственной организации жилого строительства является модель, созданная по принципу иерархии открытых пространств и их взаимосвязи. Здесь функционально – пространственная среда организована таким образом, чтобы у жителей была возможность для индивидуального отдыха – первичного приусадебного пространства, для совместного отдыха-отдыха в социальном пространстве первичных жилых групп и жилищной структуры.

#### **Список использованной литературы (источников).**

1. K.D.Raximov, A.S.Uralov “Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash” «Sano-standart» nashriyoti Toshkent—2015.
2. В.Л. Машинский, Е.Г. Залогина «Проектирование озеленения жилых районов», Москва.
3. A.S. Uralov, L.A. Adilova “Landshaft arxitekturasi” Toshkent-2014.
4. Toshpolatova, B. R., & Nurmatov, D. O. (2021). Combination of landscape compositions with architectural styles. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(12), 1-7.

5. Z.H. Adilov “O’zbekiston shaharlari Landshaft muhiti dizaynini kompleks tashkil etish”, monografiya. Toshkent-2021.

6. Nurmatov, D. O. U., Juraboyev, A. T. U., & Toshpulatova, B. R. (2022). Zamonaviy shaharsozlik nazariyasida transport va uning landshaftini rivojlanishini dolzarb vazifalari va hususiyatlari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(2), 98-106.

7. Nurmatov, D. O. (2023). Katta shahar va tumanlarda bog ‘-parklarni tashkil qilishning talablari va ahamiyati: katta shahar va tumanlarda bog ‘-parklarni tashkil qilishning talablari va ahamiyati.

8. Urmonov, B. I., Qosimov, S. R., & Nurmatov, D. O. (2022). Priorities for the development of bim technology in urban planning. International Journal of Advance Scientific Research, 2(05), 38-43.



---

Research Science and  
Innovation House

## TIJORAT BANKLARIDA BANK KAPITALI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

## УЛУЧШЕНИЕ БАНКОВСКОГО СЧЕТА КАПИТАЛА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

## IMPROVING BANK CAPITAL ACCOUNTING IN COMMERCIAL BANKS

**Qodirova Zilola Mahmud qizi**

Bank-moliya akademiyasi

Magistratura talabasi

[zilolaqodirova2704@gmail.com](mailto:zilolaqodirova2704@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tijorat banklarida bank kapitalini hisobga olishni takomillashtirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot maqsadi bank kapitali hisobini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot usullari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bank kapitalini hisobga olishni takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va risklar darajasini pasaytirishga yordam beradi. Maqolada bank nazorati va tartibga solish organlarining roli, xalqaro standartlarning ahamiyati va bank kapitalini boshqarishning zamonaviy usullari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, bank kapitali, kapital hisobi, moliyaviy barqarorlik, bank nazorati, xalqaro standartlar

**Аннотация:** Данная статья посвящена актуальным вопросам совершенствования учета банковского капитала в коммерческих банках. Целью исследования является разработка рекомендаций по совершенствованию банковского счета операций с капиталом. В качестве методов исследования использовались анализ научной литературы, изучение и обобщение статистических данных. Результаты показывают, что совершенствование учета банковского капитала способствует повышению финансовой устойчивости банков и снижению уровня рисков. В статье

рассматривается роль органов банковского надзора и регулирования, значение международных стандартов и современных методов управления капиталом банка.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, банковский капитал, счет операций с капиталом, финансовая стабильность, банковский надзор, международные стандарты

**Abstract:** This article is devoted to topical issues of improving the accounting of bank capital in commercial banks. The purpose of the study is to develop recommendations for improving bank capital accounting. As research methods, the analysis of scientific literature, the study and generalization of statistical data were used. The results show that improving bank capital accounting helps to increase the financial stability of banks and reduce the level of risks. The article discusses the role of banking supervision and regulatory bodies, the importance of international standards and modern methods of managing bank capital.

**Keywords:** commercial banks, bank capital, capital accounting, financial stability, banking supervision, international standards

### KIRISH

Tijorat banklarining faoliyatida bank kapitalining roli juda muhimdir. Bank kapitali bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, risklar darajasini boshqarish va moliyaviy inqiroz sharoitida yo'qotishlarni qoplash uchun ishlatiladi [1]. Bank kapitalining yetarli darajada bo'lishi va uning hisobini to'g'ri yuritish banklarning samarali faoliyat yuritishi uchun zarurdir.

Bank kapitalini hisobga olish va boshqarish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Berger va Bouwman [2] bank kapitali va likvidlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganan bo'lsa, Dewatripont va Tirole [3] bank kapitalining optimallashtirish masalalarini tadqiq etgan. Diamond va Rajan [4] esa bank kapitalining kredit risklarini boshqarishdagi rolini ko'rib chiqqan.

Shu bilan birga, bank kapitalini hisobga olish va boshqarish amaliyotida bir qator muammolar mavjud. Ularning orasida banklarning kapitallashtirish darajasini oshirish, kapital hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va risklar darajasini to'g'ri baholash kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda [5, 6].



Ushbu maqolaning maqsadi tijorat banklarida bank kapitalini hisobga olishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bank sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun bank kapitalini hisobga olish va boshqarishning samarali tizimini yaratish zarur.

### USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili va statistik ma'lumotlarni o'rganish usullari qo'llanildi. Bank kapitali haqidagi nazariy qarashlar va empirik tadqiqot natijalari o'rganildi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlarining bank kapitalini tartibga solish bo'yicha tavsiylari tahlil qilindi.

Bank kapitali tushunchasi va uning tarkibiy qismlari bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar bank kapitalini faqat bankning o'z mablag'lari sifatida qarasalar [7], boshqalari esa unga bankning jalb qilingan va qarz mablag'larini ham kiritadilar [8]. Ushbu tadqiqotda bank kapitali bankning o'z mablag'lari va uzoq muddatli qarz majburiyatlarini o'z ichiga oluvchi kengroq tushuncha sifatida qaraladi.

Bank kapitalining yetarlilik darajasini aniqlash uchun turli xil ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ularning orasida kapitalning aktivlarga nisbati, Tier 1 kapitali, regulyativ kapital kabi ko'rsatkichlar keng tarqalgan [9]. Ushbu tadqiqotda bank kapitalining yetarlilik darajasini baholashda Basel III standartlariga mos keladigan ko'rsatkichlar tizimi qo'llanildi.

Bank kapitalini boshqarish va risklar darajasini baholash masalalari ham tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Bessis [10] bank kapitalini boshqarishda risklar darajasini hisobga olish va stress-testlar o'tkazish ahamiyatini ta'kidlaydi. Tadqiqot jarayonida ushbu yondashuvlardan foydalanildi va ularning Uzbekiston tijorat banklari amaliyotida qo'llanilishi imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

### NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Uzbekistonda bank kapitalini hisobga olishning mavjud tizimi xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaydi. Ba'zi tijorat banklarida kapital yetarlilik darajasi past bo'lib, bu ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Uzbekistondagi tijorat banklarining o'rtacha regulyativ kapital yetarlilik darajasi 23.6% ni tashkil etgan [2]. Bu ko'rsatkich Basel III standartlarida talab qilinadigan 10.5% dan yuqori bo'lsa-da, ba'zi banklarda kapital yetarlilik darajasi talab darajasidan past.



Tadqiqot davomida bank kapitalini hisobga olishni takomillashtirish bo'yicha bir qator muammolar aniqlandi:

**Bank kapitalining tarkibiy qismlarini aniqlashda yagona yondashuvning mavjud emasligi.** Ba'zi banklar kapitalga faqat ustav kapitalini kiritisa, boshqalari esa uzoq muddatli qarz majburiyatlarini ham kapital sifatida hisobga oladi.

**Kapital yetarliligini hisoblashda risklar darajasini to'liq hisobga olmaslik.** Ayrim banklar yuqori riskli aktivlarni kapital yetarliligini hisoblashda to'liq hisobga olmaydi, bu esa kapital yetarlilik darajasining sun'iy ravishda yuqori bo'lishiga olib keladi.

**Bank kapitalini stress-testlardan o'tkazish amaliyotining yetarli darajada rivojlanmaganligi.** Ko'plab banklar stress-testlarni muntazam ravishda o'tkazmaydi yoki ularning natijalari bank kapitalini boshqarishda to'liq hisobga olinmaydi.

**Bank nazorati organlarining kapital yetarliligini baholash va nazorat qilish bo'yicha vakolatlarining cheklanganligi.** Markaziy bank va boshqa nazorat organlari banklarning kapital yetarliligini baholashda va zarur choralarni ko'rishda yetarli darajada mustaqil emas.

#### TAHLIL VA MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida bank kapitali hisobini takomillashtirish zarurati mavjud. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Bank kapitalining tarkibiy qismlarini aniqlashda yagona yondashuvni joriy qilish. Barcha tijorat banklari uchun kapital tarkibini aniqlashning yagona metodologiyasini ishlab chiqish va qo'llash zarur. Bu bank kapitalining haqiqiy holatini aniq baholash imkonini beradi.

Kapital yetarliligini hisoblashda risklar darajasini to'liq hisobga olish. Banklar yuqori riskli aktivlarni kapital yetarliligini hisoblashda to'liq hisobga olishi shart. Bu kapital yetarlilik darajasining haqiqiy holatini aks ettirish imkonini beradi.

Bank kapitalini stress-testlardan o'tkazish amaliyotini rivojlantirish. Hozirgi kunda stress-testlar bank kapitalini boshqarishning muhim vositasiga aylandi. Banklar stress-testlarni muntazam ravishda o'tkazishi va ularning natijalarini bank kapitalini boshqarishda hisobga olishi zarur.

Bank nazorati organlarining kapital yetarliligini baholash va nazorat qilish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish. Markaziy bank va boshqa nazorat organlari



banklarning kapital yetarliligini mustaqil ravishda baholashi va zarur hollarda tegishli choralarni ko'rishi uchun yetarli vakolatlarga ega bo'lishi kerak.

### XULOSALAR

Bank kapitali tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va risklar darajasini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Uzbekistonda bank kapitalini hisobga olish va boshqarishning mavjud tizimi takomillashtirishga muhtoj.

Bank sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- Bank kapitalining tarkibiy qismlarini aniqlashda yagona yondashuvni joriy qilish.
- Kapital yetarliligini hisoblashda risklar darajasini to'liq hisobga olish.
- Bank kapitalini stress-testlardan o'tkazish amaliyotini rivojlantirish.
- Bank nazorati organlarining kapital yetarliligini baholash va nazorat qilish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar bank tizimining barqarorligini mustahkamlash, risklar darajasini pasaytirish va bank kapitali hisobining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Pirovard natijada, bu aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun bank xizmatlarining sifati va ishonchliligini oshirishga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berger, A. N., & Bouwman, C. H. (2013). How does capital affect bank performance during financial crises?. *Journal of Financial Economics*, 109(1), 146-176. [Berger va Bouwman, 2013]
2. Berger, A. N., & Bouwman, C. H. (2009). Bank liquidity creation. *The Review of Financial Studies*, 22(9), 3779-3837. [Berger va Bouwman, 2009]
3. Dewatripont, M., & Tirole, J. (1994). *The prudential regulation of banks*. MIT press. [Dewatripont va Tirole, 1994]
4. Diamond, D. W., & Rajan, R. G. (2000). A theory of bank capital. *The Journal of Finance*, 55(6), 2431-2465. [Diamond va Rajan, 2000]
5. Altunbas, Y., Carbo, S., Gardener, E. P., & Molyneux, P. (2007). Examining the relationships between capital, risk and efficiency in European banking. *European Financial Management*, 13(1), 49-70. [Altunbas va boshq., 2007]

6. Furfine, C. (2001). Bank portfolio allocation: The impact of capital requirements, regulatory monitoring, and economic conditions. *Journal of Financial Services Research*, 20(1), 33-56. [Furfine, 2001]
7. Gorton, G., & Winton, A. (2017). Liquidity provision, bank capital, and the macroeconomy. *Journal of Money, Credit and Banking*, 49(1), 5-37. [Gorton va Winton, 2017]
8. Mehran, H., & Thakor, A. (2011). Bank capital and value in the cross-section. *The Review of Financial Studies*, 24(4), 1019-1067. [Mehran va Thakor, 2011]
9. Elizalde, A., & Repullo, R. (2007). Economic and regulatory capital in banking: What is the difference?. *International Journal of Central Banking*, 3(3), 87-117. [Elizalde va Repullo, 2007]
10. Bessis, J. (2015). *Risk management in banking*. John Wiley & Sons. [Bessis, 2015]



---

Research Science and  
Innovation House



## GIPERGIOMETRIK FUNKSIYALARINI VA ULARNING CHEGARAVIY MASALALARI HAQIDA

VOXOBOV FAZLIDDIN FAXRIDDINJON O‘G‘LI  
QO‘QON DPI Fizika-matematika fakulteti  
Matematika kafedrası o‘qituvchisi.

**Kalit so‘zlar:** Gorn ro‘yxati; ikkinchi tartibli to‘la va konfluent gipergeometrik funksiyalar; Srivastava-Karlsson ro‘yxati; uch o‘zgaruvchili konfluent gipergeometrik funksiyalar.

Ushbu maqolada ba'zi asosiy faktlar keltirilgan. Maqolaning asosiy natijalarini taqdim etish uchun zarur bo‘lgan bir nechta o‘zgaruvchilarning gipergeometrik funksiyalari va Burchnell-Chandy operatorlari keltirilgan.

Ushbu ikki tizim o‘rtasidagi munosabat faqat ikkita o‘zgaruvchili holatda yaxshi o‘rganilgan. Hatto klassik Horn, Appell, Poxgammer va Lauricella, ko‘p o‘zgaruvchan gipergeometrik funksiyalarda ham faqat 1970 va 80-yillarda V.Miller va uning shogirdlari tomonidan differensial tenglamalarning Li algebrasini o‘rganishga urinish bo‘lgan. So‘nggi o‘ttiz yil ichida gipergeometrik funksiyalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Darhaqiqat, ma‘lumotlar bazasida gipergeometrik sarlavhali so‘zni qidirish natijasida 3181 ta maqola topiladi, ulardan 1530 tasi 1990 yildan beri nashr etilgan ushbu yangi qiziqish gipergeometrik funksiyalar va matematikaning ko‘plab sohalari o‘rtasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqadi, masalan, algebraik geometriya, kombinatorika, raqamlar nazariyasi, simmetrik aks ettirishlar va boshqalar.

Ma‘lumki, Gamma funksiyasi  $\Gamma(s)$  quyidagi integral bilan aniqlanadi:

$$\Gamma(s) = \int_0^{\infty} e^{-t} t^{s-1} dt \quad (1)$$

(1) integral  $\text{Re}(s) > 0$  yarim tekislikda golomorf funksiyani ifodalaydi va bundan

tashqari u quyidagi funksional tenglamani qanoatlantiradi.

$$\Gamma(s+1) = s\Gamma(s); \quad \text{Re}(s) > 0 \quad (2)$$

Demak,  $\Gamma(1) = 1$  bo'lgani uchun  $\Gamma(n+1) = n!$ , ( $n \in \mathbb{N}$ ) ekanligi kelib chiqadi.

$\Gamma(s)$  ni musbat bo'lmagan butun sonlarda oddiy qutblar bilan butun kompleks tekislikdagi meromorf funksiyaga kengaytirish uchun (2) dan foydalanishimiz mumkin.

Masalan,  $\{-1 < \text{Re}(s) \leq 0\}$  palasada  $\Gamma(s)$  ni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Gamma(s) = \frac{\Gamma(s+1)}{s}$$

**Ta'rif.**  $\alpha \in \mathbb{C} / \mathbb{Z}_{\leq 0}$  va  $k \in \mathbb{N}$  ni hisobga olgan holda biz Poxgammer belgisini aniqlaymiz:

$$(\alpha)_k = \frac{\Gamma(\alpha+k)}{\Gamma(\alpha)} \quad (3)$$

Aytaylik  $n = (n_1, n_2, \dots, n_r) \in \mathbb{N}^r$  manfiy bo'lmagan butun sonlarning  $r$ -tartibli

bo'lsin. Xuddi shu kabi  $x = (x_1, x_2, \dots, x_r) \in \mathbb{C}^r$  berilgan bo'lsa, biz buni

$x^n$  bilan belgilaymiz.

U holda

$x^n = (x_1^{n_1}, x_2^{n_2}, \dots, x_r^{n_r})$  va  $Q^r$  dagi  $j$ - tartibli standart bazis vektorini  $e_j$  bilan belgilaymiz.

**Ta'rif.** Barcha  $j = 1, 2, \dots, r$  lar uchun,

$$R_j(n) = \frac{A_{n+e_j}}{A_n} \quad \text{nisbat } n = (n_1, n_2, \dots, n_r) \text{ ning ratsional funksiyasi bo'lsa,}$$

ushbu ko'p o'zgaruvchili darajali qator

$$F(x_1, x_2, \dots, x_r) = \sum_{n \in \mathbb{N}^r} A_n x^n$$

Gorn gipergeometrik funksiyasi deyiladi.

Quyidagi qatorlar odatda Gauss gipergeometrik qatori deb ataladi

$${}_2F_1(\alpha, \beta, \gamma; x) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{(\alpha)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} x^n; \gamma \in \mathbb{Z}_{\leq 0} \quad (4)$$

Gipergeometrik qator koeffitsiyentlarining rekurrent xossalari ularning oddiy yoki xususiy hosilali differensial tenglamalarning yechimini ifodalashga imkon beradi.

Gaussning gipergeometrik funksiyasi qanoatlantiradigan ikkinchi tartibli oddiydifferensial tenglamani keltirib chiqarishni koradigan bo‘lsak, bunda biz quyidagi o‘zgartirishlardan foydalanamiz: bir  $x$  o‘zgaruvchining funksiyasi uchun

biz  $\frac{d}{dx}$  differentsiallash operatorini  $\partial_x$  orqali, bir necha  $(x_1, x_2, \dots, x_r)$

o‘zgaruvchilarning funksiyalari uchun biz  $\frac{\partial}{\partial x_j}$  xususiy hosila operatori uchun

$\partial_j$  dan foydalanamiz. Yoki soddalik uchun quyidagi Eylar operatorlaridan foydalanishimiz mumkin:

$$\theta_x = x\partial_x; \theta_j = x_j\partial_j$$

Endi Gaussning gipergeometrik (4) qatorini ko‘rib chiqaylik. Ma’lumki,

$$\theta_x F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{(\alpha)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} x^n;$$

Lekin,  $n(\alpha)_n = \alpha((\alpha + 1)_n - (\alpha)_n)$  ga muvofiq

$$\theta_x F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \alpha \sum_{n=0}^{\infty} \left( \frac{(\alpha + 1)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} - \frac{(\alpha)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} \right) x^n = \alpha (F(\alpha + 1, \beta, \gamma; x) - F(\alpha, \beta, \gamma; x))$$

Demak,

$$(\theta_x + \alpha) F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \alpha F(\alpha + 1, \beta, \gamma; x)$$

$$(\theta_x + \beta) F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \alpha F(\alpha, \beta + 1, \gamma; x)$$

Xuddi shu kabi, quyidagi tenglikka ham ega bo‘lamiz:

$$(\theta_x + (\gamma - 1)) F(\alpha, \beta, \gamma; x) = (\gamma - 1) F(\alpha, \beta, \gamma - 1; x)$$

$$\partial_x F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \frac{\alpha\beta}{\gamma} F(\alpha + 1, \beta + 1, \gamma + 1; x)$$

Yuqoridagi to‘rtta tenglamani birlashtirib, Gaussning gipergeometrik qatori quyidagi oddiy differensial tenglamani qanoatlantirishini topishimiz mumkin bo‘ladi:

$$(\theta_x + \alpha)(\theta_x + \beta)F = (\theta_x + \gamma)\partial_x F \quad (5)$$

(5) tenglama ushbu tenglamaga ekvivalent ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

$$x(x-1)\partial_x^2 F + ((\alpha + \beta + 1)x - \gamma)\partial_x F + \alpha\beta F = 0$$

Shunday usulda gipergeometrik funksiyalar va ma‘lum formulalar orqali bir nechta o‘zgaruvchilarning funksiyalari ko‘rinishida yoyib chiqish sirlari o‘rganib chiqilgan va haligacha o‘rganilmoqda.

## 2. Ilmiy adabiyotlar

1. Altin A., Young E.C. Kelvin Principle for a class of singular equations//Internat.J. Math.& Math.Sci. 1989. -v. 12. - № 2. -P. 385-390.
2. Appell P. and Kampe de Fariet J. Fonctions Hypergeometriques et Hyperspheriques;Polynomesd’Hermite.Paris:Gauthier–Villars,1926.—448p.
3. Appell P. and Kampe de Fariet J. Fonctions Hypergeometriques et Hyperspheriques;Polynomesd’Hermite.Paris:Gauthier–Villars,1926.—448p.
4. Barros-NetoJ.J.,GelfandI.M.,FundamentalsolutionsfortheTricomioperator //DukeMath.J.98(3),1999.P.465-483.
5. Barros-NetoJ.J.,GelfandI.M.,FundamentalsolutionsfortheTricomioperatorII //DukeMath.J.111(3),2001.P.561-584.
6. Barros-NetoJ.J.,GelfandI.M.,FundamentalsolutionsfortheTricomioperatorIII //DukeMath.J.128(1),2005.P.119-140.
7. Bezrodnykh S. I. The Lauricella hypergeometric function, the Riemann - Hilbert problem, and some applications //Russ. Math. Surv. 2018, 73(6). P.941-1031.
8. ErdélyiA.,MagnusW.,OberhettingerF.,TricomiF.G.HigherTranscendental Functions, Vol. II. McGraw-Hill, New York, Toronto, London, 1953. 396 p.
9. ErdélyiA.,MagnusW.,OberhettingerF.,TricomiF.G.HigherTranscendental Functions, Vol. III. McGraw-Hill, New York, Toronto, London, 1955. 292 p.
10. ErdélyiA.,MagnusW.,OberhettingerF.,TricomiF.G.Tables of integral transforms, Vol. I. McGraw-Hill, New York, Toronto, London, 1954. 392 p.



## KO'P O'ZGARUVCHILI FUNKSIYALARI VA GIPERGEOMETRIK CHEGARAVIY MASALALAR

VOXOBOV FAZLIDDIN FAXRIDDINJON O'G'LI

QO'QON DPI Fizika-matematika fakulteti

Matematika kafedrası o'qituvchisi.

RAFIQOV FAXRIDDIN

QO'QON DPI Fizika-matematika fakulteti

Matematika kafedrası o'qituvchisi.

Ushbu maqolada aralash parabolik-giperbolik tipdagi tenglama uchun tip o'zgarish chizig'ida integral ko'rinishdagi ulash shartli chegaraviy masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** Aralash tipdagi tenglama; chegaraviy masala; integral ulash sharti; integral tenglamalar usuli.

Gaussning gipergeometrik funksiyasi quyidagi qator bilan ifodalanishi mumkin<sup>1</sup>

$$F(a, b, c; z) = F \left[ \begin{matrix} a, b; \\ x \\ c; \end{matrix} \right] = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{(a)_n (b)_n z^n}{(c)_n n!} \cdot \frac{z^n}{n!}, \quad |z| < 1, (*)$$

Bu erda  $a, b, c, z$  ga bog'liq emas. Parametrlar  $a, b, c$  va  $z$  o'zgaruvchisi mumkinmurakkab qiymatlarni qabul qilib,  $c \neq 0, -1, -2, \dots$ , va deb faraz qilinadi.  $(\lambda)_v$  ifodasi Pochhammer belgisini bildiradi:  $(\lambda)_0 := 1$ ,  $(\lambda)_v := \lambda(\lambda+1)\dots(\lambda+v-1)$ ,  $v \in N$ ,

gamma funksiyasi orqali  $\Gamma(z)$  shaklida yozilgan  $(\lambda)_v = \frac{\Gamma(\lambda+v)}{\Gamma(\lambda)}$ ,  $v \in \{0\} \cup N$ ;

$N := \{1, 2, 3, \dots\}$  natural sonlar to'plami. Ko'p darajali qator berilgan bo'lsin



$$\sum_{|k|=0}^{\infty} A(k)x_1^{k_1}x_2^{k_2}\dots x_n^{k_n},$$

bu yerda yig'indi ko'p indeksli  $k := (k_1, \dots, k_n)$  bo'yicha amalga oshiriladi. manfiy bo'lmagan butun son komponentlari  $k_i \geq 0, i = \overline{1, n}$ , ular uchunodatda,  $|k| := k_1 + \dots + k_n$ ; koeffitsient  $A(k)$  va o'zgaruvchilar  $x_1, \dots, x_n$  mumkinmurakkab qiymatlarni qabul qiling.

**Ta'rif (1)** Ko'p darajali qator (\*) agar quyidagi  $n$  ta munosabat bo'lsa, gipergeometrik qator hisoblanadi

$$f_f(k) = \frac{P_j(k)}{Q_j(k)},$$

Bu yerda  $P_j$  va  $Q_j$ - ko'phadli ko'phadlar, mos ravishda  $p_j$  va  $q_j$  darajali  $k$ .  $Q_j$  koeffitsienti  $k_j + 1$ ; ga ega deb taxmin qilinadi;  $P_j$  va  $Q_j$  mavjud emas umumiy omillar, mumkin bo'lgan  $k_j + 1$  ( $j = \overline{1, n}$ ). bundan mustasno.

**Ta'rif 1.1.2.**  $p_1, \dots, p_n, q_1, \dots, q_n$  sonlarning eng kattasi deyiladi. gipergeometrik qatorning tartibi (1.1.1).

**Ta'rif (2).** Agar barcha  $p_1, \dots, p_n, q_1, \dots, q_n$  raqamlari bir xil bo'lsa, ya'ni  $p_1 = \dots = p_n = q_1 = \dots = q_n$ , keyin gipergeometrik qator (1.1.1) to'liq deyiladi. Gorn<sup>2</sup> xususan, ikkinchisining gipergeometrik qatorlarini o'rgangan. U ba'zi qatorlarga qo'shimcha ravishda dan seriyalar orqali ifodalanganligini aniqladibitta o'zgaruvchi yoki ikkita gipergeometrik qator mahsuloti orqali, ularning har biri bitta o'zgaruvchiga bog'liq bo'lib, asosan 34 ta mavjud 2-tartibdagi turli konvergent qatorlar. Ikki o'zgaruvchi bo'lsa, 14 ta to'liq seriya mavjud  $p_1 = q_1 = p_2 = q_2 = 2$

$$F_1(a, b, c; d; x, y) = \sum_{m, n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m+n} (c)_n}{(d)_{m+n} m! n!} x^m y^n, |x| < 1, |y| < 1, \quad (1)$$

$$F_2(a, b, c; d, e; x, y) = \sum_{m, n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m+n} (b)_m (c)_n}{(d)_m (e)_n m! n!} x^m y^n, |x| + |y| < 1, \quad (2)$$

$$F_3(a, b, c; d; e; x, y) = \sum_{m, n=0}^{\infty} \frac{(a)_m (b)_n (c)_m (d)_n}{(e)_{m+n} m! n!} x^m y^n, |x| < 1, |y| < 1, \quad (3)$$

$$F_4(a,b,c;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m+n} (b)_{m+n}}{(c)_m (d)_n m!n!} x^m y^n, \quad \sqrt{x} + \sqrt{y} < 1, \quad (4)$$

$$G_1(a,b,c;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m+n} (b)_{n-m} (c)_{m-n}}{m!n!} x^m y^n, \quad (5)$$

$$G_2(a,b,c,d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_m (b)_n (c)_{n-m} (d)_{m-n}}{m!n!} x^m y^n, \quad (6)$$

$$H_1(a,b,c,d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m-n} (b)_{m+n} (c)_n}{(d)_m m!n!} x^m y^n, \quad (7)$$

$$H_2(a,b,c,d,e;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m-n} (b)_m (c)_n (d)_n}{(e)_m m!n!} x^m y^n, \quad (8)$$

va 20 ta birlashgan qatorlar mavjud to‘liq qatorlar uchun chegara shakllari va ular uchun  $p_1 \leq q_1 = 2$ ,  $p_2 \leq q_2 = 2$ , va  $p_1$  va  $p_2$  bir vaqtning o‘zida ikkitaga teng bo‘lolmaydi, masalan,

$$\Phi_1(a,b,c;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m+n} (b)_m}{(c)_{m+n} m!n!} x^m y^n, \quad |x| < 1, \quad (9)$$

$$\Phi_2(a,b,c;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_m (b)_m}{(c)_{m+n} m!n!} x^m y^n, \quad (10)$$

$$\Phi_3(a;d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_m}{(d)_{m+n} m!n!} x^m y^n, \quad (11)$$

$$\Psi_1(a,b,c,d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_m}{(c)_m (d)_n m!n!} x^m y^n, \quad |x| < 1, \quad (12)$$

$$\Psi_2(a;b,d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m+n}}{(b)_m (d)_n m!n!} x^m y^n, \quad (13)$$

$$\Xi_1(a,b,c,d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_m (b)_n (c)_m}{(d)_{m+n} m!n!} x^m y^n, \quad |x| < 1, \quad (14)$$

$$\Xi_2(a,b,d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_m (b)_m}{(d)_{m+n} m!n!} x^m y^n, \quad |x| < 1, \quad (15)$$

$$\Gamma_1(a,b,c;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_m (b)_{n-m} (c)_{m-n}}{m!n!} x^m y^n, \quad |x| < 1, \quad (16)$$

$$\Gamma_2(b,c;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(b)_{n-m} (c)_{m-n}}{m!n!} x^m y^n, \quad (17)$$



$$H_1(a,b;d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m-n} (b)_{m+n}}{(d)_m m! n!} x^m y^n, |x| < 1, \quad (18)$$

$$H_2(a,b,c;d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m-n} (b)_m (c)_n}{(d)_m m! n!} x^m y^n, |x| < 1, \quad (19)$$

$$H_3(a,b;d;x,y) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(a)_{m-n} (b)_m}{(d)_m m! n!} x^m y^n, |x| < 1, \quad (20)$$

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altin A., Young E.C. Kelvin Principle for a class of singular equations // Internat. J. Math. & Math. Sci. 1989. -v. 12. - № 2. -P. 385-390.
2. Appell P. and Kampe de Fériet J. Fonctions Hypergeometriques et Hyperspheriques; Polynomes d’Hermite. Paris: Gauthier–Villars, 1926.—448p.
3. Appell P. and Kampe de Fériet J. Fonctions Hypergeometriques et Hyperspheriques; Polynomes d’Hermite. Paris: Gauthier–Villars, 1926.—448p.
4. Barros-Neto J.J., Gelfand I.M., Fundamentals solutions for the Tricomi operator // Duke Math. J. 98(3), 1999. P. 465-483.
5. Barros-Neto J.J., Gelfand I.M., Fundamentals solutions for the Tricomi operator II // Duke Math. J. 111(3), 2001. P. 561-584.
6. Barros-Neto J.J., Gelfand I.M., Fundamentals solutions for the Tricomi operator III // Duke Math. J. 128(1), 2005. P. 119-140.
7. Bezrodnykh S. I. The Lauricella hypergeometric function, the Riemann - Hilbert problem, and some applications // Russ. Math. Surv. 2018, 73(6). P. 941-1031.
8. Erdélyi A., Magnus W., Oberhettinger F., Tricomi F.G. Higher Transcendental Functions, Vol. II. McGraw-Hill, New York, Toronto, London, 1953. 396 p.

Research Science and  
Innovation House



## AYRIM SONLI TENGSIZLIKLARNI ISBOTLASH USULLARI

Sulaymonov Mirsaidjon Muxiddin o'g'li.  
Qo'qon DPI Matematika kafedrası o'qituvchisi.

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada ayrim sonli tengsizliklarni isbotlash usullari keltirilgan.

### Аннотация

В данной статье представлены методы доказательства некоторых числовых неравенств.

### Annotation

This article presents methods for proving some numerical inequalities.

**Kalit so'zlar.** Tengsizlik, sonli tengsizlik, o'rta arifmetik, o'rta geometrik.

Ta'rif: Agar  $a - b$  ayirma musbat son bo'lsa,  $a$  soni  $b$  sonidan katta deyiladi va bu munosabat  $a > b$  shaklida yoziladi. Agar  $a - b$  ayirma manfiy bo'lsa,  $a$  soni  $b$  sonidan kichik deyiladi va  $a < b$  shaklida yoziladi.

Istalgan  $a$  va  $b$  sonlar uchun quyidagi uchta munosabatdan faqat bittasi o'rinli:

1.  $a - b > 0 \Leftrightarrow a > b$ ;
2.  $a - b < 0 \Leftrightarrow a < b$ ;
3.  $a - b = 0 \Leftrightarrow a = b$ .

Sonli tengsizliklar quyidagi xossalarga ega:

1<sup>0</sup>. Agar  $a > b$  va  $b > c$  bo'lsa,  $a > c$  bo'ladi (tengsizlik munosabatini tranzitivlik xossasi).

2<sup>0</sup>. Agar  $a > b$  va  $c \in R$  bo'lsa,  $a + c > b + c$  bo'ladi.

3<sup>0</sup>. Agar  $a > b$  va  $c > 0$  bo'lsa,  $a \cdot c > b \cdot c$  bo'ladi.

4<sup>0</sup>. Agar  $a > b$  va  $c < 0$  bo'lsa,  $a \cdot c < b \cdot c$  bo'ladi.

5<sup>0</sup>. Agar  $a > b$  va  $c > d$  bo'lsa,  $a + c > b + d$  bo'ladi.

6<sup>0</sup>. Agar  $a > b > 0$  va  $c > d > 0$  bo'lsa,  $a \cdot c > b \cdot d$  bo'ladi.

7<sup>0</sup>. Agar  $a > b > 0$  va  $n \in N$  bo'lsa,  $a^n > b^n$  bo'ladi ( $n$  – toq son bo'lganda  $b > 0$  shart ortiqcha).

Quyida ayrim Tengsizliklarni isbotlashning usullari ko'ramiz.

**1–misol.** Istalgan  $a, b$  va  $c$  sonlari uchun  $2a^2 + b^2 + c^2 \geq 2a(b + c)$  ekanligini isbotlang.

**Yechilishi.** Istalgan  $a, b$  va  $c$  sonlari uchun  $(2a^2 + b^2 + c^2) - 2a(b + c)$  ayirmani manfiy emasligini ko'rsatamiz:

$$\begin{aligned} (2a^2 + b^2 + c^2) - 2a(b + c) &= (a^2 - 2ab + b^2) + (a^2 - 2ac + c^2) = \\ &= (a - b)^2 + (a - c)^2. \end{aligned}$$

Istalgan sonning kvadrati nomanfiy son bo'lgani uchun  $(a - b)^2 \geq 0$  va  $(a - c)^2 \geq 0$ . Demak,  $(2a^2 + b^2 + c^2) - 2a(b + c)$  istalgan  $a, b$  va  $c$  sonlari uchun manfiy emas. Shuning uchun berilgan tengsizlik istalgan  $a, b$  va  $c$  sonlari uchun o'rinli. Jumladan, tenglik belgisi  $a = b = c$  bo'lgandagina bajariladi.  $\Delta$

Tengsizlikning to'g'riligini ko'rsatish uchun uning har ikkala qismining ayirmasini musbat yoki manfiylikni aniqlash, ya'ni yuqoradagi misoldagidek bevosita ta'rifdan foydalanib isbotlashga harakat qilish ayrim hollarda qiyinchiliklarni tug'diradi. Shuning uchun tengsizliklarni isbotlashda tengsizliklarning xossaligidan foydalanish tavsiya etiladi.

**2-misol.** Musbat  $a, b$  va  $c$  sonlari uchun  $\frac{b+c}{a} + \frac{c+a}{b} + \frac{a+b}{c} \geq 6$  tengsizlikni isbotlang.

**Yechilishi:** Tengsizlikning chap qismida shakl almashtirish bajarib, uni quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\left(\frac{a}{b} + \frac{b}{a}\right) + \left(\frac{a}{c} + \frac{c}{a}\right) + \left(\frac{b}{c} + \frac{c}{b}\right) \geq 6.$$

Ikkita musbat son uchun o'rta arifmetik va o'rta geometrik qiymatlar orasidagi Koshi tengsizligidan foydalanamiz:

$$\frac{a}{b} + \frac{b}{a} \geq 2\sqrt{\frac{a}{b} \cdot \frac{b}{a}} = 2, \quad \frac{a}{c} + \frac{c}{a} \geq 2, \quad \frac{b}{c} + \frac{c}{b} \geq 2.$$

Bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib,

$$\left(\frac{a}{b} + \frac{b}{a}\right) + \left(\frac{a}{c} + \frac{c}{a}\right) + \left(\frac{b}{c} + \frac{c}{b}\right) \geq 6$$

tengsizlikni hosil qilamiz.



**3-misol.**  $a, b$  va  $c$  musbat sonlar bo'lsin.  $2(a^4 + b^4 + c^4) < (a^2 + b^2 + c^2)^2$  tengsizlik  $a, b$  va  $c$  faqat biror uchburchak tashkil qilgandagina bajarilishi mumkinligini isbotlang.

**Yechilishi.** Ravshanki, bizning tengsizligimiz

$$a^4 + b^4 + c^4 - 2a^2b^2 - 2b^2c^2 - 2a^2c^2 < 0$$

tengsizlikka teng kuchli. Oxirgi tengsizlikning chap tomonini almashtiramiz:

$$\begin{aligned} a^4 + b^4 + c^4 - 2a^2b^2 + 2b^2c^2 + 2a^2c^2 &= (a^2 + b^2 - c^2)^2 - 4a^2b^2 = \\ &= (a^2 + b^2 - c^2 - 2ab)(a^2 + b^2 - c^2 + 2ab) = ((a-b)^2 - c^2)((a+b)^2 - c^2) = \\ &= (a-b+c)(a-b-c)(a+b+c)(a+b-c) \end{aligned}$$

Demak, berilgan tengsizlik  $a, b$  va  $c$  biror uchburchak tashkil qilganda aniq ravishda bajariladigan ushbu

$$(a-b+c)(b+c-a)(a+b+c)(a+b-c) > 0$$

tengsizlikka teng kuchli.

Endi faraz qilamiz, bu tengsizlik bajariladi, biroq  $a, b$  va  $c$  biror uchburchak tashkil qilmaydi. U holda  $a-b+c, b+c-a, a+b+c, a+b-c$  sonlardan kamida ikkitasi manfiy.  $a+b-c < 0$  va  $b+c-a < 0$  bo'lsin. Bu yerdan masalaning shartiga zid bo'lgan  $2b < 0$  tengsizlikni olamiz.

**4-misol.** Agar  $a, b, c > 0$  bo'lsa,  $\frac{3}{1/a+1/b+1/c} \leq \frac{a+b+c}{3}$  tengsizlikni isbotlang.

**Yechilishi:**  $9 \leq (a+b+c) \left( \frac{1}{a} + \frac{1}{b} + \frac{1}{c} \right),$

$$\begin{cases} a+b+c \geq 3\sqrt[3]{abc}, \\ \frac{1}{a} + \frac{1}{b} + \frac{1}{c} \geq 3 \cdot \frac{1}{\sqrt[3]{abc}}. \end{cases} \Rightarrow (a+b+c) \left( \frac{1}{a} + \frac{1}{b} + \frac{1}{c} \right) \geq \frac{9\sqrt[3]{abc}}{\sqrt[3]{abc}} = 9.$$

**5-misol.**  $6(a^2 + b^2)(a^2 + b^2 + c^2) \geq (a+b)^2(a+b+c)^2$  tengsizlikni isbotlang.

**Yechilishi:**

$$\times \begin{cases} 2(a^2 + b^2) \geq (a+b)^2 \Leftrightarrow (a-b)^2 \geq 0 \\ 3(a^2 + b^2 + c^2) \geq (a+b+c)^2 \end{cases} \Rightarrow 2a^2 + 2b^2 \geq a^2 + b^2 + 2ab \Rightarrow (a-b)^2 \geq 0.$$

$$6(a^2 + b^2)(a^2 + b^2 + c^2) \geq (a+b)^2(a+b+c)^2.$$

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh. Ismailov, A. Qo'chqorov, B. Abdurahmonov Tengsizliklar-I. Isbotlashning klassik usullari. O'quv-qo'llanma Toshkent 2008. [4, 15]
2. Ayupov Sh., Rihsiyev B., Qo'chqorov O. «Matematikadan olimpiada masalalari» 1,2 qismlar. T.: Fan, 2004. [3, 46]
3. Hojoo Lee. Topics in Inequalities-Theorems and Techniques. Seoul: 2004.

---

Research Science and  
Innovation House



## BIR ARGUMENTNING FUNKSIYALARI QATNASHGAN BA’ZI TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNING YECHIMLARI

Qo‘qon DPI matematika kafedrası  
O‘qituvchisi M.M.Sulaymonov

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ayrim trigonometrik tenglamalarni universal almashtirish formulalari yordamida yechish keltirilgan.

Hamma trigonometrik funksiyalarni  $\sin x$  va  $\cos x$  lar orqali ifodalash mumkin bo‘lgani uchun, bir argumentning trigonometrik funksiyalariga nisbatan ratsional tenglamalarni

$$R(\sin x, \cos x) = 0$$

ko‘rinishida yozish mumkin (bunda  $R$  ifoda  $\sin x$  va  $\cos x$  ga nisbatan ratsional funksiya).

$R(\sin x, \cos x) = 0$  ko‘rinishdagi tenglamalarni  $tg \frac{x}{2}$  ga nisbatan ratsional bo‘lgan tenglamalarga keltirib yechish mumkin.

**1-misol.**  $3 \sin x + \sqrt{3} \cos x = 3$  tenglamani yeching.

**Yechish.** Tenglamaning aniqlanish sohasi:  $(-\infty, +\infty)$ .  $\sin x$  va  $\cos x$  larni universal almashtirish formulalaridan foydalanib almashtirsak,

$$3 \cdot \frac{2tg \frac{x}{2}}{1-tg^2 \frac{x}{2}} + \sqrt{3} \cdot \frac{1-tg^2 \frac{x}{2}}{1+tg^2 \frac{x}{2}} = 3$$

tenglamadan

$$(\sqrt{3}+1)tg^2 \frac{x}{2} - 2\sqrt{3}tg \frac{x}{2} + (\sqrt{3}-1) = 0$$

Tenglamani hosil qilamiz. Buni yechsak,

$$tg \frac{x_1}{2} = 1 \text{ dan } \frac{x_1}{2} = \frac{\pi}{4} + k\pi \text{ yoki } \frac{x_1}{2} = \frac{\pi}{2} + 2k\pi.$$

$$\operatorname{tg} \frac{x_2}{2} = \frac{\sqrt{3}-1}{\sqrt{3}+1} \text{ dan } \frac{x_2}{2} = \operatorname{arctg} \left( \frac{\sqrt{3}-1}{\sqrt{3}+1} \right) + k\pi$$

yoki

$$x_2 = 2\operatorname{arctg} \left( \frac{\sqrt{3}-1}{\sqrt{3}+1} \right) + 2k\pi.$$

Lekin almashtirish natijasida berilgan tenglamaning aniqlanish sohasi  $x=\pi(2k+1)$  ga kichraygan edi.  $x=\pi(2k+1)$  qiymatlarning berilgan tenglamaning yechimlari bo‘lish-bo‘lmasligini tekshiramiz. Buning uchun  $\sin x$  va  $\cos x$  larning davri  $2\pi$  bo‘lgani uchun  $x=\pi$  ni tekshirsak kifoya, ya’ni

$$3 \sin \pi + \sqrt{3} \cos \pi = 3 \text{ yoki } -\sqrt{3} \neq 3.$$

Demak,  $x=\pi(2k+1)$  tenglamaning yechimi bo‘la olmaydi.

$$\text{Javob: } x_1 = \frac{\pi}{2}(4k+1); \quad x_2 = 2\operatorname{arctg} \left( \frac{\sqrt{3}-1}{\sqrt{3}+1} \right) + 2k\pi.$$

**2-misol.**  $\sin^2 x + 0.5 \sin 2x + 2 \cos x = 2$  tenglamani yeching.

**Yechish.** Tenglamaning aniqlanish sohasi:  $(-\infty, +\infty)$ .  $\sin x$  va  $\cos x$  larni  $\operatorname{tg} \frac{x}{2}$

ga almashtirib,

$$\left( \frac{2\operatorname{tg} \frac{x}{2}}{1-\operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}} \right)^2 + 0.5 \cdot 2 \frac{2\operatorname{tg} \frac{x}{2}}{1-\operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}} \cdot \frac{1-\operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}}{1+\operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}} + 2 \frac{1-\operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}}{1+\operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}} = 2$$

tenglamadan

$\operatorname{tg}^3 \frac{x}{2} - \operatorname{tg}^2 \frac{x}{2} - \operatorname{tg} \frac{x}{2} = 0$  yoki  $\operatorname{tg} \frac{x}{2} = 0$  va  $\operatorname{tg}^2 \frac{x}{2} - \operatorname{tg} \frac{x}{2} - 1 = 0$  tenglamalarni hosil qilamiz.

Bu tenglamalarni yechib,

$$x_1 = 2\pi k \text{ va } x_{2,3} = 2\operatorname{arctg} \left( \frac{1 \pm \sqrt{5}}{2} \right) + 2k\pi$$

larni topamiz. Lekin almashtirish natijasida berilgan tenglamaning aniqlanish sohasi  $x=\pi(2k+1)$  ga kichraygan edi. Tenglamani  $x=\pi$  da tekshiramiz, ya’ni



$$\sin^2 \pi + 0.5 \sin 2\pi + 2 \cos \pi = 2 \text{ yoki } -2 \neq 2.$$

Demak,  $x = \pi(2k+1)$  tenglamaning yechimlari emas.

$$\text{Javob: } x_1 = 2\pi k, \quad x_{2,3} = 2 \operatorname{arctg} \left( \frac{1 \pm \sqrt{5}}{2} \right) + 2k\pi.$$

$\sin x$ ,  $\cos x$   $\operatorname{tg} x$  va  $\operatorname{ctg} x$  larni  $\operatorname{tg} \frac{x}{2}$  ga almashtirish universal trigonometrik almashtirish deyiladi. Bu almashtirish faqat tenglamalarga boshqa almashtirishlarni ishlatish mumkin bo‘lmagan hollardagina ishlatiladi, chunki natijada yuqori darajali tenglamalar hosil bo‘lishi mumkin.

$a \sin x + b \cos x = c$  ko‘rinishidagi tenglamalarni yechish.

$a \sin x + b \cos x = c$  ko‘rinishidagi tenglama, ( $a$ ,  $b$ ,  $c$  lar o‘zgarimas sonlar)  $R(\sin x, \cos x) = 0$  tenglamaning hususiy holi bo‘lib, uni universal almashtirish yordami bilan yechish mumkin. Bu tenglama quyidagicha ham yechiladi.

Tenglamani

$$\frac{a}{\sqrt{a^2 + b^2}} \sin x + \frac{b}{\sqrt{a^2 + b^2}} \cos x = \frac{c}{\sqrt{a^2 + b^2}}$$

ko‘rinishida yozib,

$$\cos \varphi = \frac{a}{\sqrt{a^2 + b^2}}, \quad \sin \varphi = \frac{b}{\sqrt{a^2 + b^2}}$$

deb olsak,

$$\cos \varphi \sin x + \sin \varphi \cos x = \frac{c}{\sqrt{a^2 + b^2}}$$

ni hosil qilamiz. Bundan

$$\sin(\varphi + x) = \frac{c}{\sqrt{a^2 + b^2}}.$$

U holda  $\left| \frac{c}{\sqrt{a^2 + b^2}} \right| \leq 1$  bo‘lsa, tenglamaning yechimlari

$$x + \varphi = (-1)^n \arcsin \frac{c}{\sqrt{a^2 + b^2}} + \pi k \text{ yoki}$$

$x = (-1)^n \arcsin \frac{c}{\sqrt{a^2 + b^2}} - \varphi + \pi k$  bo‘lib  $\left| \frac{c}{\sqrt{a^2 + b^2}} \right| > 1$  bo‘lsa, tenglama yechimga ega

emas.



**3-misol.**  $\sin x + \sqrt{3} \cos x = \sqrt{2}$  tenglamani yeching.

**Yechish.** tenglamaning ikkala tomonini  $\sqrt{1^2 + \sqrt{3}^2} = 2$  ga bo‘lib,

$$\frac{1}{2} \sin x + \frac{\sqrt{3}}{2} \cos x = \frac{\sqrt{2}}{2}$$

ni hosil qilamiz.

$$\cos \frac{\pi}{3} = \frac{1}{2} \quad \text{va} \quad \sin \frac{\pi}{3} = \frac{\sqrt{3}}{2}$$

Bo‘lgani uchun, yuqoridagi tenglama

$$\cos \frac{\pi}{3} \sin x + \sin \frac{\pi}{3} \cos x = \frac{\sqrt{2}}{2}$$

yoki

$$\sin\left(\frac{\pi}{3} + x\right) = \frac{\sqrt{2}}{2}$$

ko‘rinishga keladi. Bu yerdan

$$x + \frac{\pi}{3} = (-1)^n \frac{\pi}{4} + \pi k$$

yoki

$$x = (-1)^n \frac{\pi}{4} - \frac{\pi}{3} + \pi k.$$

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Orifxonova M., Umirbekov A., Muxanov A. «Matematika». T.: «O‘qituvchi» nashriyoti, 1974 y.
2. Abduhamidov A.U., Nasimov H.A., Nosirov U.M., Husanov J.H. “Algebra va matematik analiz asoslari” 2-qism akademik litseylar uchun darslik. T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
3. Saxayev M. “Algebra va elementar funksiyalar” o‘qituvchilar uchun qo‘llanma. T.: “O‘qituvchi”, 1973.
4. АБДУНАЗАРОВА, ДИЛФУЗА ТУХТАСИНОВНА. "МАНЗУРА СОБИРОВНА ПАЙЗИМАТОВА, and МИРСАИД МУХИДДИН УГЛИ СУЛАЙМОНОВ." "ПРОБЛЕМА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ." Молодежь и XXI век-2015 (2015).

5. 11. Sulaymonov, M. M., and M. M. Otaboev. "SOME SECOND ORDER DIFFERENTIAL EQUATIONS FUNCTIONALLY INVARIANT SOLUTIONS." Open Access Repository 8.12 (2022): 584-591.
6. 12. Yigitalievich, Akbarov Ummatali, and Sulaimonov Mirsaid. "SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE FIELD." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 298-303.
7. 13. Sulaymonov, Mirsaid Muxiddin O'G'Li. "GEOGEBRA DASTURI VOSITASIDA PLANIMETRIYA MAVZULARIDA MA'RUZA MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH." Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2.6 (2022): 35-40.
8. 14. Пайзиматова, Манзура Собировна. "Абдуназарова Дилфуза Тухтасиновна, Сулаймонов Мирсаид Мухиддин угли теория и методика обучения математике как самостоятельная научная дисциплина Сборник научных статей 3-й Международной молодежной научной конференции: в 2-х томах." Том 1: 3-8.
9. 15. Muxiddin o'g'li, Sulaymonov Mirsaid. "Kasr tartibli differensial operator ishtirok etgan integro-differensial tenglamalar uchun integral shartli masalalar." Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan 1.8 (2023): 155-160.
10. 16. АБДУНАЗАРОВА, ДИЛФУЗА ТУХТАСИНОВНА, МАНЗУРА СОБИРОВНА ПАЙЗИМАТОВА, and МИРСАИД МУХИДДИН УГЛИ СУЛАЙМОНОВ. "ПРОБЛЕМА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТ." Молодежь и XXI век-2015. 2015.

Research Science and  
Innovation House



## O‘ZBEKISTON HUDUDIDA QADIMGI DAVLATLARNING TASHKIL TOPISH OMILLARI VA ULARNI DAVRLASHTIRISH

**Egamberdiyev Xurshidbek Egamberdiyevich** (Phd)  
Andijon Davlat Universiteti Tarix fakulteti 2-kurs talabasi  
**Oboqulov Nurulloh Nasibullayevich**

**Abstract:** First of all, this article provides brief information about how and from what factors the state is formed and those ancient states. The ancient states of Uzbekistan and the order of dividing them into periods are also described.

**Key words:** Central and Middle Asia, Media, Achaemenid Empire, Bactria, Khorezm, Sogd, Kang', Dovan, Kushan kingdom.

**Аннотация:** В данной статье, прежде всего, даны информации, как и из каких факторов государство сформировалось, а также идет речь об этих древних государствах. Также описаны древние государства Узбекистана и порядок их деления на периоды.

**Ключевые слова:** Средняя и Средняя Азия, Мидия, Империя Ахеменидов, Бактрия, Хорезм, Согд, Канг, Дован, Кушанское царство.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada birinchi galda qanday qilib va qaysi omillardan davlat tashkil topishi va o‘sha qadimgi davlatlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Shuningdek, O‘zbekistonning qadimgi davlatlari va ularni davrlarga bo‘lish tartibi ham bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Markaziy va O‘rta Osiyo, Midiya, Axamoniylar imperiyasi, Baqtriya, Xorazm, So‘gd, Qang’, Dovon, Kushon podsholigi.

Davlat birlashmalarining ilk turlari egallangan hududi bo‘yicha ancha kichik bo‘lgan “davlatlar” ning iqtisodiy, siyosiy va diniy markazlari sanalgan qadimgi shaharlar hisoblanadi. Misol uchun, Quyi Mesopotamiyada atigi 1000 kv.km. maydonda bir nechta shahar-davlatlar o‘rin olgan: Uruk, Lagash, Ur, shuningdek, Uruk va Lagash bi-biridan atigi 24 km. uzoqlikda joylashgan edi. Keyinchalik bosqinchilik urushlari natijasida ushbu shahar-davlatlarning bir necha yuz kvadrat km. hududni qamrab olgan yagona, nisbatan yirik shohlklarga ularda joriy qilingan

mustabid hokimiyat tizimi bilan majburan birlashtirilishi ro‘y beradi. So‘ngra bu dastlabki shohliklar qo‘shni hududlarni egallagan monarxiyalarga aylanadi.

Davlatlarning rivojlanish qonuniyati va muayyan sharoitlar ularning ba‘zilarini bir nechta qit‘alar hududida keng yoyilgan ulkan jahon imperiyalariga aylantiradi. Bunga Osiyo, Evropa va Afrika mamlakatlarini o‘z ichiga olgan Axamoniylar podsholigi yaqqol misol bo‘la oladi. Yaqin va O‘rta Sharqdagi davlat birlashmalarining paydo bo‘lgan joyidagi asosiy evolutsiya yo‘li qisqacha mana shunday.<sup>1</sup>

O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘idagi davlat tuzulmalarining kelib chiqishi va evolutsiyasi jarayoni undan sezilarli darajada farq qiladi, lekin ma‘lum tarixiy sabablarga ko‘ra yuqoridagi hududlar ayni bir davlatlar (Axamoniylar podsholigi, Salavkiylar podsholigi) tarkibiga kirgan.

Ilk davlatlar shakllanayotganda uning shart-sharoitlari, iqtisodiy va ijtimoiy omillari mavjud bo‘lishi zarur. So‘ngi bronza davrida O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida huddi shunday omillar mavjud edi.

Davlatchilikning shakllanishidagi eng asosiy omillardan biri, qulay tabiiy geografik muhitdir. Tabiiy geografik muhitning qulayligi dexqonchilikda yuqori hosil olish garovi hisoblanadi. Yuqori hosil esa ehtiyojdan ortiqcha mahsulot yetishtirish uchun yo‘l ochadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari joylashgan hududlarning barchasi tabiiy geografik muhitning qulayligi bilan xarakterlanadi.<sup>2</sup> [2, 55 b.]

O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari su‘iy sug‘orish bir muncha qulay bo‘lgan Amudaryo (yuqori, o‘rta, quyi) oqimlari bo‘ylarida, Murg‘ob voxasida, Zarafshon va Qashqadaryo voxalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil), Mesopotamiya (Dajla va Frot), Qadimgi Xindiston (Ganga) va Xitoy (Xuanxe va Yanzsi) misolida ham kuzatishimiz mumkin.<sup>3</sup>

Miloddan avvalgi VII-V asrlarda Markaziy Osiyoni Midiya dalati, keyinchalik Eron Axamoniylar davlati bosib oladi. Shundan keyin Markaziy Osiyo haqidagi ma‘lumotlar ulardan yunonlarga o‘tadi (Gerodot, Ktesiy, Strabon va h. k.). Bu davrlarda Markaziy Osiyo turli qabilalar ittifoqidan iborat bo‘lib, keng

<sup>1</sup>“O‘zbek davlatchiligi tarixi” 1 T. 2021, V.Rtveladze, D.A.Alimova 48 b.

<sup>2</sup>“Qadimgi Sharq tarixi” V.I. Avdiyev 1964, 17 b.

<sup>3</sup>“O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi” B. Eshov 2012. 33 b.

hududlarni egallagan va qabila boshliqlari tomonidan boshqarilgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo hududi o‘sha davrning kuchli davlatlridan biri sifatida Midiya hukmronligiga qarshi kurashlarda vujudga kelgan va Kir II tomonidan asos solingan Eron Axamoniylari imperiyasi bosqiniga uchradi.

Eroniylarning ikki yuzga yaqin hukmronligi (550-330) Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy tuzumiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa, keyinchalik, Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan evropalik olimlarning xar bir tarixiy dalilni eroniylar bilan bog‘lab sharxlashlariga olib keldi.<sup>4</sup>

O‘rta Osiyodagi ikki daryo oralig‘ida qadimgi davrda davlatrchilik evolutsiyasining mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi, mil. avv. III asrdan – yangi eraning IV asri oralig‘idagi vaqtni qamrab olgan bir necha davrlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Davlatchilikning ilk shakli qaror topishi O‘zbekiston janubida tarqalgan so‘nggi bronza davrining o‘troq-dexqonchilik madaniyatida yuz beradi. Uning yakullanishi O‘rta Osiyo hududida yangi eraning III asri birinchi yarmida mavjud bo‘lgan Kushon va Parfiya imperiyalari halokati bilan deyarli bir vaqtga to‘g‘ri keladi.<sup>5</sup>

**Birinchi davr** – miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi , O‘zbekiston janubida embrional shaklda davlatga o‘xshash tuzilmaning qaror topishi. Davlatning bunday namunasi Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan deyish mumkin.

**Ikkinchi davr** – miloddan oldingi I ming yillikning boshi – miloddan avv. 539 yil Baqtriya, So‘g‘d, Xoram tarixiy-madaniy viloyatlarining shakllanishi. Ularda siyosiy hokimiyat tizimining shoxobchali tizimiga ega bo‘lgan davlatning ilk shakllarini ko‘rish mumkin. Qadimgi Baqtriya va Katta Xorazm podsholiklariga o‘xshash yirik hududiy yoki saklarda bo‘lgani singari (Zarina, Tomaris) ayol posho boshchiligidagi qabilalar konfederatsiyasi ham huddi shu paytda kelib chiqqanligi ham ehtimoldan yiroq emas.

**Uchinchi davr** – mil. avv. 539-330 yillar, Axamoniylar istilosi va O‘rta Osiyo mintaqalarining Axamoniylar davlati tarkibiga kirishi natijasida kelib chiqqan mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus. Ikki yuz yil davomida O‘rta Osiyo Ikki daryo oralig‘ining deyarli barcha hududlari shoxning mustabid va qudrati bilan

<sup>4</sup> “O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi” Z. Muqimov 2003 25 b.

<sup>5</sup> “Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavxalar” E.V. Rtveldze, A.X. Saidov, E.B. Abdullayev. 2001 y. 47-48 b.





Umuman olganda, zamonaviy maktab ta‘limida dars samaradorligi va o‘quvchilarning bilim olish sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan ko‘plab muammolar mavjud. Ammo shunga qaramay, o‘qituvchilar har doim turli metod va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda dars samaradorligini oshirish va o‘qitish sifatini oshirishga intiladilar. Keyinchalik ulardan ba‘zilarini ko‘rib chiqamiz.

Darslarni samaraliroq qilish va o‘quvchilar bilimni yaxshilash uchun o‘qituvchilar foydalanadigan ko‘plab texnika va yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlardan biri har bir talabaga individual yondashishdir. O‘qituvchilar har bir talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatini aniqlash uchun turli usullardan foydalanishlari mumkin, masalan, yakka tartibda suhbat, kuzatishlar, testlar va boshqalar. Bu o‘qituvchiga har bir talaba uchun qaysi yondashuv eng yaxshi ekanligini aniqlashga va darslarni o‘z ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. individual ehtiyojlar.

Samarali bo‘lishi mumkin bo‘lgan yana bir yondashuv zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdir. Bugungi kunda ko‘plab maktablar o‘rganishni osonlashtirish va o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni



yaxshilash uchun interfaol doskalar, kompyuterlar, planshetlar va boshqa jihozlardan foydalanmoqda. Shuningdek, o'qituvchilarga darslarni samarali tashkil etish va o'tkazishga yordam beradigan ko'plab dasturiy echimlar mavjud, masalan, elektron darsliklar, onlayn kurslar va boshqalar.

Yana bir yondashuv - ta'lim jarayonida o'yin elementlaridan foydalanish. Ko'pgina o'qituvchilar darslarni o'quvchilar uchun qiziqarli va qiziqarli qilish uchun o'yin va mashg'ulotlardan foydalanadilar. Bu, ayniqsa, disleksiya, DEHB va boshqa konsentratsiya muammolariga moyil bo'lgan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Va nihoyat, ota-onalar farzandlarining bilim olishida muhim rol o'ynashi mumkinligini hisobga olish kerak. O'qituvchilar ota-onalarni o'quv jarayoniga jalb qilishlari mumkin, masalan, ota-onalar konferentsiyalarini o'tkazish, axborot byulletenlarini yuborish va hokazo. Shuningdek, ota-onalarga uyda o'z farzandlariga qanday yordam berishlari mumkinligi haqida kerakli ma'lumotlarni taqdim etish kerak, masalan, qo'shimcha o'qish materiallari yoki mustaqil topshiriqlarni bajarish.

Umuman olganda, o'qituvchilar talabalarning bilimni yaxshilash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab texnika va yondashuvlar mavjud. Har bir talaba har xil va barchaga mos keladigan yagona yondashuv yo'q. Shuning uchun har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashish uchun turli xil usul va usullardan foydalanish muhimdir. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar, o'yin elementlari va ota-onalarning ishtiroki ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Shuni yodda tutish kerakki, o'qituvchilar o'z ishining sifatini doimiy ravishda oshirish va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun doimo yangi usul va yondashuvlarni izlashga tayyor bo'lishi kerak.

O'zbekiston maktablarida ta'lim sifatini oshirishga yordam beradigan ba'zi tavsiyalarni sanab o'tamiz:

1) O'quv rejasini takomillashtirish: O'quv dasturi shunday tuzilishi kerakki, talabalar barcha sohalar bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni egallasinlar. Shuningdek, u tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u berishi muhimdir.

2) O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni kuchaytirish: O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan do‘stona muhit yaratishi va aloqa o‘rnatishlari, ularga materialni o‘rganish va muammolarni hal qilishda yordam berishlari kerak.

3) Texnologiyadan foydalanish: Zamonaviy texnologiya talabalar uchun interaktiv va qiziqarli qilish orqali o‘quv jarayonini sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin. Masalan, interfaol doska, kompyuter va planshetlardan foydalanish o‘quvchilarga materialni yaxshiroq tushunishga va uni esda saqlashga yordam beradi.

4) Talabalarga individual yondashish: O‘qituvchilar har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olishi va o‘qitish uslubini har bir talabaga moslashtirishi kerak.

5) Ota-onalarning ishtiroki: Ota-onalar o‘z farzandlarini o‘rganishda qo‘llab-quvvatlab, uy vazifalarini bajarishda yordam berishlari mumkin.

6) O‘quv faoliyatini baholash: O‘quv faoliyatini baholash o‘qituvchi va o‘quvchilarga materialni qay darajada o‘zlashtirganliklarini va qaysi sohalarda qo‘shimcha o‘rganishni talab qilishini tushunish imkonini beradi.

7) Qo‘shimcha mashg‘ulotlar va darslar: Materialni o‘rganishda qiynalayotgan talabalar materialni yaxshiroq tushunishlari va qo‘llashlari uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar va darslar olishlari mumkin.

Albatta, maktabda ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradigan boshqa ko‘plab usullar mavjud. O‘qituvchilar va maktab ma‘muriyati doimiy ravishda o‘qitish uslublarini takomillashtirish ustida ish olib borishi, yaxshi natijalarga erishishga intilishi muhim. Talabalarning loyihalarda ishtirok etishi, ekskursiya va tadbirlar tashkil etish, qo‘shimcha seminar va maslahatlar o‘tkazish ana shunday usullar qatoriga kiradi. Bu usullarning barchasi talabalarning o‘sishi va rivojlanishiga yordam beradigan qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi ta‘lim muhitini yaratishga yordam beradi.

O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabda dars berish jarayonida o‘qituvchilar duch keladigan ko‘plab muammolar, masalan, vaqt etishmasligi, sinfda o‘quvchilarning ko‘pligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi va hokazo. Biroq, dars samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning bilim sifatini oshirish uchun ko‘plab texnika va yondashuvlar mavjud.

Har bir talabaga individual yondashuv ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin, chunki u o‘qituvchiga har bir talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatini

aniqlashga va darslarni shu ehtiyojlarga moslashtirishga imkon beradi. Biroq, bu yondashuv o‘qituvchidan ko‘proq vaqt va kuch talab qilishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini osonlashtirish va o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashda ham foydali bo‘lishi mumkin. Biroq, ba’zi maktablar zarur apparat va dasturiy ta’minotga ega bo‘lmasligi mumkin.

O‘quv jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish, ayniqsa diqqatni jamlashda muammolari bo‘lgan o‘quvchilar uchun darslarni yanada qiziqarli va qiziqarli qilishda foydali bo‘lishi mumkin. Biroq, bu yondashuv barcha talabalar uchun mos kelmasligi va kerakli bilim va ko‘nikmalarni ta’minlashi mumkin.

Va nihoyat, ota-onalar farzandlarining bilim olishida muhim rol o‘ynashi mumkinligini hisobga olish kerak. Ota-onalarni o‘quv jarayoniga jalb qilish va ularga uyda o‘z farzandlariga qanday yordam berishlari haqida tegishli ma’lumotlarni taqdim etish o‘quvchilarning muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Umuman olganda, maktabda dars sifatini oshirishda turli xil o‘qitish usullaridan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin, ammo har bir metodning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor, o‘qituvchilar aniq o‘quvchilar va vaziyatlar uchun eng samarali yondashuvni tanlashlari kerak.

Xulosa qilib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1) O‘qitishning turli usullari va usullarining afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Bir nechta usullarning kombinatsiyasidan foydalanish bitta usuldan ko‘ra samaraliroq bo‘lishi mumkin.

2) Har bir o‘quvchiga individual yondashish o‘qituvchiga har bir o‘quvchining ehtiyojlari va qobiliyatini to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi, bu esa darslarni uning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

3) Interfaol doskalar, kompyuterlar va dasturiy yechimlar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini va o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

4) Ta’lim jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish darslarni o‘quvchilar uchun qiziqarli va jozibador qilish imkonini beradi.

5) Ota-onalar o‘z farzandlarining bilim olishida muhim rol o‘ynashi mumkin va ularning o‘quv jarayoniga jalb etilishi ta’lim natijalarini yaxshilashi mumkin.





6) O‘qituvchilarning o‘qitish mahorati va samaradorligini oshirish uchun yangi usul va texnologiyalarni o‘zlashtirib, o‘rganish va rivojlanishda davom etishi muhim.

Maktablarda dars sifatini oshirish sohasida olim-pedagoglar, ta’lim va pedagogik amaliyot mutaxassislari, pedagogik psixologiya sohasi mutaxassislari, shuningdek, ta’lim-tarbiya ishlari bilan bog‘liq boshqa mutaxassislar.

Ularning izlanishlari o‘qitishning yangi uslub va uslublarini izlashga, shuningdek, o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga imkon beradigan darslarni o‘tkazishning maqbul shakl va uslublarini aniqlashga qaratilgan.

Bu sohaning ayrim olimlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning sinfda o‘zaro munosabatlarini o‘rganishga, o‘quvchilarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beruvchi ta’lim muhitini yaratishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratgan. Boshqa olimlar o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish usullariga, shuningdek, talabalarni tushunish va akademik muvaffaqiyatga yordam beradigan talabalarni baholash tizimlarini ishlab chiqishga e’tibor berishadi.

Ayrim olimlar o‘quv jarayonida elektron darsliklar, videodarslar, vebinarlar kabi texnologiyalar va interfaol ta’lim vositalaridan foydalanish, ularning o‘quvchilar motivatsiyasi va o‘quv samaradorligini oshirishdagi o‘rni haqida ham izlanishlar olib bormoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqot natijalariga kelsak, ular darslarni o‘qitishning yangi uslub va yondashuvlarini ishlab chiqish, elektron o‘quv materiallarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va talabalarni baholash tizimini ishlab chiqishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari maktablar va o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini optimallashtirish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni o‘rganish va tarbiyalashda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot turli xil o‘qitish usullari va yondashuvlaridan foydalanish maktabda dars sifati va o‘quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligini tasdiqladi. Shu bilan birga, har bir talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olish va o‘qituvchilar o‘z ishida maksimal samaradorlikka erishish uchun yangi usul va texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirishni davom ettirish kerak.



### ADABIYOTLAR:

1. Selevko G.V. Zamonaviy dars / G.V. Selevko. - M.: “Xalq ta’limi”, 2015.- 187 b.
2. Molochkina N.Yu. Boshlang'ich sinflarda o‘quv jarayonining diagnostikasi, tahlili va monitoringi. "Boshlang'ich sinf o‘qituvchisi" jurnali. 2002 yil
3. Krilova N.B. Ta'limning sinf-dars tashkil etishiga qarshi loyiha usullari Maktab texnologiyalari. - 2004. – No 5. – B.59.
4. Abdullaeyvna S.G., Sergeevna K.N. An education of ecological culture of students in the conditions of professional training // East European Scientific Journal. – 2022. – №. 1-2 (77). – C. 11-15.
5. Shakhmurova G. A., Egamberdiyeva L. N., Shakhmurova M. A. Health protection activity of a teacher in formation of students’ personality: European science review. – 2017. № 3-4. C 85-86.



---

# Research Science and Innovation House



## Ҳалима Аҳмедова шеърларида аёл образининг бадий ифодаси

Салоҳиддинова Нигорахон Иномжонова

Филология фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент в.б.

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY” NOTM.

Андижон

**Аннотация.** Мақолада Ҳалима Аҳмедованинг айрим шеърлари таҳлил қилинган бўлиб, унда аёл ички дунёсининг руҳий манзаралари ҳақида мулоҳазалар берилган.

**Калит сўзлар.** Поэтик мазмун, лирик қаҳрамон, образ, образли тахайюл, кечинма, пейзаж

Бугунги кун шеърляти янада нафислашиб, янада теранлашиб бораётганлиги Ҳалима Аҳмедова ижодида ҳам кузатилади. Унинг шеърларида аёллик нафосати билан бирга ақл-мушоҳадага тўйинган “лирик мен”ни учратамиз. У босиқлик билан инсон кўнглига йўл топмоққа уринади. Ўз кузатишлари асосида хулосаларини баён қилади. Бу хулосалар бир-бирига шундай боғланганки, зукко ижодкор умрни, инсонни, ишқни бир бутун системага сола олади. Ана шу жараён шоира ижодида асосий сценарийга айланади. Ижодкор шеърларида бу дунёнинг синовларидан тобланган инсон қалбини чизмоққа уринади. Фақат бу тузилма поэтик мазмунга йўғрилиб, шоира руҳиятига қоришиқ ҳолда ифода этилади.

Мен ҳеч кимни бахтли қилмаган аёл,

Қисмати юлдуздан тўкилган савол,

Ўрик гулларига айланган хаёл,

Қай кун руҳи равон бир ёр истадим<sup>1</sup>.

Лирик қаҳрамоннинг тушқун кайфияти ҳеч кимни бахтли қилмаган аёл қиёфасида намоён бўлади. У ўзининг бундай қисматида жавобни юлдузлардек ҳадсиз саволлардан излайди. Бу ўринда *ўрик гули* ўзида рамзий поэтик маънони ташигани ҳолда лирик қаҳрамоннинг қайтмас бўлиб кетган

<sup>1</sup> Аҳмедова Ҳ. Эрк даричаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.75.

ёшлигига ишора беради. Шоира беихтиёр ёшликдаги орзуларини ёдга олади. У руҳи равон ёр – садоқатда тенгсиз ошиғини излаган кунларини эсга олади.

Аёл руҳияти шундай жумбоқки, унда ҳиссиёт ва мантиқ бирдек характерга эга. Ана шу жумбоқли характер аёл шоиралар шеърлятида ўзининг бор жозибаси билан етакчилик қилишида кўринади. Шеърларни ўқир эканмиз, лирик қаҳрамонга ўзи нима керак эканлигини тушуна олмай қоламиз гоҳида. Шундай бўлса-да, уларнинг гоҳ тошқин, гоҳ маҳзун, гоҳ аламли, гоҳ мушоҳадали шеърляти бизни ўзига мафтун этаверади.

Ҳалима Аҳмедованинг қуйидаги шеърда ҳам аёлларга хос тажанглик, катыйликни учратамиз. Ҳиссиётлар шундай таранглашадики, гўё лирик қаҳрамон ҳақиқатдан ҳам *гул, сабо, харсангтош, сахро* образларига айланиб кетади. Бунда тасвир худди кино лавҳаларидек ўқувчи кўз ўнгида кетма-кет тасвирланади.

Таассуф

Агар гул бўлсайдим,

Сен ишон...

Боғингда ўсмасдим

Ҳеч қачон.

Таассуф билан айтилган биргина жумла аёлнинг сифати – гул образида берилиши лирик қаҳрамоннинг образли тахайюли билан бадий психологизмни янада чуқурлаштирган. Эркак ижодкорлар томонидан аёлни *гул, ойга* қиёс этиш мумтоз адабиётдан қолган анъанадир. Аёлнинг ўзини-ўзи гул дейиши – унинг ожиза эканлигига урғу бериш билан бир қаторда, маккоралигини ҳам кўрсатади. Ошиғида ачиниш туйғусини ҳис эттириш мақсадида ўз ожизалигини пеш қилади. Аммо буни ўзи тан олмайди. Ҳамма замонда ҳам аёл табиатидаги ўжарлик ошиқнинг хижронда ўртанишига сабаб бўлган. Қуйидаги шеърда ҳам лирик қаҳрамоннинг қайсар кайфиятини, мағрур ҳолатини кўрамыз.

Агар сабо бўлсам,

елиб-югурмасдим

Сен томон.

Бир харсангтош бўлганимда,

Йўлингга ётмасдим бегумон.

Қочар эдим номинг эшитиб,

Хатто сахро бўлганимда ҳам.

“Бадиий асарда ҳар бир сўз муайян “юк” ташиши лозим. Санъаткор доимо минглаб сўзлар ичидан энг керагини танлайди, заргарона танланган ана шу сўзлар қахрамон ва шароитнинг мазмуни (ғояси), ҳолати билан чамбарчас боғланиши, у аниқ эстетик мақсад (мазмун)ни воқе қилиши шарт”<sup>2</sup>лилигини ҳисобга олсак, юқоридаги шеърда лирик қахрамоннинг кечинмалари пейзаж тасвири орқали бадиийлашганини кўрамиз. Шеърдаги пейзаж деталлари ва ходисалари ўз ўрнида лирик қахрамоннинг рухий ҳолатини очиб берувчи восита сифатида иштирок этган ва поэтик образ даражасига кўтарилган. *Гулнинг нозиклиги, сабонинг шаддодлиги, тошнинг қаттиқлиги, саҳронинг қуруқлиги* – булар бари аёлнинг ички оламини кўрсатувчи восита бўлиб хизмат қилган.

Бу сенмасми,  
Сенмасми ахир,  
Кўзларимда чанқаб ётган ғам?  
Мен-ку сени тан олмас эдим,  
Аёллигим панд берди фақат.  
Яшамокчи эдим одамдай,  
Нима қилиб кўйдинг муҳаббат<sup>3</sup>.

Шеърда икки тирик вужуд – аёл ва руҳни кўрамиз. Лирик қахрамоннинг туйғулари соф ва самимий. Шундан унинг руҳи ҳамиша қатъий. Лекин вужуд, яъни аёллик вужуди алданган. Тана ва руҳнинг олишувида руҳнинг азобланиши, саросар туйғуларнинг жунбушга келиши худди оқимга қарши сузаётган кишига ўхшайди. Руҳ бу ўринда муҳаббат туйғусини ҳам аяб ўтирмайди. Гоҳ аёллик шахсидан, гоҳ муҳаббат туйғусидан ўз аразини яширмайди. Руҳнинг азобланиши *Аёллигим панд берди фақат Яшамокчи эдим одамдай, Нима қилиб кўйдинг муҳаббат* мисраларида янада кучаяди. Бу ўринда шеър ўзаги руҳ кечинмасида, аёл образида, муҳаббат туйғусидан янада кенг мазмун касб этади.

Ҳалима Аҳмедованинг “Фол” шеъри воқебанд шаклда ёзилган. Шундай бўлса-да, унда лирик қахрамоннинг оғрикли кечинмалари ўқувчини беэътибор

<sup>2</sup> Умутов Х. Адаётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.149.

<sup>3</sup> Аҳмедова Х. Афсун. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 45.

қолдирмайди. Шеърда аёлларга хос хислат – ишонувчанлик хислати фол иши билан аниқ тасаввур уйғотган.

Қачонлардир бир лўли хотин

Фол очганди, юлдузли, ойли.

Дегандики, сенинг пешонанг

Яхши кунга тўла чиройли.

Гарчи кулдим унинг фолидан,

Аmmo дилим ёришган эди

Билмас эдим, эртанги куним,

Қайғуларга қоришган эди<sup>4</sup>.

Ушбу шеърда руҳий ва ижтимоий ҳолатнинг уйғунлашувини кўришимиз мумкин. Аёлнинг табиатидаги соддалик, ишонувчанлик бу ўринда ўзининг асосли исботини топгандек. Фолга ишониш, фолбинга бориш динимизда қаттиқ қоралангани ҳолда, бадий адабиётда ҳам аёл хусусиятида унинг ёлғон нарса эканлиги яна бир қарра фол этилади. Чунки лўли хотин унга яхши кунлар ҳақида башорат айтса-да, аслида лирик қаҳрамоннинг тақдири у айтганчалик эмас.

#### Адабиётлар

1. Аҳмедова Ҳ. Афсун. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 45.

2. Аҳмедова Ҳ. Эрк даричаси. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.75.

3. Умуров Ҳ. Адаётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.149.

# Research Science and Innovation House

<sup>4</sup> Аҳмедова Ҳ. Афсун. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 35.



## BUGUNGI KUNDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHGA ASOSDIR

**Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs  
Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi talabasi  
Sharopova Shaydo Shamsiddin qizi**

**Ilmiy rahbar: Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot kafedrası  
o'qituvchisi Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va uni jamiyatda keng targ'ib qilish usullari yo'llari va bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyotimizda uning qanchalar muhim ekanligi haqida fikr yuritamiz. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot iqtisodiyotimizning deyarli barcha sohalarida mavjud bo'lib, shu bilan birga yashirin iqtisodiyotni ham dunyo miqyosida keng tus olganligi va buning kelib chiqish sabablari hamda oldini olish usullari haqida so'z boradi. Ushbu maqolamizning maqsadi raqamli iqtisodiyotimizga texnik texnologik yangiliklar kiritish orqali jamiyatimiz fuqarolarining moliyaviy savodxonligini oshirish va ularni dasturiy savodxonlik darajasini kengaytirishga qaratilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** raqamli iqtisodiyot, internet texnologiyalari, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish usullari, yashirin iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot, telekommunikatsiyalar, raqamli texnologiyalar.

**Abstract.** In this article, we will consider ways to develop the digital economy and promote it widely in society, and how important it is in today's rapidly developing global economy. Today, the digital economy exists in almost all areas of our economy, and at the same time, the hidden economy has become widespread on a global scale, and the reasons for its origin and prevention methods are discussed. The purpose of this article is to increase the financial literacy of citizens of our society and expand their level of software literacy by introducing technical technological innovations into our digital economy

**Keywords:** digital economy, internet technologies, methods of digital economy development, hidden economy, informal economy, telecommunications, digital technologies



**АННОТАЦИЯ:** В этой статье мы обсудим пути развития цифровой экономики и ее широкого продвижения в обществе, а также то, насколько она важна в современной быстро развивающейся глобальной экономике. Сегодня цифровая экономика существует практически во всех сферах нашей экономики, и в то же время скрытая экономика получила широкое распространение в мировом масштабе, обсуждаются причины ее возникновения и методы предотвращения. Целью данной статьи является повышение финансовой грамотности граждан нашего общества и расширение их уровня программной грамотности путем внедрения технических технологических инноваций в нашу цифровую экономику.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** цифровая экономика, интернет-технологии, методы развития цифровой экономики, скрытая экономика, неформальная экономика, телекоммуникации, цифровые технологии.

**KIRISH:** Bugungi global iqtisodiyotimizda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida mavjud bo‘lib ilmiy adabiyotlarda ham keng qo‘llanib kelinmoqda. Darhaqiqat, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o‘tkazgan. Jamiyatning rivojlanish bosqichida raqamli iqtisodiyot muhim rol o‘ynaydi. Bu atama birinchi bo‘lib 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o‘tishda, qanday o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkinligini aytib o‘tgan. Avvalo raqamli iqtisodiyot tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz.

**Raqamli iqtisodiyot** – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Kengroq ma'noda raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi





sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

**MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI:** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida “2020 yil – Ilm- ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Shundan keyin fuqarolarda “raqamli iqtisodiyot” atamasi haqida ko‘plab savollar tug‘ila boshladi. Huquqiy axborot kanali “raqamli iqtisodiyot” atamasining mazmunini ochib beruvchi maqola e’lon qildi. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Albatta, bugungi global iqtisodiyotimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, hamda zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi, har bir inson hayotida ko‘plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o‘ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko‘plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko‘rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko‘rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo‘lmasa oddiy iste'molchi o‘zi ham tadbirkor bo‘lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyot orqali yuzaga keladi.

#### **Raqamli iqtisodiyotning quyidagi belgilari mavjud:**

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integrasiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o‘zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

#### **Qulayliklari:**

1. To‘lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo‘lkira va boshqa resurslar tejaladi).
2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proq va tezroq ma’lumot olinadi.



3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.

4. Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyotni mamlakatimizda keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.

Dastlab, Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yana-da rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi “business.gov.uz” portali ishga tushirildi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga karatilgan “Raqamli ishonch” jamg'armasi tashkil etildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish uchun, shu jumladan bir vaqtning o'zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o'tkazish va tezkor jo'natish uchun vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizimi “project.gov.uz” joriy etildi.



Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan “IT-park”lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo‘lga qo‘yildi

### **Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bizga quyidagi afzalliklarni beradi.**

1) Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslikning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo‘yadi. Ma’lumotlar ko‘pligi va tizimliliigi yolg‘on va qing‘ir ishlarga yo‘l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada “iflos pullarni” yuvish, mablag‘larni o‘g‘irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko‘rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag‘lar oqimini oshiradi, soliqlar o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanadi, byudjet taqsimoti ochiq bo‘ladi, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar o‘g‘irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq yetib boradi va hokazo.

2) Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo‘nalishlar ochib beradi. “Raqamli texnologiyalar” tomon burilishga butun jahon internet tarmog‘i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo‘ldi.

Bugungi rivojlangan global dunyo miqyosida raqamli iqtisodiyot bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotida yashirin ya’ni xufiyona iqtisodiyot ham yuzga kelgan va bu iqtisodiyotning kushandasi deb etirof etilmoqda,

**Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot** — ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar



to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari. yashirin iqtisodiyot mavjud qonun va jamiyat qoidalarini chetlab o‘tuvchi jamiyatdagi fuqarolarning iqtisodiy aloqalari desak ham bo‘ladi.

Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog‘liqdir. Shuning uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning o‘rni va roli ham turlichadir. Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, xufyona iqtisodiyotning miqyoslari rivojlangan mamlakatlarda birmuncha kamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda kengdir. Shu boisdan xufyona iqtisodiyotning mohiyati, vujudga kelish va rivojlanish sabablarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini, uni ko‘lamlarini keskin kamaytirish, unga qarshi kurash masalalarini o‘rganish, tadqiq qilish barcha davlatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda bu masalalar XX-asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy jihatdan tadqiq etilmoqda. Yashirin iqtisodiyotning oldini olish uchun eng avvalo biz mamlakatimizning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishimiz darkor ba bu borada ko‘plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **Yashirin iqtisodiyot: unga qarshi kurashishda asosiy kuch biznes va jamoatchilikdir**

Jahonning deyarli barcha mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot mavjud bo‘lib, hozirga qadar hech bir mamlakatda uni butkul yo‘q qilishga erishilmagan. Lekin ko‘p davlatlarda bunday iqtisodiyotning ulushi va ta’siri minimal darajada kamaytirilgan. Bu haqda gapirganda Yevropa davlatlari tajribasini misol qilib keltirish mumkin. Negaki, bu davlatlarning aksariyati yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashishda soliq mexanizmlariga alohida e’tibor qaratgan. Chunki aynan soliqlarning yuqori darajadaliigi ko‘p hollarda yashirin iqtisodiyotning palak otishiga turtki beradigan omillardan hisoblanadi.

Yashirin iqtisodiyot nafaqat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, balki davlat hisobi hamda nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan ham rasmiy



statistikada aks etmaydigan xo‘jalik faoliyatidir. Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish uchun rivojlangan davlatlarning bosib o‘tgan yo‘llari chuqur tahlil qilib, o‘zimizga mos bo‘lgan yo‘nalishlarga tayanib, bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim, deb o‘ylayman.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha hududiy komissiyalar esa tadbirkorlarga faoliyatini qonuniylashtirishda va zarur ruxsatnomalarni olishda yordam berish, shuningdek, ular bilan profilaktika ishlarini olib borish, yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladigan sabablar va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralari ko‘rish, noqonuniy olib kirilgan yoki kontrafakt tovarlarni hamda yuk tashish hujjatlarisiz mamlakat ichida harakatlanayotgan tovarlarni sotishga qarshi kurashish bilan shug‘ullanadi.

Farmonda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashishda vazirlik va idoralarning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda soliq va bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha «yo‘l xarita»si tasdiqlanishi ham belgilangan. Endilikda Maxsus komissiya yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha, jumladan, «yo‘l xaritasi»da ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarga doir takliflar muhokama qilinishini ta‘minlaydi, shuningdek, har oy erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarni eshitib boradi.

**TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI:** Ushbu tadqiqotlarda asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mamlakatda vujudga kelgan yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish haqida so‘z yuritildi. Biz yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun raqamli iqtisodiyotni barcha sohalarda qo‘llashimiz kerak. Mamlakatimizda barcha sohalarda raqamli tizimga o‘tilishi jamiyat na‘zolariga yengillik yaratadi hamda ish sifati oshadi., asosiysi yashirin iqtisodiyot qisqarishiga zamin yaratadi. Yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlashning bir qator metodlari mavjud bo‘lib, ulardan samaralisi naqd pul va talab qilib olingunga qadar depozitlar nisbati orqali aniqlashdir. Yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirishda asosiy vositalar bular Fiskal hamda Monetar vositalardi.



### Tahlil va natijalar:

Mamlakatda pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosati sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish jarayonida yashirin iqtisodiyotning ko‘lamini qisqartirish doimo dolzarb masalalar qatorida bo‘lib kelgan. Yashirin iqtisodiyot, o‘zining tabiati bo‘yicha, rasmiy statistikalarda ko‘rsatilmaydigan va davlat nazoratidan chetda qoladigan iqtisodiy faoliyatlar yig‘indisidir. Ushbu iqtisodiyot ko‘lami nafaqat soliq bazasining qisqarishiga, balki ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy noaniqlikning ortishiga ham olib keladi. Byudjetlashtirish jarayonlarida shaffoflik, bevosita ishtirok etish hamda ijtimoiy mas‘uliyatni oshirish. Soliqlar nimaga sarflanishi doimiy eslatib borish aholi orasida soliq to‘lash madaniyatini ommalashtirish hamda ijtimoiy mas‘uliyatni oshirishga hissa qo‘shadi. Byudjet xarajatlari va soliq to‘lovlari bo‘yicha samarali muloqot davlat va tashkiliy jarayonlarda shaffoflik, hisobdorlik va jamoatchilik ishonchini oshirish uchun juda muhimdir. Fuqarolarni byudjetni taqsimlash bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qiluvchi tashabbusli byudjet loyihasi samarali kommunikatsiya tizimi instrumentlaridan biri hisoblanadi.


**Xulosa va takliflar:** Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davr talabi bo‘lib kelmoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, yashirin iqtisodiyot har qanday davlatni ich ichidan yemirtadi desak mubolag’a bulmaydi. Chunki yashirin iqtisodiyot mavjud davlatda hech qanday soliq undirilmaydi va buning natijasida korrupsiya ham keskin tus olishi ham mumkin. Demak raqamli iqtisodiyotni kengaytirish rivojlantirish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning end asosiy dastaklaridan biri deysak adashmagan bulamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – С. 185-191. 2. Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С.



176-181. 3.Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378. 4.Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафийметодологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551



Research Science and  
Innovation House



## Sog'liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

Surxondaryo viloyati

Termiz davlat pedagogika instituti

Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Telefon: +998975332919

**Annotatsiya:** Sog'liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish, yani ekonometrikaning sog'liqni saqlash sohasidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa o'zgaruvchilarga qarab uning kelajakdagi tendensiyalarini bashorat qilish demakdir. Ushbu maqolada Sog'liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish haqida ilmiy tadqiqot natijalari keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'lumotlar tahlili, prognozlovchi modellashtirish, sog'liqni saqlash sohasida modellashtirish, statistik analiz metodi, rivojlanish tendensiyalari analiz

**Аннотация:** Эконометрическое моделирование тенденций развития системы здравоохранения, то есть эконометрика означает анализ статистических данных в сфере здравоохранения и прогнозирование ее будущих тенденций в зависимости от других переменных. В данной статье представлены результаты научных исследований по эконометрическому моделированию тенденций развития системы здравоохранения.

**Ключевые слова:** анализ данных, прогнозное моделирование, моделирование в здравоохранении, метод статистического анализа, анализ тенденций развития.

**Abstract:** Econometric modeling of development trends in the health care system, that is, econometrics means the analysis of statistical data in the field of health care and the prediction of its future trends depending on other variables. This article presents the results of scientific research on econometric modeling of development trends in the health care system.

**Key words:** data analysis, predictive modeling, modeling in healthcare, statistical analysis method, development trends analysis



**Kirish:** Sog'liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish, sog'liq sohasidagi sanoat, xizmatlarni taqdim etish, va davlat tomonidan taklif etilgan dasturlarni o'rganishga yordam beradi.

Bu modellashtirish jarayoni uchun bir necha qadamlar bo'ladi:

1. **Ma'lumotlar to'plash:** Birinchi navbatda, sog'liq sohasidagi ma'lumotlar to'plangan va tahlil qilingan bo'lishi zarur. Bu ma'lumotlar sog'liq xizmatlari sotib olish, davlat tomonidan amalga oshirilgan dasturlar, va boshqa muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

2. **Modellashtirish modelini tanlash:** Modellashtirish jarayonida qaysi modelni ishlatish kerakligini aniqlash juda muhimdir. Odatda ekonometrik modellar (masalan, regressiya modellari) ma'lumotlar analizi va prognoztikasi uchun foydalaniladi.

3. **Modellashtirish:** Ma'lumotlar analizidan foydalanib, rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatadigan ekonometrik modellarni yaratishingiz kerak. Bu modellarni aniq parametrlar bilan tasdiqlash va natijalarni tahlil qilish juda muhimdir.

4. **Prognoztika va taqqoslash:** Modellashtirilgan model orqali kelajakdagi tendensiyalarni boshqa davrda aniqlashga imkon beradi. Bunday taqqoslash natijalari bilan sog'liqni saqlash tizimida qanday o'zgarishlar kiritilishi kerakligini aniqlab chiqishingiz mumkin.

Ushbu bosqichlarga amal qilib, sog'liq sohasidagi rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirishingiz mumkin va bu sizning strategik planningizga yordam berishi mumkin.

**Asosiy qism:** Sog'liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish, yani ekonometrikaning sog'liqni saqlash sohasidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa o'zgaruvchilarga qarab uning kelajakdagi tendensiyalarini bashorat qilish demakdir.

Bu modellashtirish jarayoni uchun bir necha qadamlar o'tkaziladi. Birinchi navbatda, tahlil bo'yicha ma'lumotlar to'plashadi va ular statistik hisobotlar orqali tahlil qilingan. Keyingi bosqichda, ma'lumotlar modellarga kiruvchi o'zgaruvchilar tanlanadi va ularning ta'siri o'rganiladi.

Modellashtirish jarayonida, statistik modellar yordamida sodda regressiya analizi yoki komplekslik darajali modellar qo'llanilishi mumkin. Modellarga ma'lumotlar kiritilib, modellar parametrlari aniqlanadi va keyinchalik kelajakdagi tendensiyalar bashorat etiladi.



Bunda ham, modelni tekshirish jarayoni ham juda muhimdir - bu modelning ma'lumotlarga mos tushib ketishi va kelajakdagi tendensiyalarni aniqlovchi bo'lishi uchun amaldagi qiymatlarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi ekonometrik modellashtirishning muhimligi undan kelajakdagi policyani shakllantirishda foydalangan holda sog'liq sohasidagi resurslarni samarador foydalanishga imkon beradi. Bu esa sog'liq sohasining rivojlanishi va fuqarolarning sog'lig'i uchun yaxshi natijalar olishiga asos bo'ladi. Sog'liqni saqlash tizimi va uning rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish, ma'lumotlar analizi va statistik analiz amaliyotlari orqali amalga oshiriladi. Bu modellashtirish jarayoni, sog'liqni saqlash sohasidagi muhim faktorlarni aniqlash va ularning o'zaro aloqasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Modellashtirish jarayonida, bir nechta muhim o'zgaruvchilarni (masalan, sog'liqning moliyaviy boyliklari, shifoxona xizmatlarining sifati va yetuk xodimlar soni) ko'rsatuvchi sifatida ishlatish mumkin bo'ladi. Ushbu o'zgaruvchilar haqida ma'lumotlar to'plami statistik yozma yoki boshqa ma'lumotlar to'plash vositalari yordamida to'planadi.

Keyin, bu ma'lumotlar statistik nazorat usullari orqali tahlil qilingan va mos keladigan ekonometrik modellar (masalan, regressiya modellari) yaratiladi. Modellar yordamida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi va uning keyinchalik prognozlashtirilishi uchun matematik formulalar bilan ifodalangan tasavvur etarlicha model yaratiladi.

Ekonometrik modellashtirish jarayoni sodda formulalar orqali ifodalangan bo'lsa-da, uni amalga oshirish uchun matematik nazorat usullari va kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Modellarini tekshirib ko'rish va tadqiq etish jarayonlari orqali ularni sodda ta'kidlash va mustahkamlash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, ekonometrik modellashtirish natijalari sog'liq sohasidagi siyosatni shakllantirishga ham imkon berishi mumkin. Sog'liq sohasidagi muammolar va e'tibor talablari aniqlab chiqilsa, ekonometrik modellashtirish natijalari asosida siyosat tanlash imkoniyatlari ochilib boradi. Bu esa sog'liqliktan foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratadigan yangi strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqarishga imkon beradi.

**Muhokama:** Sog'liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish muhokama, sog'liq sohasidagi policymakerlarning qarorlarini qabul qilishda foydali bo'ladi. Ekonomika sohasida amalga



oshirilayotgan tadqiqot va tahlillar, sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanishi va uning ustuvor masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan policy ni yaratishning asosiy qismidir.

Ekonometrik modellashtirish muhokama, statistik ma’lumotlar va ekonometrika metodlarini qo‘llab-quvvatlab, sog‘liq sohasidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi. Bu tahlil usullari orqali, sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishiga olib keladigan faktorlarni aniqlab chiqish mumkinligi mavjud.

Bunda, modellarni ishlab chiqish va ta’til etish jarayoni ko‘pincha sodda emas, chunki bu shuhrat usullari va tezkor natijalar bermaydi. Shuningdek, modelning aniq va ishonchliligini baholash ham muhimdir.

Shuningdek, ekonometrik modellashtirish muhokamasining natijalari to‘g‘ri tarzda tushunarli bo‘lmasa, ularning policy ni shakllantirishda kutilmagan o‘tkazuvchi tasirlari bo‘lishi mumkin. Demak, bu jarayonni aniq va dastlabki bosqichlarda boshlamak kerak va natija olish uchun ustuvor ilmiy-qurilma texnologiyasidan foydalanilishi tavsiya etiladi.

**Xulosa va takliflar:** Sog‘liqni saqlash tizimi, insonlarning sog‘liqni saqlash va kasalliklarni oldini olish uchun muhim bir qo‘llanma hisoblanadi. Bu tizimda rivojlanish tendensiyalarini analiz qilish va modellashtirish, kelgusi strategiyalarni belgilashda muhimdir. Ekonometrik modellashtirish, istatistik va iqtisodiyotning birlashmasi bo‘lib, ma’lumotlar analizi va prognostika uchun foydalaniladi.

Rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish yordamida analiz qilish, sog‘liqni saqlash tizimining muhim omonatlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi. Bu modellalar ma’lumotlarni o‘rganib chiqish, mavjud ma’lumotlar asosida projektsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Shuningdek, ular kelgusi yillardagi kasalliklar yoki epidemiyologiya yo‘nalishi uchun strategik rejalarni belgilashda ham foydalanilishi mumkin. Rivojlanuvchi mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tiziminin faoliyatini kuzatib boruvchi organlar uchun ekonometrik modellashtirish amaliyoti yaxshi natijalar berishi mumkin. Modellarga asoslangan ma’lumotlar va natijalar asosida takliflar ishlab chiqilishi orqali davlat organlari va ilmiy jamiyat institutlarining kelgusi strategiyalariga yordam beradi.

Bunday analiz va model yaratish jarayonida sodda statistik metodlar bilan birgalikda kompleks metodlar ham foydalanilishi lozimdir. Ma’lumotlarni to‘plash, tekshirish va ajratuvchi statistik metodlar bilan birga egri-regression analizi, zamonli



ketma-ketlik nazorati (time series analysis), faktor analizi kabi ekonometrik model yaratadigan ko‘rsatkichlar ham qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash sohasidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanib yangi ma‘ruzalarni ishlab chiqishda da ekonometrik modellashtirishdan foydalanilishi tavsiya etiladi. Bunday texnologiyalar misol uchun big data analitika, machine learning algoritmlari kabi usullar bo‘lishi mumkin. Yangiliklar tajribasini to‘plab olgan holda sog‘liqni saqlash sohasidagi mavjud holatni optimallashtiruvchi texnologiyalarga e‘tibor qaratildimi? Oltin dastur oxiri har bir mamlakatning raqsiga mos ravshankulona bo‘lishingiz kerak.

Yana bir xulosa - ekonometrik modellashtirish jarayoni kompetentlikka ega mutaxassis kadrlarning faoliyatiga bog‘liqdir. Ushbu sohadagi mutaxassis kadrlar ta‘lim olgan joydan kelib chiqsa ham mahsulotivushta yangiliklardan xabardor bo‘lishgan holda davlat siyosati sharoitida kerak bo‘lgan yangiliklarga mos javobgarlikka ega bo‘lishi lozimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Health Economics and Policy” by James W. Henderson and Richard E. Quandt - Bu kitob sog‘liqni saqlash sohasida ekonometrika modellashtirishning asosiy prinsiplari va metodlari haqida tushuncha beradi.
2. “Applied Health Economics” by Andrew M. Jones - Bu kitobda sog‘liqni saqlash sohasidagi ekonometrik modellashtirishning amaliyoti va ularning foydalanishining muhimligi haqida ma‘lumot beriladi.
3. “Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data” by Jeffrey M. Wooldridge - Bu kitobda ekonometrik modellashtirishning asosiy konseptlari va ularni sog‘liqni saqlash sohasiga qo‘llashga oid masalalar ko‘rsatiladi.
4. “Health Econometrics Using Stata” by Partha Deb and Edward C. Norton - Bu kitobda Stata dasturlash tilini foydalanib, sog‘liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirishning amaliy qo‘llanilishi masalasi haqida o‘quvchilarga ko‘mak beradi.



## AUTHENTIC VIDEO MATERIALS: ADVANTAGES AND LIMITATIONS

Orzigul Ablakulova

Teacher, Chirchik state pedagogical university

**Annotation.** The article discusses the benefits and challenges of using authentic video materials in language learning. Authentic materials refer to videos created for native speakers, rather than language learners, and thus reflect real-world language use with natural speech patterns, idioms, and cultural contexts. While authentic materials can increase learner motivation and exposure to natural language, they can also present difficulties for lower-level learners due to the complexity of the language and content. The text emphasizes the need to balance the use of authentic materials with pedagogically-designed materials to meet the diverse needs of language learners.

**Keywords:** Authentic materials, communicative competence, cultural awareness, motivation, learner autonomy, real-world language use, conversational patterns, textbook content

**Аннотация.** В этой статье обсуждаются преимущества и трудности использования аутентичных видеоматериалов в изучении языка. Аутентичные материалы относятся к видео, созданным для носителей языка, а не для изучающих язык, и, таким образом, отражают реальное использование языка с естественными речевыми моделями, идиомами и культурными контекстами. Хотя аутентичные материалы могут повысить мотивацию учащихся и их знакомство с естественным языком, они также могут представлять трудности для учащихся с низким уровнем владения языком из-за сложности языка и содержания. В тексте подчеркивается необходимость сбалансировать использование аутентичных материалов с методически разработанными материалами, чтобы удовлетворить разнообразные потребности изучающих язык.

**Ключевые слова:** аутентичные материалы, коммуникативная компетентность, культурная осведомленность, мотивация, автономия учащихся, использование языка в реальных ситуациях, модели разговорной речи, содержание учебников.

**Annotatsiya.** Maqolada tilni o'rganishda haqiqiy videomateriallardan foydalanishning afzalliklari va qiyinchiliklari muhokama qilinadi. Haqiqiy materiallar ona tili sifatida yozilgan videolar bo'lib, unda real til ishlatiluvchi, idiomalar va madaniy kontekstlar aks ettiriladi. Haqiqiy materiallar o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshirishi va ular uchun tabiiy tilni o'rgatish imkonini berishi mumkin, biroq kam darajadagi til bilimiga ega o'rganuvchilar uchun tilning murakkabligi va mazmuning qiyinligi sababli muammolar tug'dirishi mumkin. Matnda haqiqiy materiallardan foydalanishni til o'rganuvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus ishlangan materiallar bilan muvozanatlashtirish zarurligiga urg'u beriladi.

**Kalit so'zlar:** asl materiallar, kommunikativ kompetensiya, madaniy ma'lumot, motivatsiya, o'quvchilarning avtonomiyasi, amaliy vaziyatlarda tilning ishlatishi, og'zaki nutq namunalari, darsliklar materiallari.

